

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
TARJIMASHUNOSLIK, TILSHUNOSLIK VA XALQARO
JURNALISTIKA OLIY MAKTABI**

ILMIY TAFAKKUR SARCHASHMALARI

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti
Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro
jurnalistika oliy maktabi Xalqaro
jurnalistika yo‘nalishi talabalarining
ilmiy maqola va tarjimalar to‘plami

Toshkent – 2025

UO‘K: 81’1:82.0

KBK: 81.2:83

Sh - 53

Ilmiy tafakkur sarchashmalari. To‘plam. – Toshkent: Webprint, 2025. – 170 bet.

Mazkur to‘plamda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi Xalqaro jurnalistika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalar va jahon adabiyoti namunalaridan amalga oshirilgan tarjimalar jamlangan.

Ushbu nashr Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Jadidshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi ko‘magida tayyorlandi.

Loyiha rahbari va mas’ul muharrir:

RUSTAM SHARIPOV

filologiya fanlari doktori, dotsent

Taqrizchilar:

MUXABBAT SALIYEVA

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

DILSHOD RO‘ZIQULOV

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy
maktabining 2025-yil 14-maydagi 22-son qarori
bilan nashrga tavsiya etilgan.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025.

IKKI DUNYO: BADIY TARJIMA VA XALQLAR O'RTASIDAGI KO'PRIK SOHIBI

Farangiz Ne'matova,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Xalqaro jurnalistika yo'nalishi

indonez-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy adabiyot dunyosining ko'zgusi bo'lmish Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning tarjimonlik san'ati va undagi badiiy asarlarning mazmuni, ruhini va uslubiy xususiyatlarini saqlab qolish, ularni o'zbek tiliga moslashtirish mahorati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: jadid adabiyoti, tarjima san'ati, o'tkir qalam sohibi, tarjimonlik mahorati, tarjima san'atining yulduzi, badiiy adabiyotning qalbi, serqirra ijodkor.

Аннотация: В данной статье рассматривается переводческое искусство Абдулхамида Сулеймана Чулпона — яркого представителя художественной литературы. В статье уделяется внимание его мастерству сохранения содержания, духа и стилистических особенностей художественных произведений при их адаптации на узбекский язык.

Ключевые слова: джадидская литература, искусство перевода, сила и обаяние слова, обладатель острого пера, олицетворение переводческого мастерства, звезда переводческого мира, сердце художественной литературы.

Abstract: This article discusses the art of translation of Abdulhamid Suleiman Cholpon, a mirror of the world of fiction, and his skill in preserving the content, spirit and stylistic features of literary works, adapting them to the Uzbek language.

Keywords: modern literature, art of translation, power and charm of words, owner of a sharp pen, embodiment of translation skills, star of the world of translation, heart of fiction.

Atoqli adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori Begali Qosimov Cho'lpon haqida shunday deydi: "Cho'lpon XX asr o'zbek adabiyotining eng mashhur namoyandalaridan, serqirra ijodkorlaridandir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati adabiyotimizning eng yorqin sahifalaridan birini tashkil qiladi. U badiiy ijodning deyarli hamma turi bilan faol shug'ullandi. She'r, hikoya, roman, drama, tanqid, tarjima-hammasida ijod etdi. Lekin, avallo Cho'lpon yangi o'zbek she'riyatining asoschisi hamda tarjima san'atining yorqin nuri sifatida tarixga kirdi."

Darhaqiqat, atoqli shoirimiz bu davrda nafaqat o'zining o'tkir va shu bilan birga qalblarga orom, taskin beruvchi dilbar she'rlari, kuchli drama hamda mumtoz romanlari bilan o'zbek she'riyatiga asos soldi, balki mukammal tarjima qilingan asarlari orqali o'zbek xalqining jahon madaniy merosi bilan tanishtirish maqsadida, o'zbek adabiyotida badiiy tarjima maktabini ham yaratdi, desak aslo adashmagan bo'lamiz. Umuman olganda Cho'lponning tarjimonlik faoliyati uning hayoti va ijodida muhim o'rin egallaydi. Sababi, shoir ijodiy balog'atga etgan palladan boshlab toki umrining oxiriga qadar tarjima ishlariga alohida e'tibor qaratgan. Ammo ajablanarlisi shundaki, bir necha yillar mobaynida ijodi qoralanib, "Cho'lpon boylar, millatchi ziyolilarning mafkurachisidir" deya qoralangan, millatlarni bir-biridan ajratishda, milliy madaniyatlar orasiga rahna solishda ayblanib kelgan adib, muttasil tuhmat-u malomatlarga nishon bo'lib yashagan o'sha davrdayoq barcha o'zbek yozuvchilaridan ildamroq tarjimaning ahamiyatini tushunib yetib, ko'zdan nari bo'lish, ammo shu bilan birga ijoddan to'xtab qolmaslik maqsadida tarjima bilan shug'ullandi. U Turgenev, Chexov, Gorkiy hamda Andreyev kabi rus adabiyotining mashhur shoirlarining asarlarini mohirona, mukammal darajada tarjima qilgan. Cho'lpon tarjima san'atini xalqlararo, madaniyatlararo ko'prik sifatida baholagan. Albatta, tarjima tufayli o'zbek xalqining madaniyati boshqa xalqlar orttirgan madaniy an'analar bilan boyishi darhaqiqat. Adib nafaqat Sharq adabiyotining hikoyalari-yu, romanlarini yuksak darajada tarjima qilgan, balki G'arb adabiyotining ilg'or asarlari hamda she'riyati ham bundan mustasno emas. Jumladan, Shekspirning "Hamlet" fojiasi, Pushkinning "Boris Godunov" dramasi, "Dubrovskiy" qissasi, Gorkiyning "Ona" romani, Faykoning "Portfellik kishi" komediyasi va hokazolar. Umuman olganda bu ro'xatni hali ko'p davom ettirishimiz mumkin, lekin aslini olganda gap ro'yxatda emas, balki adibning tarjimonlik

mahoratidadir. Cho‘lponning qrimtatar, no‘g‘oy, turkman, fors yoxud turk tillardagi asarlarining tarjimalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning tarjima san‘atiga chuqur hamda jiddiy e‘tibor qaratganligiga guvoh bo‘lamiz.

Cho‘lponning tarjimonlik faoliyatida o‘zbek tilining imkoniyatlarini namoyish etish hamda rivojlantirishga qaratilgan urinishlari alohida e‘tiborga loyiqdir. U o‘z tarjimalarida o‘zbek xalqining madaniy va estetik qarashlarini aks ettirish bilan birga, xorijiy adabiyotning rang-barangligini hamda yuksak badiiy g‘oyalarini ham yoritib bergan. Shu bilan birga, Cho‘lponning tarjimonlik faoliyati o‘z davri uchun g‘oyat yangicha qarashlarni ham o‘zida aks ettirgan. Misol tariqasida, shoir o‘zining tarjimalari orqali o‘sha davring ijtimoiy-siyosiy hamda ma‘naviy-ma‘rifiy muammolarini ham yuksak darajada badiiy ifoda qila olgan. Ya‘ni, uning tarjimalari nafaqat badiiy jihatdan, balki ma‘naviy jihatdan ham o‘zbek madaniyati rivojiga xizmat qilgan.

Cho‘lpon tarjima qilinayotgan asarning ma‘nosinigina emas, ruhini ham, uning jozibasi hamda milliy ranglarini ham batamom saqlab qolish tarafdori bo‘lgan. Uning tarjimalarida til hamda uslubning nafisligi, asarning asl mohiyatini o‘zbekona ruhda qayta talqin qilishga bo‘lgan intilishi yaqqol seziladi. Hattoki, she‘riy hamda nasriy asarlarning tarjimalari ham o‘z tarovatini yo‘qotmagan holda tabiiy va ravon tarzda namoyon bo‘lgan. Shuningdek, Cho‘lponning tarjima asarlari yordamida o‘zbek tilida o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lgan asarlar, o‘quvchilarga nafaqat badiiy zavq, balki dunyo adabiyotining eng yugori qirralarini o‘rganish imkonini ham berdi. Bu esa uning tarjimadagi mahoratini va uning o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan ulkan hissasini yanada ta‘kidlaydi.

Bir buyuk shoirning she‘rini muvaffaqiyatli tarjima qilmoq uchun, avval tarjimon o‘sha shoirning darajasiga ko‘tarilmog‘i lozim. Rus adabiyotining buyuk asoschisi, betakror, iste‘dodli shoir Aleksandr Sergeyevich Pushkin tomonidan 1827-yilda yaratilgan “Gul va bulbul” she‘ri ilk bor Cho‘lpon tomonidan tarjima qilindi. Fikrimcha, rus she‘riyatining otasi bo‘lmish Pushkin she‘rining tarjimasiga qo‘l urgan adibimiz ayni shu darajaga ko‘tarilgan edi. Shuni ham ta‘kidlab o‘tish joizki, biron bir she‘riy asarning tarjimasiga qo‘l urish haddan tahqari murakkab masala hisoblanadi, sababi mukammal she‘r hech qachon biron bir ma‘noni anglatuvchi quruq so‘zlar jamlanmasidan iborat bo‘lmaydi. She‘rda ayni bir ruhiy holat, his-tuyg‘u hamda kayfiyat aks ettiriladi. Bundan tashqari, she‘rning faqatgina

mazmuninigina emas, balki uni aynan san'at darajasiga ko'targan iqlimini, badiiyatini ham ifodalamoq zarur. Aks holda, tarjima allanechuk sun'iy, o'lik holga kelishi bilan bir qatorda she'rning asl nafosati, ranglari va qudratini ham yo'qotishi hech gap emas. Yuqorida tilga olingan Cho'lponning she'riy tarjimasi haqida aniqroq tasavvurga ega bo'lish maqsadida asl she'rning matniga hamda uning tarjimasiga nazar solsak:

Asl she'rning matni:

*В безмолвии садов, весной, во мгле ночей,
Поет над розою восточный соловей.
Но роза милая не чувствует, не внемлет,
И под влюбленный гимн колеблется и дремлет.
Не так ли ты поешь для хладной красоты?
Опомнись, о поэт, к чему стремишься ты?
Она не слушает, не чувствует поэта:
Глядишь, она цветет, зываешь — нет ответа.*

Cho'lponning tarjimasi:

*Bahor chog'ida xoli bog'da bir zulmatli tun erdi,
G'arib bulbul fig'on aylab, "gulim, rahm aylagil" derdi.
Biroq ul gul quloq solmas edi faryodu afg'ona,
Faqat orom olardi noladin to'lg'ona-to'lg'ona.
Seni hech sevmagan bir gul uchun, ey shoirim, sen ham
Yonarsan, o'rtanarsan, dod etarsan, tinglamas bir dam,
Qo'y endi, behuda dod etma ohing unga yetmaydi,
Qaraysan-yashnagan bir gul, faqat ovoza bermaydi.*

Tarjima haqida fikr yuritar ekanmiz, birinchi navbatda Cho'lpon tarjimaga erkinlik va aniqlik nuqtai nazaridan yondashganiga guvoh bo'lamiz. Shoirning ayni mana shu erkin tarjima uslubi she'rni yanada mukammal bo'lishiga hamda mazmun-mohiyatini to'laqonlik ochib berishiga xizmat qildi. Ya'ni, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek adib so'zma-so'z tarjimadan ko'ra, qiyoslashdan, o'xshatishlardan foydalanib, she'rni bimalol o'zgartiravergan. Adibning she'riy tarjimonlik mahoratini tahlil qilar ekanmiz, shunga amin bo'lishimiz mumkinki, Cho'lponning talqinida muhit zulmatli, bulbul esa

qo‘shiq kuylamaydi balki, “gulim, rahm aylagil” deb fig‘on chekadigan g‘arib bir qushga aylangan edi. Pushkin she‘ridagi muhabbat Cho‘lponda fojiali tus oladi. Gul ham bulbulning mashuqasiga aylangach, gulga berilgan “милая” so‘zining ta‘rifi tushib qoladi hamda “влюбленный гимн” ham “faryod-u afg‘on” ga aylanadi. Hatto “дремлет” ya‘ni, uxlamogda so‘zi “noladin orom olardi” deb tarjima qilinib, muallifning obrazli talqinini ko‘rsatadi. “Колеблется” so‘zining “to‘lg‘ona-to‘lg‘ona” deb aniq va chiroyli tarjima qilingani taqsinga sazovordir. Ko‘rinib turibdiki, Cho‘lpon tarjimada she‘rning asosiy g‘oyasining mag‘zini belgilab olib, aynan shu g‘oyani to‘laqonlik ochib berish maqsadida ibora hamda ta‘riflardan foydalangan. Umuman olganda, “Gul va bulbul” tarjimada she‘riyat san‘atining yuksak darajasiga ko‘tarilganiga amin bo‘lishimiz mumkin. Biz har qancha she‘rni o‘qib, zavqlanar ekanmiz, Pushkinning shoirona iqtidoriga ham, Cho‘lponning tarjimonlik san‘atiga ham tasannolar deymiz.

Xulosa sifatida shuni ta‘kidlash joizki, biz Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning tarjimonlik san‘ati haqida qancha ko‘p mulohaza yuritsak ham shuncha kam. Cho‘lponning tarjimonlik mahorati uning boy lug‘at zaxirasi, obrazli va uslubiy jihatdan betakror til mahorati bilan belgilanadi. U faqat matn mazmunini aniq yetkazibgina qolmay, balki asl asarga xos emotsional va badiiy ta‘sirni saqlab qolishga harakat qilgan. Uning tarjimalarida adabiy til normalariga rioya qilingan holda, o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanish kuzatiladi. Natijada, Cho‘lpon tarjimalari oddiygina matn tarjimasi emas, balki mustaqil badiiy asar sifatida qabul qilinishi zarur bo‘lgan chinakam san‘at namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sharafiddinov O. Cho‘lpon-tarjimon. Toshkent, “Guliston” jurnali, 1990 yil, 2-son.
2. Mirzayeva Z. Cho‘lpon she‘rlari tarjimasining qiyosiy tahlili. Sharq yulduzi, 2010 yil, 1-son.
3. Sharipov R. Cho‘lpon tarjimalari haqida ayrim mulohazalar. Toshkent, 2024 yil.
4. Jadidlar. Abdulhamid Cho‘lpon. D.Quronov. Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi, 2022 yil.

ZULFIYA O‘ZBEK ADABIYOTINING BETAKROR SHOIRASI

Muxlisa Orifova,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi

indonez-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada o‘zbek adabiyotiga hissa qo‘shgan sabrli o‘z she’rlarida vatanparvarlikni tuyg‘usini targ‘ib qiladigan, haqiqiy o‘zbek ayoli timsolida yaraladigan Zulfiya Isroilova ya’ni Zulfixonim taxallusi bilan tanilgan ayolning hayoti , ijodi va tarjimonlik mahorati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek ayoli, o‘zbek adabiyoti, milliy ruh, vatanparvarlik, insoniylik, milliy g‘urur, ijodkor, adabiyotchunoslik, tarjimonlik mahorati, ”Javaharlal Neru“, Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini

Аннотация: В данной статье рассказывается о жизни, творчестве и переводческом мастерстве Зулфии Исраиловой, известной под литературным псевдонимом Зулфихонум — женщины, ставшей олицетворением настоящей узбекской женщины, терпеливой, преданной, прославляющей в своих стихах чувство патриотизма и внёсшей весомый вклад в узбекскую литературу.

Ключевые слова: Узбекская женщина, узбекская литература, национальный дух, патриотизм, человечность, национальная гордость, творец, литературоведение, мастерство переводчика, “Джахаварлал Неру”, Государственная премия имени Зулфии.

Abstract: This article discusses the life, work, and translation skills of Zulfiya Isroilova, known by her pen name Zulfiyakhonim, who contributed significantly to Uzbek literature by promoting the feeling of patriotism in her poetry, representing the image of a true Uzbek woman.

Keywords: Uzbek woman, Uzbek literature, national spirit, patriotism, humanity, national pride, creator, literary studies, translation mastery, “Jawaharlal Nehru”, State Award named after Zulfiya.

Zulfiya - bu ismni eshitganimizda avvalo o‘zbek ayoli, sabrli toqatli o‘zbek adabiyotiga hissa qo‘shgan ijodkor ayol timsoli ko‘z oldimizga keladi. Yashab o‘tgan davrida, o‘z xalqning dardlarini, ayol taqdiri va milliy ruhni she’rlarda aks ettirgan shoiradir. Zulfiya 1915-yil Toshkentda tavallud topgan. Yosh shoira yoshligidanoq she’riyatga qiziqqan va yozgan ilk she’ri 1931-yilda “Ishchi” gazetasida chiqqan. Keyinchalik 1932-yilda “Hayot varaqalari” she’rlar to‘plami nashr etilgan. Shundan keyin uning “Temirov” (1934), “She’rlar”, “Qizlar qo‘shig‘i” (1939) she’riy kitoblari ham nashr etilgan. Bu iste’dodi bilan shoira adabiyotda e’tibor qozongan va xalqning ko‘nglidan ham chuqur joy egallagan. Zulfiya ijodining porlashi “Uni Farhod der edilar” (1943), “Hijron kunlarida” (1944) va “Xulka” (1947) to‘plamlari bilan bog‘liq. Zulfiyaning she’rlarida vatanparvarlik, milliy g‘urur, tinchlik, insonparvarlik g‘oyalari ilgari surgan. Yana Zulfiya o‘zbek ayollarining taqdiri, onalarning bardoshligini va sabrini, bundan tashqari, sadoqat – sevgi haqida kuchli tuyg‘ular ega she’rlar ham yozgan. Shuning uchun hamki bunday qobiliyati bilan adabiyotshunoslikda alohida mavqega ega bo‘lganligi. O‘z iste’dodini ko‘rsata olgan shoiraga yosh shoiralar unga ergashgan. Shoira faqatgina o‘z yurtida mashhur bo‘libgina qolmay, xalqaro boshqa davlatlarda ham insonlarni tinchlikka, sabrga va insonparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qila olgan. Hammamizga ma’lumki, o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lgan Hamid Olimjoning turmush o‘rtog‘i bo‘lgan. Ularning muhabbati o‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan juftlikdir. Zulfiyaning ijodiy porlashi aynan Hamid Olimjonga turmushga chiqqanidan boshlangan. Ular birga sherlar yozishgan. Hattoki Zulfiya unga atab shunday she’r bitgan:

Bahor keldi seni so‘roqlab...
Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...

Qancha sevar eding, bag‘rim, bahorni,
O‘rik gullarining eding maftuni.
Har uyg‘ongan kurtak hayot bergan kabi
Ko‘zlaringga surtib o‘parding uni.
Mana qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yoqasidan tutib so‘radi seni,
Ul ham yosh to‘kdi-yu, chekindi nari.
Seni izlar ekan, bo‘lib shabboda,
Sen yurgan bog‘larni qidirib chiqdi.
Yozib ko‘rsatay deb husn-ko‘rkini,
Yashil yaproqlarni qidirib chiqdi.
Topmay, sabri tugab bo‘ron bo‘ldi-yu,
Jarliklarga olib ketdi boshini.
Farhod tog‘laridan daraging izlab,
Soylarga qulatdi tog‘ning toshini.
Qirlarga ilk chiqqan qo‘ychivonlardan
Qayda shoir, deya ayladi so‘roq.
Barida sukunat, mayuslik ko‘rib,
Horib-charchab keldi, toqatlari toq...
So‘ngra jilo bo‘lib kirdi yotog‘imga,
Hulkar va Omonning o‘pdi yuzidan.
Singib yosh kuydirgan zafar yonog‘imga
Sekin xabar berdi menga o‘zidan.
Lekin yotog‘imda seni topolmay,
Bir nuqtada qoldi uzoq tikilib.
Yana el bo‘ldi-yu, kezib sarsari,
Mendan so‘ray ketdi qalbimni tilib:
«Qani men kelganda kulib qarshilab,
Qo‘shig‘i mavjlanib bir daryo oqqan?
«Baxtim bormi deya, yakkash so‘roqlab»
Meni she‘rga o‘rab suqlanib boqqan?
O‘rik gullariga to‘nmaydi nega,
Elda hilpiratib jingala sochin?
Nega men keltirgan sho‘x nashidaga

Peshvoz chiqmaydi u yozib qulochin?
Qanday ishqqa to‘lib boqardi tongga,
Kamol toptirardi keng xayolimni.
Uning rangdor, jozib qo‘shig‘ida
Mudom ko‘rar edim o‘z jamolimni.
Qani o‘sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko‘zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko‘klamda sen parishonhol?»
Qanday javob aytay, loldir tillarim.
Baridan tutdim-u, keldim qoshingga.
U ham g‘aming bilan kezdi aftoda,
Boqib turolmayin qabring toshiga.
Alamda tutoqib daraxtga ko‘chdi,
Kurtakni uyg‘otib so‘yladi g‘amnok.
Sening yoding bilan elib beqaror,
Gullar g‘unchasini etdi chok-chok.
Gulu rayhonlarning taraldi atri,
Samoni qopladi mayin bir qo‘shiq.
Bu qo‘shiq naqadar oshno, yaqin,
Naqadar hayotbaxsh, otashga to‘liq.
Bahorga burkangan sen sevgan elda,
Ovozing yangradi jo‘shqin, zabardast.
O‘lmagan ekansan, jonim, sen hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.
Hijroning qalbimda, sozing qo‘limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam,
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

Ushbu she‘r Hamid Olimjonning xotirasiga bag‘ishlangan. Adabiyot ixlosmandlarining sevgisi uzoqqa cho‘zilmagan, 1944-yilda Zulfiyaning turmush o‘rtog‘i shoir avtohalokatga uchrab bu dunyoni tark etgan. Bu Zulfiyaga o‘g‘ir zarba bo‘ldi. Yosh qolgan Zulfiya hayotining oxirigacha yorining xotirasiga ko‘plab she‘rlar yozgan. Hamid Olimjonning she‘rlarini

nashr qildirgan, u haqida maqolalar yozgan. Ba'zi bir she'rlarida ham turmush o'rtog'iga bo'lgan muhabbati qanchalik kuchliligini va sog'inchi aks etib turibdi.

Zulfiyaning tarjimonlik mahoratida ham sinab ko'rgan. Ko'plab boshqa adabiyotlardan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Misol uchun, A.S.Pushkin, M.Y. Lermontov, N.A. Nekrasov, M. Voqif, L. Ukrainka kabi shaxslarning asalarini tarjima qilgan. A.S Pushkinning tarjima qilgan she'rlaridan misolda ko'rib chiqamiz:

Я думал сердце позабыло
Я думал, сердце позабыло
Способность легкую страдать,
Я говорил: тому, что было,
Уж не бывать! уж не бывать!
Прошли восторги, и печали,
И легковые мечты...
Но вот опять затрепетали
Пред мощной властью красоты.

O'YLADIMKI

O'yladimki, yurak unutdi
Muhabbatning ezgu azobin,
Dedim o'tgan barisi o'tdi,
O'tdi. Qaytib kelmaydi tag'in.
O'tib ketdi zavqda, qayg'uda
Va havoyi yengil umidlar...
Ammo o'tkir husn oldida
Tushdi yana larzaga ular.

Tarjimaga e'tibor bersak Zulfiyaning tarjimonlik mahorati ham yo'q emasligini bilish mumkin. Rus tilidagi she'r o'zbek tiliga shunday tarjima qilinganki, uning his hayajonini har bir so'zidan shoirning nimalarni his qilganini o'zbeklarga tushuntira oladigan tarjima bo'lgan. Har qanday shoir ham boshqa tillardan o'zbek tiliga bunday mukammallik bilan qila olmaydi.

Shoira ko'plab mukofotlarga ega bo'lgan. Zulfiya xalqaro „Javaharlal Neru“ (1968), „Nilufar“ (1971) mukofotlari hamda Hamza nomidagi

O'zbekiston davlat mukofoti (1970). Bu shoironing iste'dodi yurtimizdagi yosh shoiralarga namuna bo'la olgan va unga erishgan yoshlar uchun Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etilgan

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sultonova M., Ijod sahifalari, Toshkent, 1975; Zulfiya [bibliografiya].
2. Irohimov M., Quyoshli she'riyat ijodkori, Toshkent, 1986.
3. Qayumov L. Shoiri Zulfiya. Toshkent, O'zadabiynashr, 1965.

O'ZBEKISTONDA MEDIA TA'LIM: MEDIA VOSITALAR VA AXBOROT XAVFSIZLIGINING HUQUQIY ASPEKTI

Lazzat O'tkirova,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Xalqaro jurnalistika yo'nalishi

indonez-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy hayotimizni ommaviy kommunikatsiya vositalarisiz tasavvur etib bo'lmazligi, media tushunchasining mazmuni, axborotni yaratish, nusxalashtirish, tarqatish vositasi va ommaviy auditoriya o'rtasida axborot almashinish hamda ijtimoiy tarmoqda uzatilayotgan media mahsulotning axborot iste'molchisiga ta'siri atroflicha yoritib berilgan. Hamda, axborot xavfsizligining huquqiy aspekti masalasi yoritilgan hisoblanadi.

Kalit so'zlar: mediasavodxonlik, media, axborot, ommaviy axborot vositalari, gazetalar, radio, televideniye, auditoriya, media – kommunikatsiya, internet, huquqiy aspect, axborot xavfsizligi.

Аннотация: В данной статье освещается невозможность представить современную жизнь без средств массовой коммуникации, раскрывается содержание понятия «медиа», а также рассматриваются процессы создания, копирования и распространения информации. Особое

внимание уделяется информационному обмену между средствами массовой информации и широкой аудиторией, а также влиянию медиа-продукта, распространяемого в социальных сетях, на потребителя информации. Кроме того, затрагивается вопрос правового аспекта информационной безопасности.

Ключевые слова: медиаграмотность, медиа, информация, средства массовой информации, газеты, радио, телевидение, аудитория, медиа-коммуникация, интернет, правовой аспект, информационная безопасность.

Abstract: This article covers the inability to imagine modern life without means of mass communication, explains the content of the concept of “media”, and the processes of creating, copying and disseminating information are considered. Particular attention is paid to the information exchange between the media and the wide audience, as well as the influence of a media product distributed on social networks, on the consumer of information. In addition, the legal of the legal aspect of information security is analyzed.

Keywords: Media literacy, media, information, media, newspapers, radio, television, audience, media communication, Internet, legal aspect, information security.

Ommaviy kommunikatsiya hozirgi zamon media jarayonlarining markazidan o‘rin olgan yangicha borliqdir. Unda turli xil sohalar doimiy tarzda o‘zaro fikr almashinadi. Bunday sharoitda ommaviy kommunikatsiya turli til vositalarining o‘zaro ta’sirlashishiga yordam beruvchi o‘ziga xos auditoriyaga aylandi. Ommaviy kommunikatsiya va ijtimoiy tarmoqlar yaratilishidan singuvchan va singdiruvchan bo‘lganligi tufayli turli xil mavzular va syujetlarni baholash va o‘z shaxsiy fikrini boshqalar bilan baham ko‘rish imkonini berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “...xalq bilan muloqot, odamlarning orzu-intilishlari, dardu tashvishlari bilan yashash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bugungi kunda har bir ommaviy axborot vositasi chinakam muloqot maydonchasiga, erkin fikr minbariga aylangan taqdirdagina biz o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erisha olamiz”, - deya ta’kidlagan.

An'anaviy OAVlari – matbuot, radio, televideniya bilan rivojlanayotgan yagona axborot maydoni, butunjahon o'rgimchak to'ri hisoblanayotgan – Internet (mediamakon)ning yuzaga kelishi o'ziga xos mediaoqimlar majmuidan iborat virtual makonning yaratilishiga olib keldi. Bunda biror so'zning shakllanishi va tarqalishi, uning qo'llanish shakllari, bevosita tildagi o'zgarishlarda o'z aksini topmay qolmadi. Nutqdan foydalanish ko'proq ommaviy kommunikatsiya sohasiga to'g'ri kelgani uchun unda foydalaniladigan matnlar, ya'ni mediamatnlar tilimizning hozirgi paytdagi mavjudligini ta'minlovchi vositalardan biriga aylanmoqda. OAVlarining paydo bo'lishi va keng tarqalishi inson taqdiriga, hatti – harakatiga, ongiga, dunyoqarashiga doimiy tarzda ta'sir etib turadi. F.Mo'minov "Matbuot – insonga matn orqali (mantiqiy) ta'sir qilsa, radio ham matn, ham ovoz bilan, televideniye esa, matn, ovoz bilan birga, tasvir ham qo'shilgan holda ta'sir qiladi. Shuning uchun televideniye auditoriyaga ta'sir etish borasida qisqa vaqt

20 – 30 yil Ichida boshqa vositalardan o'zib ketdi va yetakchi vosita bo'lib qoldi".

Endi esa, ijtimoiy tarmoq yetakchi va asosiy axborot manbai hisoblanmoqda. Zamonaviy mass – media tarqatayotgan ijtimoiy mediamahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj boshqalariga qaraganda kuchliroq. G.S.Melnik mediamatnlar nazariyasiga bag'ishlangan ishlarida janr spetsifikatsiyasiga urg'u beradi: "Bugungi kunda mediamatn deganda media ishlab chiqarishning aniq natijasi, mediamahsulotlar nazarda tutiladi, bu axborotdan iborat va medianing istalgan turi va janrida (gazetadagi maqola, teleko'rsatuv, videoklip, reklama xabari, film va boshqa) bayon etilgan xabar bo'lib, ommaviy auditoriyaga yo'naltiriladi".

Axborotning tovar sifatida qaralishi iste'molchilarning qarashlari, qadriyatlari va ideallarini shakllantirish masalalari foydalanuvchi ongida axborot olamini tartibga solish yo'llarini izlashni, axborot bilan muomala qilishning yangi usul va ko'nikmalari tizimini ishlab chiqish va shakllantirishni taqazo etmoqda. Ommaviy kommunikatsiya jarayonida har bir insonning ishtiroki, qarashlari va qadriyatlari tufayli turli xil shakllangan auditoriyalarning ichki dunyosi boyib borishi yoki buning aksi kuzatilishi mumkin. Chindan ham bunday kommunikatsiya orqali o'zlashtirilgan

madaniyat kishilarning ichki his – tuyg‘ulari, fikr va g‘oyalarning rivojlanishiga olib keladigan katta mafkuraviy kuchga aylanayotgani sir emas.

Albatta, axborotga ega bo‘lish bugungi kun talabi va ehtiyojlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot makoni ikki xil axborot bilan to‘ldirilmoqda: birinchisi – kuchli axborot texnologiyalariga ega mamlakatlar tomonidan ishlab chiqilgan hamda ularning manfaatlariga xizmat qiladigan axborot bo‘lsa, ikkinchisi – har bir davlat o‘zi haqida ishlab chiqqan axborotni tarqatishi ham borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘tgan davr mobaynida O‘zbekistondagi jamiki sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarini ommaviy ravishda joriy etish hamda ularda oqilona foydalanish, fuqarolarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini to‘laqonli qondirish bundan tashqari jahon axborot resurslaridan to‘g‘ridan – to‘g‘ri bahramand bo‘lish imkoniyatlari davriga aylandi. Shu kabi omillarning ko‘payib borishi va turli geosiyosiy manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilayotgan axborot hujumlarining ta’sirini kamaytirish va milliy axborot makonini xavfsizligini ta’minlash muhim hisoblanadi. Shu maqsadda 2005 – yilning 5 – sentabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy axborot – kommunikatsiya tizimlarining kompyuter xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi 167 – sonli qaroriga muvofiq Kompyuter mojarolarini (kiberxavfni) bartaraf etish xizmati – UZ-CERT tashkil etilgan. Mazkur xizmat vakolatiga:

- Ma’murlik huquqini olish uchun tarmoqqa qarshi barcha hujumlarni o‘rganish;
- Milliy axborot resurslarini va ayrim xostlarga qarshi DoS (Denial of Service) va DDoS kabi xujumlarni tahlil qilish;
- Kompyuter viruslarini atayin yuborish holatlarini ko‘rib chiqish;
- Axborot tarmoqlari xavfsizlik tizimlarini buzish, shu jumladan, zararli dasturlarni o‘rnatish holatlarini ko‘rib chiqish;
- Milliy axborot tarmoqlari va xostlarini skanerlash;
- Parolni va boshqa autentifikatsion ma’lumotlarni saralash va tutib olish;
- Axborot resurslaridan beruxsat foydalanish holatlarini o‘rganish vazifalari kiritildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi miqyosida o‘smirlar va bolalarga oid mediamadaniyat hamda mediata’limning muammolari davlar

siyosati darajasiga ko‘tarilayotgan muhim muammodir. Xususan, 2017 – yil 8 – sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunida ommaviy axborot vositalari o‘z vakolatlari doirasida amalga oshirishi lozim bo‘lgan vazifalari belgilab berildi. Qonunda qayd etilishicha, bolalarning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotni tasniflash hamda axborot mahsulotlarining yoshga oid tasniflash mezonlari, uning aylanishiga qo‘yiladigan talablar, ekspertizadan o‘tkazish tartibi hamda huquqiy normalari belgilab berildi. Jumladan, ommaviy axborot vositalari e‘lon qilayotgan axborotning haqqoniyligini ta‘minlash borasidagi javobgarlik hamda OAV orqali tuhmat, haqorat qilish va raqobatchini obro‘sizlantirganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilish haqida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 139-, 140-, 158-, 192-moddalarida belgilab berilgan.

Davlat, jamiyat va shaxsni zarur va sifatli axborotlar bilan ta‘minlash, zamonaviy axborot maydonidan iste‘molchi sifatida har bir shaxs o‘zi uchun foydali bo‘lgan axborotga ega bo‘lishida ma‘lim bir media – ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Mediata‘lim ushbu ko‘nikmalarni hosil qilishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham mazkur ta‘lim yo‘nalishini oliy ta‘lim muassasalarida, maktab va bog‘chalarda shakllantirish, kelgusida rivojlantirish hamda aholining barcha qatlamlarini qamrab olish darkor. Zero, mediata‘lim va mediasavodxonlik – mediani o‘rganish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ixtisoslashgan Jurnalistika. IX – jild. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2019.
2. Medialingvistika va tahrir. III – jild. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2019.
3. Mirziyoyev Sh. O‘zbekiston matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlarini kasb bayrami munosabati bilan yo‘llagan tabrigidan.
4. Mo‘minov F. Jurnalistika ijtimoiy institute sifatida. Toshkent, 1998. 76-b.
5. Melnik.G.S Медиатекст как объект лингвистических исследований.

MA'RIFAT VA ADABIYOT CHORRAHASIDA HAMZA HAKIMZODA NIYOZIYNING O'RNI

Saodat Rahmatullayeva,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Xalqaro jurnalistika yo'nalishi

indonez-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jaholatga qarshi ma'rifat yetakchisi bo'lmish – Hamza Hakimzoda Niyoziyning hayot yo'llari, mashaqqatlari, adabiy meroslari, jadidchilik harakatlari va eng asosiysi adibning bitmas-tuganmas serqirra ijodi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ilm va ma'rifat, ta'lim-tarbiya, muallim, adabiyot va san'at, millatning birlashishi, ilg'or g'oyalar, o'tkir qalam sohibi, insonparvar ijodkor.

Аннотация: В данной статье рассказывается о жизненном пути, трудностях, литературном наследии, деятельности в джадидистском движении и, самое главное, о неисчерпаемом и многогранном творчестве Хамзы Хакимзаде Ниязи — просветителя, ставшего вождём в борьбе против невежества.

Ключевые слова: Наука и просвещение, образование, учитель, литература и искусство, национальное объединение, прогрессивные идеи, остроумный писатель, гуманист-творец.

Abstract: This article discusses the life path, hardships, literary legacy, reforms, and most importantly, the inexhaustible and diverse creativity of Hamza Hakimzoda Niyazi, a leader of enlightenment against ignorance.

Keywords: Science and enlightenment, education, teacher, literature and art, national unification, progressive ideas, sharp-witted person, humanitarian creator.

Bizda ko'pchilik hayotga yengil-yelpi qaraydi, bizning millatda birlik yo'qolgan, bizning ta'lim tizimimiz achinarli ahvolda, bizda hech qachon olamshumul kashfiyotlar qilinmaydi, bizni olimlardan hali hech kim nobel mukofotini olmagan!

Xalqimizga qo'yilgan, yuqorida sanab o'tilgan tashxislarni hammasini bo'lmasada, ayrimlarini kunda-kunora eshitasiz, o'ylaysiz va xatto g'amga botasiz. Sizga ayni shu tashxislarni bizdan bir asr ilgari yashab o'tgan inson, aniq aytib ketgan desam ishongan bo'larmidingiz? Bu siz uchun biroz taajubli tuyulsa-da, adabiyotimiz tarixida shunday shaxs – Hamza Hakimzoda Niyoziy bo'lgan. Keling, avval bu shaxsning hayot yo'llari, serqirra ijodi haqida fikr yuritsak, so'ng nima uchun Hamza Hakimzoda Niyoziy xalqimizga atalgan bunday qayg'uli ta'rif haqida bashorat qilganligini maaqola so'ngida ochiqalaymiz.

O'zbek xalqining to'ng'ich pedagogi, XX asr o'zbek adabiyotiga tamal toshini qo'ygan adib, XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek ma'naviyatining eng yirik namoyondalaridan biri bo'lgan ma'rifatparvar, qalami o'tkir shoir, yozuvchi, tarjimon, dramaturg, kompozitor, o'quvchilar qalbidan iliq joy olgan – Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889-yil 16-iyulda Qo'qon shahrida tabib oilasida dunyoga keladi. Hamza o'zining o'qishga bo'lgan havasi tufayli 12 yoshidayoq to'la xat savodli bo'lib yetishadi. 1906-yilgda madrasaga kirib o'qiy boshlaydi biroq bu iqtidorli, tinib-tinchimas shoirni madrasa ta'limi qanoatlantirmaydi. Shunga ko'ra u mustaqil tarzda Lutfiy, Muqimiy, Alisher Navoiy, Gulxaniy, Furqat asarlarini o'qib o'rganadi. Hamza turmushda ko'p qiyinchiliklarga duch keladi, ilm-fanga bo'lgan ishtiyoqi yuqori bo'lsa-da, u ko'ngildagidek o'qiy olmaydi. 1909-1910-yillarda Namangan, Toshkent shaharlarida yolg'iz, og'ir ahvolda yashaydi. Shunga qaramay “Ko'kaldosh” madrasasida o'qidi. Biroq bu yerning ta'limi ham uni qoniqtirmaydi. Taroziining bir pallasida – ta'lim tizimining sifatsizligi, ikkinchi pallasida iqtisodiy qiyinchiliklar sababli Hamza o'qishdan ketishga majbur bo'ladi. U o'sha og'ir ahvolni tasvirlab yozgan xotira xatida shunday deydi:

Hamisha yaxshi yurdim, bovujud o'tim yomon bo'ldi,
Shakardek so'zlarim ota-onamga bir tikon bo'ldi ,
Kechib farzandidan, dushmanlarga mehribon bo'ldi,
Boshimda ota-onam, men yurarman darbadarlikda,
Yuray bir yo'lda endi kim qator bepadarlikda.

Hamza yozuvchilik ishiga 1905-yildan, 16 yoshidan boshlab kirishgan. Uning shaxsiy arxivida saqlangan materiallar orasida 1905-1914 yillar orasida

yoʻzilgan, oʻquvchilar yuragining tub-tubigachab yetib boradigan 214 sheʼrining roʻyxati bor edi. Gap sonda emas sifatda boʻganidek, Hamzaning barcha sheʼrlarida oʻz xalqini harakatga undaydigan ilgʻor gʻoyalar yashirin edi. Hamza 1911-yili Qoʻqonning “Hojibek” guzarida maktab ochib, yetim va kambagʻal bolalarni oʻqitadi, adib nafaqat maʼrifatparvar, balki insonparvar muallim ham edi. U oʻquvchilar uchun “Yengil adabiyot”, “Oʻqish kitobi” singari oʻquv qoʻllanmalarini yaratadi. Hamza oʻzi tahsil berayotgan maktabda oʻqish - oʻqitish ishlariga baʼzi bir oʻzgartirishlar va yangicha gʻoyalar kiritib, oʻqitish tizimini kuchaytiradi, yaʼni quruq yod olish uslubini yoʻqotishga harakat qildi, oʻquvchilarni urish va soʻkishni taʼqiqladi, sinfdan tashqari tarbiyaviy mashgʻulotlarga koʻp eʼtibor berdi, ona darsiga alohida ahamiyat bilan qarab, mashgʻulotlarga koʻproq vaqt ajratdi. Hamza Hakimzoda Niyoziy 20 yillik oʻqituvchilik faoliyati davomida yoshlar tarbiyasi masalasida amaliy va nazariy jihatdan muhim gʻoyalarni olgʻa surdi. Biroq jaholat hukmronlik qilayotgan ayni bir davrda, shoir oʻzi istagan islohotlarni amalga oshirolmadi, negaki bu yoʻlda u juda koʻp qiyinchiliklarga duch keldi.

Hamzaning ijodiyoti, oʻqituvchilik faoliyati chor hukumati amaldorlarini tashvishga soldi. Ular Hamza maktabini “Xavfli, bolalar ongini zaharlovchi, din va maʼrifatdan ozdiruvchi maktab” deya turli tuhmatlar bilan qoralab, maktabni yopishdi, oʻzini esa taʼqib qilishdi. Vaholanki, shoir ochgan maktab bularning aksi edi. Hamza 1913-yil fevralda chet ellarga ketadi, jumladan: Afgʻoniston, Hindiston, Makka, Madina, Shom(Suriya), Bayrut, Istambul, Odessa shaharlarida boʻlib, 1914-yilning boshlarida Qoʻqonga qaytadi. “Yiqilgan kurashga toʻymas” deganlaridek Hamza Hakimzoda Niyoziy Margʻilonda maktab ochishga muvassar boʻladi. Biroq sakkizinchi oyga bormay Andreyev ismidagi Skobel maorif rahbari tomonidan majburiy yopiladi. Undan yana Xoʻjandga ketib, yoʻqsil bolalar uchun pulsiz oʻqish maktabi ochadi biroq bu maktab ham koʻp oʻtmay uyezd nachayligi Medinskiy tomonidan tintuv boʻlib yopiladi. Adibning yuziga yopilayotgan bu eshiklar uni bir zum ham harakatdan toʻxtatmaydi, aksincha unga yanada turtki boʻladi. U ochgan maktablar birin-ketin yopilayotgani bois Hamza oʻquvchilarni Toshkent va boshqa shaharlarda bosmadan chiqqan darsliklar bilan taʼminlash uchun “Gʻayrat” kitobxonasini tashkil etadi. Hamza Hakimzoda Niyoziy maktab, oʻqish, kitoblar, ilmning qanchalik millatga suv va havodek zarur ekanini oʻzining “Maktab” sheʼrida aytib oʻtadi:

Maktab – dinning chirog‘i,
Millatning zo‘r yarog‘i,
Maktabsiz har millatni,
Qarar bir cho‘b tarog‘i.
Maktab – millat atosi,
Ham suyukli anosi,
Ato, anosiz qolsa,
Qandoq yashar bolosi.
Maktab – bizni joyimiz,
Yetkuzdi Xudoyimiz,
Tez-tez tinmay o‘qusak,
Bir kun jahon boyimiz.

Hamza “Nihoniy” (yashirin, maxfiy ma’nolarni bildiradi) taxallusida ijod qilib, qalam tebratadi va o‘zining she’r, g‘azal, masnaviy, muxammas, musaddaslari bilan jaholatga qarshi ma’rifat bo‘lib o‘z fikrlari, qayg‘urishlari, xalqini savodli qilish istagi, qalbidagi hasratlarini xalqqa she’rlari orqali yetkazadi. Nafaqat she’rlari bilan balki shoir ijodida muhim o‘rinni egallagan she’riy guldastalari bo‘lmish “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi” to‘plami orqali ham xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini uyg‘otadi va ularni ilm-ma’rifatga da’vat etadi. Bu 7 she’riy to‘plami quyidagilar edi: “Atirgul”, “Oq gul”, “Qizil gul”, “Pushti gul”, “Sariq gul”, “Yashil gul”, “Safsar gul”. Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodida bular bilan cheklanib qolmay, 1915-1916-yillarda “Feruzaxonim”, “Ilm hidoyati”, “Loshman fojiasi” kabi qator drama va komediyalarni yozib, ba’zilarini hatto o‘zi tuzgan “Havaskor truppa” sida sahnalashtiradi. Bundan tashqari “Zaharli hayot” (1916), “Maysaraning ishi” (1926) kabi dramatik asarlari ham yozadi. Hamza she’riy to‘plamlar, dramalar, asarlar bilan bir qatorda u o‘z davrida ko‘plab pyesalarni ham yozadi. Jumladan: “Boy ila xizmatchi”, “Ishchilar hayotidan”, “Qizil qon ichida yosh go‘daklar”, “Mahbus to‘raning holi” kabi pyesalarni ham yaratdi.

Ana endi yuqorida aytib o‘tilgan qo‘shirnoq ichidagi achchiq gaplarga

to'xtalsak, Hamza Hakimzoda Niyoziyning o'zi yashab o'tgan davrini va kelajakdagi millatning ahvolini o'z she'rlarida aytib, bashorat qilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunga misol tariqasida Hamzaning qalamiga mansub bo'lgan "Dardiga darmon istamas" she'ridan misralarni tahlil qilamiz:

Bizni Turkiston eli dardiga darmon istamas,
Zulmat ichra kechsa umri mohi tobon istamas,
Uxlama o'zbek eli asri taraqqiy vaqtida.
Ko'nglidur oshuftai lahv-u tarab, nafs-u havo,
Tilsa zillat xanjari bag'rini luqmon istamas,
Uxlama o'zbek eli asri taraqqiy vaqtida.
Qo'lida domi tama', ko'zidadur kayf-u xumor,
Soch oqorub qaddi ham bo'lsa pushaymon istamas,
Uxlama o'zbek eli asri taraqqiy vaqtida.
Ilmsizlikdan hama kelgon baloni anglayur,
Ittifoq-u g'ayrat aylab lek irfon istamas,
Uxlama o'zbek eli asri taraqqiy vaqtida.
O'zga millat uchsalar hikmat topub suyi samo,
Bizni ellar loaqal yer uzra davron istamas,

Bu, she'rdan parcha edi xalos, Hamzaning "Dardiga darmon istamas" she'ri 1916-yilda yozilganiga qaramay, undagi davr haqiqati, millat holati afsuski, bugungi kunimizga ham to'g'ri keladi. Negaki, o'sha davrda tanqid qilingan; millatimizga xos bo'lgan kamchiliklar, fojialar ming afsuski bugungi kunda siz bilan biz yashayotgan zamonda ham takrorlanib turadi. Niyoziy bu she'ri bilan XX asr boshqa davlatlarda ayni taraqqiy vaqti edi, ya'ni boshqa davlatlarda kashfiyotlar qilinayotgan, millat turmushi yaxshilanayotgan, xalqning turmush darajasini oshirishga qaratilgan unumli harakatlar amalga oshirilayotgan bir davrda, Turkistonda bundan asar ham yo'q ekanligi Hamza Hakimzoda Niyoziyning tashvishiga solardi, ya'ni o'sha davrdagi xalqning boshiga tushayotgan barcha balolar sababi "Ilmsizlik" dan ekani, biroq millat buni tan olmayotganligi, ularning bir maqsad yo'lida birlasha olmasligi Hamzaning shu she'rni yozishiga turtki bo'ladi. Eng achinarlisi shuki, boshqa davlatlar samoga, fazoga uchayotgan bir zamonda, Turkiston eli loqal yer uzra davron istamayotganligi, ya'ni samo u yerda tursin o'z yerida aylanishni

istamayotgan millatni qoralanadi. “Dardiga darmon istamas” she’ri orqali Hamza Hakimzoda Niyoziy: “Muammo boshqalarda emas, aynan o‘zimizda ekani, ilm yo‘lida birlashib harakat qilish joizligini, o‘z dardimizga faqat o‘zimiz darmon bo‘la olishimiz mumkunligini” ta’kidlaydi. Millatimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan shoir, qalami o‘tkir yozuvchi, o‘zbek dramaturgi Hamza Hakimzoda Niyoziy ming afsuslar bo‘lsinki, 1929-yil 18-martda Shohimardonda Hazrat Ali maqbarasi poyida o‘ldiriladi. Hamzaning jismi o‘ldirilgan bo‘lsada, uning xotiralari abad qalbimizda yashaydi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, Hamza Hakimzoda Niyoziyning hayoti, serqirra ijodi, ma’rifatchilik faoliyati, ilg‘or pedagogik va ijtimoiy-falsafiy fikrlari va eng asosiysi millat uchun qilgan sa’y-harakatlari haqida qancha ko‘p mulohaza qilsak ham shuncha oz tuyulaveradi, negaki Hamzani ta’riflashga-til, yozishga -qalam ojizlik qiladi. Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘z xalqi va vatanining farovonligi, ma’naviy rivoji yo‘lida charchamay, nihoyatda foydali islohotlarni amalga oshiradi, xatto tuhmat toshlari otlsa ham, uning o‘z xalqini savodli, ilimli va ma’rifatli xalq sifatida ko‘rish orzusi uni bir soniya ham harakatdan to‘xtatmadi. Zero, Hamza o‘zini xalqiga bag‘shida etadi va bugungi kundagi millat Hamza Hakimzoda Niyoziyga tashakkur aytishdan charchamaydi!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.A.Karimov. “Ijobiy ishlarimizni oxiriga yetkazaylik”. T: O‘zb, 1994-yil.
2. “Milliy Tiklanish” Demokratik Partiyasining Ijtimoiy-Siyosiy Gazetasi.
3. “Ma’naviyat yulduzlari” kitobidan.

ZAMONAVIY JURNALISTIKADA SUN'IY INTELLEKTNING O‘RNI: MASHHUR SHAXSLAR FIKRLARI VA KENGROQ TAHLIL

Shukurullo Tursunov,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy jurnalistikada sun'iy intellekt (SI) ning roli, afzalliklari, kamchiliklari va kelajak istiqbollari tahlil qilinadi. Maqolada SI vositalarining xabar tayyorlash, faktlarni tekshirish va axborot tarqatish jarayonlaridagi oʻzgarishlarga qoʻshayotgan hissasi bayon etilib, mashhur shaxslar – texnologiya va media sohasidagi yetakchi mutaxassislarning fikrlari orqali yanada kengroq kontekst beriladi.

Kalit soʻzlar: : Sun'iy intellekt, jurnalistika, axborot texnologiyalari, media, fakt tekshirish, mashhur shaxslar fikrlari.

Аннотация: В данной статье анализируется роль, преимущества, недостатки и перспективы искусственного интеллекта (ИИ) в современной журналистике. Освещается вклад ИИ в трансформацию процессов подготовки новостей, проверки фактов и распространения информации. Также предоставляется более широкий контекст через мнения известных личностей — ведущих специалистов в области технологий и медиа.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, журналистика, информационные технологии, медиа, проверка фактов, мнения известных личностей.

Abstract: This article analyzes the role, advantages, disadvantages, and future prospects of artificial intelligence (AI) in modern journalism. It discusses the contributions of AI tools in news production, fact-checking, and information dissemination processes, providing a broader context through the opinions of renowned figures—leading experts in technology and media.

Keywords: Artificial intelligence, journalism, information technology, media, fact-checking, opinions of famous personalities.

Zamonaviy jurnalistikada sun'iy intellektning ro'li. Soʻnggi yillarda jurnalistika sohasi texnologik rivojlanish natijasida sezilarli oʻzgarishlarga duch keldi. Axborot yigʻish, tahlil qilish va tarqatish jarayonlari tobora avtomatlashtirilmoqda, bu esa xabarlarini yetkazish tezligini oshirish bilan birga, jarayonlarning ancha osonlashishiga ham sabab boʻlmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt (SI) jurnalistika sohasida muhim vositalardan biriga aylanib,

axborot uzatish usullarini tubdan o'zgartirib yubormoqda. Ushbu maqolada SI ning jurnalistikaga qo'shayotgan hissassi va bu boradagi mutaxassislarning fikrlari tahlil qilinadi.

Sun'iy intellektning jurnalistikadagi asosiy vazifalari. Sun'iy intellekt hozirda jurnalistikada quyidagi muhim vazifalarni bajarishga yordam bermoqda:

1. Xabar tayyorlash. Ayrim nashrlar allaqachon SI algoritmlaridan foydalangan holda xabarlarni avtomatik tarzda yaratmoqda. Masalan, sport natijalari, moliyaviy hisobotlar yoki ob-havo yangiliklari kabi tezkor ma'lumotlarni ishlab chiqarishda SI juda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.
2. Faktlarni tekshirish (Fact-checking). Hozirgi kunda noto'g'ri axborot va feyk xabarlarining oldini olish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sun'iy intellekt asosidagi tizimlar esa faktlarni tezkorlik bilan tekshirib, ularning ishonchliligini tahlil qilishi mumkin.
3. Ma'lumotlarni tahlil qilish. Jurnalistika sohasida katta hajmdagi ma'lumotlarni saralash va ularni aniq, tushunarli shaklda taqdim etish katta ahamiyatga ega. SI bunday jarayonlarda muhim tendensiyalarni aniqlash va murakkab statistik tahlillarni bajarishga yordam beradi.
4. Shaxsiylashtirilgan kontent yaratish. Bugungi auditoriya individual yondashuvni talab qiladi. Sun'iy intellekt foydalanuvchilarning qiziqishlariga mos ravishda kontent tavsiya qilish orqali jurnalistikaning yanada interaktiv va foydalanuvchi uchun qulay bo'lishiga xizmat qilmoqda.

Sun'iy intellektning jurnalistikadagi afzallik va kamchiliklari. Texnologiyalar taraqqiy etishi bilan ularning foydali jihatlari bilan birga kamchiliklari ham yuzaga chiqadi.

1. Afzalliklari: tezkorlik – xabarlar yaratish va ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni ancha tezlashadi. Aniqlik – inson xatosini kamaytirish orqali faktlarni ishonchliroq tasdiqlash imkoniyati paydo bo'ladi. Moslashuvchanlik – sun'iy intellekt auditoriya ehtiyojlariga mos kontent yaratishga yordam beradi. Keng qamrov – SI katta hajmdagi ma'lumotlar ustida ishlash orqali jurnalistlarga yanada chuqurroq tahliliy imkoniyatlar taqdim etadi.
2. Kamchiliklari: ijodiy cheklovlar – sun'iy intellekt insonning badiiy va ijodiy yondashuvini to'liq o'rnini bosa olmaydi. Noto'g'ri ma'lumotlar xavfi – algoritmlar ba'zan noaniq yoki noto'g'ri ma'lumotlar tarqatishi mumkin. Etik

muammolar – sun'iy intellekt jurnalistik axloq qoidalariga mos kelish-kelmasligi bo'yicha munozaralar mavjud. Ish o'rinlariga ta'siri – avtomatlashtirish tufayli an'anaviy jurnalistikada ba'zi kasbiy o'zgarishlar yuzaga kelishi mumkin.

Kelajak istiqbollari. Sun'iy intellekt jurnalistika sohasida yangi ufqlar ochmoqda. Kelajakda inson va SI hamkorligi yanada rivojlanishi kutilmoqda:

Inson va SI hamkorligi – Jurnalistlarning ijodiy tajribasi va SI ning tezkor ishlash qobiliyati birlashib, yuqori sifatli kontent yaratishga xizmat qilishi mumkin. Yangi media formatlari – SI asosida interaktiv media platformalari, yangi turdagi jurnalistik mahsulotlar shakllanishi mumkin. Etik va huquqiy normativlar – Texnologiyaning rivojlanishi bilan axborotni tarqatish va tekshirish bo'yicha yangi qoidalar ishlab chiqilishi zarur.

Texnologiya va media sohasidagi yetakchi shaxslarning qarashlari. Elon Musk sun'iy intellektning inson mehnatini yengillashtirish imkoniyatlarini yuqori baholaydi, ammo uni ehtiyotkorlik bilan qo'llash lozimligini ta'kidlaydi. Bill Gates sun'iy intellekt ma'lumotlarni tahlil qilish va xabarlarni tezroq yetkazishda katta yordam berishini aytadi. Andrew Ng sun'iy intellekt inson bilan hamkorlikda eng yaxshi natijalarni beradi, deb hisoblaydi va uni jurnalistlar uchun samarali vosita sifatida ko'radi. Meredith Broussard SI ning imkoniyatlari bilan bir qatorda uning cheklovlariga ham e'tibor qaratadi. Broussard sun'iy intellektga haddan tashqari ishonish axborot sifati va etik me'yorlarga salbiy ta'sir qilishi mumkinligi haqida ogohlantiradi. Bu fikrlar sun'iy intellekt nafaqat jurnalistika sohasini o'zgartirayotganini, balki uning ijtimoiy ta'siri haqida jiddiy o'ylab ko'rish kerakligini ham ko'rsatadi.

Xulosa. Sun'iy intellekt jurnalistikada katta o'zgarishlar olib kelayotgan bo'lsa-da, uni to'g'ri va ehtiyotkorlik bilan qo'llash muhimdir. Bu texnologiya xabar tayyorlash, faktlarni tekshirish va axborotni tarqatish jarayonlarini sezilarli darajada avtomatlashtirgan holda jurnalistlarga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, inson omili va axloqiy masalalarni unutmaslik lozim. Mashhur shaxslar fikrlari ham shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt kelajakda muhim rol o'ynaydi, lekin uni samarali boshqarish va nazorat qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Carlson, M. (2020). "Artificial Intelligence in Journalism: Challenges and Opportunities." Journal of Media Innovations.

2. Lewis, S. C., & Westlund, O. (2019). "Big Data and Journalism: AI-driven News Production." Digital Journalism.
3. Marconi, F. (2021). Newsmakers: Artificial Intelligence and the Future of Journalism.

G‘AFUR G‘ULOM-SATIRA VA HAQIQAT SHOIRI

Madinabonu Xakimova,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi

indonez-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Abdulla Oripov ta’rifi bilan aytganda “o‘zbekning o‘z shoiri” bo‘lmish satira va haqiqat shoiri, she’rlari, asarlarida Vatanga muhabbat tuyg‘usi yo‘g‘rilgan, o‘zbekning mehmondo‘stligi, mehnatkashkigi, mehru-muhabbatini aks ettirgan milliy shoirimiz G‘afur G‘ulomning hayot yo‘li va ijodi, tarjimonlik faoliyati to‘g‘risida.

Kalit so‘zlar: o‘girmachilik uslubi, o‘zbekning milliy shoiri, tarjimonlik mahorati, tabdil, Vatan madhi, “Borodino”, Alisher Navoiy, V.Mayakovskiy.

Аннотация: Данная статья посвящена жизни и творчеству национального поэта Узбекистана Гафура Гуляма — поэта сатиры и правды, которого Абдулла Орипов назвал «собственным поэтом узбеков». В его стихах и произведениях отражаются любовь к Родине, гостеприимство, трудолюбие и доброта узбекского народа. В статье также освещается его деятельность как переводчика.

Ключевые слова: метод перевода, национальный поэт узбеков, мастерство перевода, адаптация, прославление Родины, «Бородино», Алишер Навои, В. Маяковский.

Abstract: This article discusses the life and work of Uzbek people’s poet of Uzbekistan, Gafur Gulyam, a poet of satire and truth, whom Abdullah Oripov called "the Uzbeks' own poet." His poems and works illustrate the love

of the Motherland, hospitality, hard work and kindness of the Uzbek people. The article also highlights his work as a translator.

Keywords: translation method, Uzbek national poet, translation skills, adaptation, glorification of the Motherland, "Borodino", Alisher Navoi, V. Mayakovsky.

Gʻafur Gʻulom kimligini bilasiz, Adresimdir Oʻzbekiston shubhasiz. Gʻafur Gʻulom XX asrning zabardast, serqirra va oʻzbek millatining chinakam oʻz shoiri Gʻafur Gʻulom 1903-yil 10-may kuni Toshkent shahrida dehqonlar oilasida tavallud topgan. Otasi Gʻulom Mirza Orif savodxon boʻlgan va oʻzbek, tojik adabiyotini mutolaa qilgan. Rustilini bilgan, “Mirza” va “Gʻulom” taxalluslari bilan talay sheʼrlar yozgan. Uning uyiga Xislat, Asiriy, Muqumiyy, Furqat va boshqa bir qator shoirlar kelib turgan. Otasidan 9 yoshida va onasi- Toshbibbi Shoyusuf qizidan 15 yoshida erta yetim qolgan yosh shoir 1916- yilda oʻqishga kiradi. Roʻzgʻor yuki yelkasiga tushgan yozuvchi ishlashga majbur boʻladi. U koʻplab sohalarda oʻzini sinab koʻrgach, nihoyat, matbaaga harf teruvchi boʻlib ishga kiradi, soʻngra, pedagogik kurslarda tahsil oladi. Gʻafur Gʻulom Toshkent pedagogika institutini tamomlagan. Yozuvchi shuningdek,

1919-1927-yillar oraligʻida oʻqituvchi, maktab direktori, Maʼnaviyat uyushmasi ishchilari raisi boʻlib ishlaydi va shu ish faoliyati davomida bolalar uyini tashkil etishda faol ishtirok etadi. Adib oʻzi yetim oʻsganligi bois, yetim bolalarga atab koʻplab sheʼr va asarlar yozgan. Jumladan, “Shum bola” (1936) avtobigrafiq qissasida ijodkorning bolaligi va asr boshidagi Toshkent hayoti tasvirlangan. Yana shoirni “Sen yetim emassan” sheʼrini eslang. Bunda xalqimizning qanchalar muruvvatli, mehru saxovatda yaqtoligi aks etgan. Bu sheʼr ulugʻ Vatan urushining ota onasiz qolgan goʻdaklariga bagʻishlangan:

Sen yetim emassan,
Tinchlan, jigarim.
Quyoshday mehribon
Vataning-onang,
Zaminday vazminu
Mehnatkash, mushfiq
Istagan narsangni tayyorlaguvchi

Xalq bor-otang bor.

Gʻafur Gʻulom yetimlikning barcha gʻurbatlarini koʻrgan, his etib ulgʻaygani bois uning dil izhori doim samimiy, koʻz yoshlari buloq suvidek pok, mehr muhabbati ham tomirda sizuvchi qondek qaynoq boʻlgan. Gʻafur Gʻulom oʻzbek tilining imkoniyatlariga cheksiz ishongan, bu tilda ifodalab boʻlmaydigan fikr va tuygʻu yoʻq deb hisoblagan. Atoqli sharqshunos olim, ulkan mutarjim Shoislom Shomuhamedovning xotirlashicha, u kishi Saʼdiyning “Guliston” asarini oʻgirayotganida har bir naql oxirida kelgan, Saʼdiyga xos quyma misralar, aforizmlarni tarjima qilishda qiynalgan va “mana buni tarjimada berib boʻlmasa kerak”, deya Gʻafur Gʻulomga maslahat solganida, ustoz adib Shoislom akaga qarab, “Oʻzbekmisan?” deb soʻrar ekan. “Ha...”, der ekan Sh.Shomuhamedov ajablanib. “Oʻzbek boʻlsang, topasan. Top!” derkan qatʼiy qilib Gʻafur Gʻulom. Darhaqiqat adib nafaqat oʻz asarlarida, balki tarjimalarida ham oʻzbek tillining imkoniyatlarini nafis holda aks ettirgan. Gʻafur Gʻulom tarjima sohasiga XX asrning yigirmanchi yillari ikkinchi yarmida kirib kelgan. U dastlab 1930-yilda rus yozuvchisi Vladimir Mayakovskiyning “Во весь голос” poemasini “Hayqiriq” nomi bilan oʻzbek tiliga oʻgirib chop ettirgan. Shuningdek yozuvchi 1940-yilda, buyuk adib Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan uning “Farhod va Shirin” dostonini hozirgi tilga tabdil qilib chop etgan. Tabdil – badal degan oʻzakdan olingan boʻlib, almashtirish, oʻrniga bir narsa qoʻyish degani. Bu bilan u Navoiyning asarlarini xalqqa yanada yaqin boʻlishiga oʻz hissasini qoʻshdi. Chunki A.Navoiyning yozuvchilik tili bir muncha murakkab boʻlib, oddiy kitobxon uchun buni tushunish bir muncha qiyin desak mubolagʻa boʻlmaydi. Mana, asardagi bir bob boshlanishi:

Bu xoro uzra tez etkan qalamni
Yuziga buyla naqsh etti raqamni.

Ushbu bayt Gʻafur Gʻulom tomonidan “Bu qattiq tosh ustida oʻz qalamini charxlab olgan kishi oʻsha tosh ustiga quyidagi gaplarni naqsh qildi” deya kitobxonga taqdim etilgan. Adib oʻz navbatida rus adibi M. Yu. Lermontovning “Borodino” asarini mahorat bilan ona tiliga tarjima qilgan. Quyida ushbu sheʼrni Gʻafur Gʻulom tarjimasida oʻqishingiz mumkin:

- Qani, amakijon, aytib beringiz,
O't ketib, o'rtangan Moskva bejiz-
Faranglarga berilmaganku-?
Axir bo'lgandir-ku beomon urush,
Bo'lganda ham qanday, ketguday es-hush
Borodino kuni Rossiyaning beiz-
Chiqmas yodidan mangu!
- Ha, biznig zamonda mardlar bor edi,
Sizga o'xshamasdi, shiddatkor edi.
Sizlar botir emassiz.
Ularning qismati bo'lmishdi yomon
Talay mardlar maydon aro berdi jon.
Bo'lmasaydi taqdir amri beomon
Ketmas edi Moskva, essiz!
Biz uzoq indamay chekinar edik,
Alam qilar edi, jang kutar edik.
Chollar po'ng'illar birdan:
"Nima bu, shu yerda o'tadimi qish?
Komandirlarimiz bajarolmas ish
Yovlarning mundirin kerakdir yirtish
Rusning nayzasi bilan".
Topdik oxirida katta bir maydon,
Bemalol sayohat qilurlik sayhon,
Kichik istehkom qurdik.
Yotamiz quloqni unda dik tutib,
Tonggi nurlar bilan yaltiraydi to'p,
O'rmonda faranglar har qayda, to'p-to'p
Kezib yurganlarini ko'rdik.
Boplab turib men ham to'pni o'qladim,
O'ylayman: "do'st"ni bir qo'noq qlaykim!
Qarab tur, og'a musyo:
Kurash ekan, hiylaning ne keragi bor?
Bizlar saf tortamiz misoli devor,
Ona-Vatan so'rsa, bizlar boyakbor

Boshni ham beramiz-ku!
Ikki kun ham o‘tdi otishmalardan.
Nima manfaat bor bekorchilikdan?
Kutdik uchunchi kunni.
Eshitilib qoldi har yoqdan ovoz:
“Tezroq ilg‘or safga otib olsang soz”.
Daxshat qirg‘inining maydoniga boz
Tushadi ko‘lkasi tunning.
Zambarak tubida men mudrar edim.
Toki tong otguncha eshitar edim
Faranglarning shod sasin.
Biroq bizning manzil o‘chiq, jim yotar,
Kimdir majaq dubulg‘asin tuzatar,
Kimdir murtin chaynab, nayzasin artar,
Juda oshgan zardasi.
Tong asta yorishib kelishi bilanoq,
Qo‘zg‘alishdik misli momaqaldiraq,
Saflar orqasidan saf.
Bizning mard polkovnik edi qahramon,
Shohga navkar, soldatlarga otaxon...
Biroq afsus, chavaqlanib berdi jon,
Yotar nam yerda uxlab.
O‘lar ekan, aytdi, ko‘z ochib tiyrak:
“Yigitlar, Moskvani qutqazmoq kerak,
Moskva uchun o‘sang oz,
Shuncha og‘aynilar u deb o‘lgandek!”
Borodino jangida qasamyod etdik
Va boshlarni mardona o‘limga tutdik,
Hammamiz ham shovvoz.
Shunday kun keldiki! Tutun orasi,
Bulutday siljidi farang qorasi
Bizning istehkom tomon.
Rango-rang tamg‘ali yurt botirlari,
Dubulg‘asi dumdor saf-saf suvori,
Ko‘zimiz oldida kelmoqda bari,

Ro‘baro‘dan yonma-yon.
Bunday jangni sizlar hech ko‘rmagaysiz!..
Bayroqlar soyaday ko‘chardi izziz,
Yer-ko‘k tutun, olov...
Qurol-aslahalar, to‘plar ovozi,
Nayza sanchib tolmish el nayzabozi,
O‘lganlarning qonli tog‘day tanasi
O‘qlarga to‘sig‘u-g‘ov.
Ruslarda botirlik qancha mustahkam,-
Ekanin o‘sha kun ko‘rdi dushman ham,
Ko‘rdi nayzaning kuchin.
Yer ham hansiradi ko‘kragimizday,
Aralashib ketdi ot, odam birday,
Minglab zambaraklar o‘kirib sherday
Olardi yovdan o‘chin...
Qosh qorayib qoldi, Biz esa tayyor
Ertadan qattiq jang boshlashga takror,
Kurash oxirigacha.
Do‘mbiralar birdan dirillab qoldi;
Dushmanlar chekinib, yo‘lin ters soldi,
Sanadik, kim boru va kim yo‘qoldi,
Do‘stlardan qoldi necha!
Ha, bizning zamonda mardlar bor edi:
Sizlar botir emassiz.
Ularning qismati bo‘lmishdi yomon:
Talay erlar maydon aro berdi jon.
Bo‘lmasaydi taqdir amri beomon,
Ketmas edi Moskva, essiz!

Har bir yozuvchi boshqa bir yozuvchining asarini ona tiliga tarjima qilar ekan, albatta, g‘oya jihatidan o‘ziga yaqinini, yuragini jumbushga keltirganini tarjima qiladi. Rus yozuvchisi Lermontovning ushbu asariga qiyosan G‘afur G‘lomning ham ko‘plab Vatanni madh etuvchi, urush davrlarni madh etuvchi, o‘sha davr insonlarining turmush tarzini, jasoratini, mehrini va mashaqqatini ifoda etuvchi she‘rlari va asarlari mavjud. Ehtimol shuning uchun yozuvchi

“Borodino”ni o‘zbeklashtirgandir. G‘afur G‘ulomning “o‘girmachilik uslubi” shundayki, ushbu tarjimalar tili soda, ifodasi jaydari va o‘zbekona. G‘afur G‘ulom hech bir o‘rinda tarjima tilini zo‘riqtirmaydi, murakkab va gajakdor iboralar bilan o‘zbek o‘quvchisini qiynamaydi, fikrni erkin va sarbast turib taqdim etadi. Serqirra ijodkor Jomiy va Foniy g‘azallarini, Sa‘diyning “Guliston” asarining she‘riy qismini, Shota Rustavelining “Yo‘lbars terisidagi pahlavon” dostonidan boblar, Bedilning ikki ruboiysini, I.Krilov masallarini, Pushkinning talay she‘r va poemalarini, A.Tolstoy, N.Nekrasov, V.Mayakovskiy, M.Tursinzoda she‘rlarini, o‘nlab boshqa xalqlar qo‘shiqlarini o‘zbekchalashtirgan. Shuningdek, barchamizga mashhur Vilyam Shekspirning “Otello” tragediyasi, Lope de Veganing “Qo‘zibuloq qishlog‘i”, Fridrix Shillerning “Vilhelm Tell” dramalari yozuvchi tarjimasida sahna yuzini ko‘rgan. G‘afur G‘ulomning tarjimalari faqatgina shular bilan cheklanib qolmagan, hali bu ro‘yxatga kiritilmagan she‘rlar, poemalar, teatr va radiopastanovkalar, dramalar behisob. Qisqa qilib aytganda, adib chinakamiga o‘zbekning milliy o‘z yozuvchisi bo‘lgan. G‘afur G‘ulom 1966-yil 10-iyun sanasida, 63 yoshida Toshkentda vafot etgan. U Chig‘atoy qabristoniga dafn etilgan. Adib tiriklik chog‘ida va vafotidan keyin ham bir nechta mukofotlar bilan taqdirlangan. Quyida ularning ro‘yxatini ko‘rishingiz mumkin. Ikkinchi darajali Stalin mukofoti (1946)- “Sharqdan kelmoqdaman” she‘rlari uchun. Lenin mukofoti (1970-yil, vafotidan keyin)- so‘ngi yillardagi she‘rlari uchun. Leninning uchta ordeni. “Faxriy nishon” ordeni. “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni (2000-yil, vafotidan keyin).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zuhridin Isomov. “G‘afur G‘ulom tarjimalari”. T: O‘zb, 2017- yil.

**XURSHID DAVRON – ZAMONAVIY O‘ZBEK
ADABIYOTINING YIRIK VAKILI**

Biloliddin Abdulhoshimov,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: Adabiyot atalmish bir bogʻning xushmanzara daraxtlar, gullar bunyodkorlari bisyor, oʻshanday ijodkorlardan biri bu Xurshid Davrondir. Uning hayoti va ijodiyoti har bir adabiyot muxlisini befarq qoldirmaydi. Ayniqsa, asarlarining jozibadorligi, badiiy ahamiyati, soʻz boyligining kengligi, mazmundorligi va katta miqyosda ekanligi, ilmiy qadri maqolada bayon qilindi.

Kalit soʻzlar: Chordara qishlogʻi, Toshkent universiteti, YUNESKO, “Odeon” teatri, Mahmud Qoshgʻariy nomidagi xalqaro mukofoti, “Oltin qalam” mukofoti, Mikoyil Mushfiq mukofoti.

Аннотация: В саду, называемом литературой, много творцов — словно живописные деревья и цветы, создающие его красоту. Одним из таких талантливых мастеров слова является Хуршид Даврон. Его жизнь и творчество не оставляют равнодушным ни одного поклонника литературы. В статье раскрываются привлекательность его произведений, их художественная значимость, богатство языка, глубина содержания, масштабность и научная ценность.

Ключевые слова: село Чордара, Ташкентский университет, ЮНЕСКО, театр «Одеон», международная премия Махмуда Кашгари, премия «Золотое перо», премия Микаила Мушфика.

Abstract: There are many creators of beautiful trees and flowers in a garden called literature, and one of such creators is Khurshid Davron. His life and work will not leave indifferent any literature fan. In particular, the attractiveness, artistic significance, breadth of vocabulary, content and large scale of his works, and scientific value were described in the article.

Keywords: Chordara village, Tashkent University, UNESCO, Odeon Theater, Mahmud Kashgari International Prize, Golden Pen Prize, Mikayil Mushfiq Prize.

Ham shoir, ham dramaturg, tarixchi, yozuvchi va yana tarjimon kasblarini bittada jamlash ham mahorat, ham qobiliyat va minglar harakatlar natijasidir. Oʻzbek ijodkorlari ana shunday serqirraligi bilan ajralib turadi desak

mubolag'a bo'lmaydi. Ana shunday ta'riflarga ega shaxslar orasida shoir Xurshid Davronning ham o'z o'rnini bor. Xurshid Davron 1952-yil 20-yanvarda Samarqand shahridagi Chordara qishlog'ida tavallud topgan. 1959-yildan boshlab mahalliy maktabda ta'limni boshlaydi va ilk saboqlarini o'z maktabida oladi. Aynan o'sha paytlardan boshlab adabiyotga, san'atga, jurnalistikaga qiziqish o'ti uning yuragida paydo bo'ladi. Qiziqishlarini rivojlantirish, o'zini yana rivojlantirish uchun Toshkent universitetining jurnalistika fakultetiga o'qishga kiradi va uni 1969-yilda muvofaqiyatli tamomlaydi.

She'riyatda salmoqli ijod qilgan adibning ilk she'riy to'plamlari 1979-yildan boshlab chiqib boshlaydi, ilk to'plami "Qadrdon quyosh" deb nomlanadi. Shundan so'ng ketma-ketlikda "Shahardagi olma daraxti", "Tungi bog'lar", "Uchib boraman qushlar bilan", "To'marisning ko'zlari", "Bolalikning ovozi", "Qaqnus" va "Bahordan bir kun oldin" kabi she'riy to'plamlari nashr etiladi. Shoir she'rlarida tarix, madaniyat, san'at, xalqning turmush tarzi va tabiat manzaralari betakror tarzda bayon qilinadi, shuningdek ijodkorning ishlarini o'qish davomida ijodkorning tabiatga, jamiyatga, oilaga nechog'lik e'tiborli ekanini, har ishga va har voqeaga teranlik bilan, mehr bilan, sinchkovlik bilan qarashini ham anglash mumkin. Adabiyot vakili sifatida esa she'rlarida so'z boyligi, ifodalarning tushuntirishlari aniqligi, tasvir vositalarining boyligi namoyon bo'ladi.

Mustaqillik davrida milliy adabiyot millat ahlining ko'nglini, ruhiyatini tasvirlashga e'tibor qaratmoqda. Natijada, inson asosiy badiiy qadriyatga aylanib bormoqda. Bu davr she'riyatida o'tkir gap aytish, o'quvchiga aql o'rgatish emas, balki inson ruhining murakkab manzaralarini aks ettirishga e'tibor kuchaydi. Zamonaviy nasr va dramaturgiya ham bugungi o'zbek adabiyoti mavqeini yuqori pog'onaga ko'tarishda yetakchilik qildi. Ana shunday ijodkorlardan beri sifatida Xurshid Davron kabi shoirlar e'tirof etiladi. Mustaqillik davrida milliy adabiyot millat ahlining ko'nglini, ruhiyatini tasvirlashga e'tibor qaratmoqda. Natijada, inson asosiy badiiy qadriyatga aylanib bormoqda. Bu davr she'riyatida o'tkir gap aytish, o'quvchiga aql o'rgatish emas, balki inson ruhining murakkab manzaralarini aks ettirishga e'tibor kuchaydi. Zamonaviy nasr va dramaturgiya ham bugungi o'zbek adabiyoti mavqeini yuqori pog'onaga ko'tarishda yetakchilik qildi. She'riyatda Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Ikrom Otamurod, Muhammad Yusuf, Faxriyor, Sirojiddin Sayyid, Salim Ashur, Iqbol

Mirzo; nasrda Shukur Xolmirzayev, O‘tkir Hoshimov, Omon Muxtor, Tohir Malik, Murod Muhammad Do‘st, Xayriddin Sultonov, Xurshid Do‘stmuhammad, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Abdulvahob; dramaturgiyada Odil Yoqubov, Erkin Samandar, Usmon Azimov asarlari yutuqlarga boy bo‘ldi.

She‘riyatga muhabbati va sadoqati uning she‘rlarida ham mujassamlashgan, xususan “Bahordan bir kun oldin” she‘r, rivoyatlar, tarjimalar to‘plami boshlanishidagi she‘rida shunday degan edi:

She‘rni oq qogozga yozib qo‘ymayman...
She‘r shamdir dilimda yoqib qo‘yaman.
She‘r guldir qorlarga basma-bas turib
Men uni ko‘ksimga taqib qo‘yaman.

Bundan tashqari shoir ijodiyotida nazira bitish holatlari ham uchragan, jumladan Rauf Parpining she‘riga yozgan nazirasi:

Qor yog‘ayotgan oqshom shaharni kezsang,
G‘ira-shira ko‘chalarni kezsang,
Qo‘llaringni cho‘ntakka tiqib,
Qor esa erisa lablaringda jim.

O‘zi qatoridagi ijodkorlarning asarlari, ijod na‘munalari bilan tanishish orqali ularga bo‘lgan hurmatini bajo keltirish bilan birga, ularning asarlariga ham, o‘zbek adabiyoti, jumladan, o‘zbek she‘riyatiga befarq emasligini, uning rivojlanishi uchun hissa qo‘shishga harakat qilishi, jonbozlik ko‘rsatishini kuzatish mumkin.

Har jabhada o‘zini sinab ko‘radigan jonkuyar shaxs sifatida Xurshid Davron XX asr oxirgi 10-yilligidan boshlab nasrda ham o‘zini sinab ko‘ra boshlaydi. Uzoq yillik matbuot va televideniya-dagi barakali ish faoliyati tufayli yangi janr ijodkorga qiyinchilik tug‘dirmaydi. Ayni mustaqilligimiz arafasida tarixiy shaxslarga, ularning hayoti va foaliyatiga qiziqish ham uni ijod qilishga, ko‘plab izlanishlar qilishga undaydi. Ana shunday keng ko‘lamdagi tadqiqotlar natijasida yaratilgan asarlarda Amir Temur, Bibixonim,

Shayx Najmiddin Kubro, Bobur Mirzo kabi tarixiy shaxslar haqida ham yozadi. Sharq va G‘arb shoirlarining asarlaridan iborat “Qirq oshiq daftari” (1989) va yapon shoirlarining she’rlaridan tarkib topgan.

“Dengiz yaproqlari” (1988) to‘plamlarini o‘zbe Azim Suyunning “O‘zbekiston”, Xurshid Davronning “Vatan haqida yetti rivoyat”, Sulton Akbariyning “Qatag‘on”, Omon Matjonning “Nega men”, Habib Sa’dullaning “Jarohat”, Ikrom Otamurodning “Uzoqlashayotgan og‘riq”, Jonibek Subhonning “Bezovta ruh”, Abdumajid Azimning “Sarbon” dostonlarida yaqin o‘tmish voqealari, jumladan, shaxsga sig‘inish davri fojialari, dushmanlarning yurt mustaqilligiga qarshi qilgan yovuz qilmishlari tasvirlab berilgan. Xurshid Davron ijod na’munalari jahonning 40 dan ziyod tillarga tarjima qilingan. Shu ma’lumotning o‘zigina shoirning ijodiga nafaqat o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

O‘zbekistonda, balki horijda ham qiziqish borligidan dalolat beradi. Uning adabiyot, tarix, siyosat, san’at, matbuotdagi uzoq yillik samarali xizmatlari davlatimiz va horijiy mukofotlar bilan taqdirlangan, xususan, 1989-yilda adabiyot sohasi vakillari uchun beriladigan Mahmud Qoshg‘ariy nomidagi xalqaro mukofot, 1999-yil O‘zbekiston xalq shoiri maqomi, 2009-yil Xalqaro “Oltin qalam” mukofoti, 2013-yil Ozarbayjonning Mikoyil Mushfiq mukofoti bilan, 2004-yil O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputati, 1997-yilda “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlangan.

Hozirgi paytda Xurshid Davron kutubxonasi nomli o‘ziga xos platformaga ega bo‘lgan ijodkor o‘z ijod namunalarini, jahon va o‘zbek adabiyotining asarlarini yaxlit bir platforma jamlaganlar, kundan kunga ularning soni boyib bormoqda. Umumiy xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Xurshid Davron o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega ijodkor va uning ijodiyoti biz kabi yoshlar uchun ulkan boylikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov, Obidjon. Yangi o‘zbek adabiyoti tarixi: savol-javoblar: o‘quv-uslubiy qo‘llanma / O. Karimov.- Namangan: Namangan” 2016.
2. Saydulla Mirzayev, “XX asr o‘zbek adabiyoti”, “Yangi asr avlodi”, 2005-yil, 80-bet.
3. Xurshid Davron. Samarqand xayoli (Bobur va Samarqand) 1989. “Sharq yulduzi” jurnali, 1991, 1-2 son.

O‘ZBEK ADABIYOTINING YORQIN YOZUVCHISI

Muazzam Ibrohimova,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi

indonez-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyoti yorqin vakili O‘tkir Hoshimov hayoti, bolalik xotiralari, asarlarining tushunarli va xalqona uslubda yozilganligi va uning tarjimalarida asar ruhini saqlab, chuqur tafakkur bilan o‘quvchilarga yetkazishi yuzasidan so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: jonli, teran tahlil, jamoat arbobi, shoir, tarjimon, asar ruhi, asliyat, jonlilik, badiiy joziba.

Аннотация: В данной статье рассказывается о жизни яркого представителя узбекской литературы — Уткира Хашимова, его детских воспоминаниях, доступном и народном стиле его произведений, а также о сохранении духа оригинала в переводах, которые передаются читателю с глубоким размышлением.

Ключевые слова: живость, глубокий анализ, общественный деятель, поэт, переводчик, дух произведения, оригинальность, выразительность, художественная привлекательность.

Abstract: The life path, childhood memories of a talented Uzbek writer --- Otkir Khoshimov will be discussed in this article. Also, it demonstrates the clear and folkloric style of his writing, alongside his translations of various works, which soul was maintained, and were delivered to readers with deep knowledge.

Key words: lively, objective analyse, nation’s pride, poet, soul of work, originality, liveliness, literary beauty.

U o‘zi bilmagan mavzuni mohiyatini anglamagan masalani qalamga olmaydi. O‘z qahramonlarini xolisona tirik, hayotiy, jonli odam sifatida tasvirlaydi. Ularning qanday inson ekanliklarini zohiriy emas botiniy

uygʻunlikda katta falsafiy mushohada asosida teran tahlil qiladigan yozuvchi bu Oʻtkir Hoshimov oʻzbek adabiyotining taniqli yozuvchisi, shoir va jamoat arbobi boʻlib, oʻz ijodi bilan milliy adabiyotda muhim iz qoldirgan ijodkordir. Uning asarlari oʻzbek xalqining hayoti, qadriyatlari, muammolari va ichki kechinmalarini chuqur aks ettirgani bilan ajralib turadi. Hoshimovning ijodi oʻz zamonining ijtimoiy muammolarini yoritib, oʻquvchiga hayotning asl mohiyatini ochib bergani bilan qadrlanadi. Shuningdek, Oʻtkir Hoshimov faqat yozuvchigina emas, balki mohir tarjimon sifatida ham tanilgan. U jahon adabiyotining ayrim durdonalarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan. Uning tarjimonlik mahoratidan quyidagi misollarni koʻrsak. Eng avvalo u tarjimalarida asarning ruhini, muallif uslubini va badiiy jozibasini saqlashga alohida eʼtibor qaratib asliyatga sodiq qolgan. Shuningdek uning tarjimalari oʻzbek oʻquvchilari uchun tushunarli va oʻqish uchun qulay boʻlib, tilining jonliligi bilan ajralib turadi. U nafaqat soʻzlarni tarjima qilgan, balki asarning badiiy va falsafiy jihatlarini ham oʻzbek tilida toʻlaqonli aks ettirishga harakat qilgan. Adib tarjimon sifatida S.Sveyg, Mustay Karim, Vasiley Shukshinning asalarlarini oʻzbek tiliga oʻgʻirgan.

Taniqli adib 1941-yil 5-avgustda Toshkent biqinidagi Doʻmbirobod qishlogʻida tugʻilgan. Qishloqda, tagʻin, poytaxt biqinidagi qishloqda tugʻilgani taqdirning hadyasi boʻlgani ajab emas. Negaki ijodkorda qishloqning qalbi, shaharning aqli boʻlshi kerak.

Oʻtkir Hoshimov aytadiki: “Oyim bir gapni koʻp aytardi: «Sen tugʻilganingda qiyomat qoyim boʻlgan edi. Oʻris xotinlar urush boshlanibdi, deb yigʻlagan, men ammamning buzogʻi hayron boʻlgandim. Urush allaqayoqda boʻlayotibdi-yu, bular nega dod soladi, degandim. Keyin aqlim yetdi».

“Ikki eshik orasi” romanida Qora amma ham urush haqidagi xabarni shunday qabul qiladi. Oʻgʻli Kimsan frontga ketmoqchi boʻlganidan keyingina vahimaga tushib qola-di. Baʼzi doʻstlarim roman qoʻlyozmasining muhokamasida “urush boshlangani haqidagi xabarni bu qadar soddalashtirib tasvirlamaslik kerak edi”, degan mulohazani aytdi. Biroq men uchun bu hodisa kinolarda tasvirlanganidan koʻra, onam aytib bergan hikoyada hayotga yaqinroq koʻrindi-” deb eslardi. Mana shunday ogʻir paytda tugʻilgani ham adibning sermazmun va barakali ijod qilishiga oʻz taʼsirini koʻrsatgan.

O'tkir Hoshimov asarlari ko'pincha o'zbek xalqining ananalari, urf-odatlari va hayot tarzini aks ettiradi. Shunchaki uning asarlarini o'qish orqali ham inson o'zi uchun tarixni qaytadan kashf eta oladi. O'zi ko'rmagan makon va zamon haqida yetarlicha taassurotga ega bo'ladi. Uning asarlarida insoniy tuyg'ular, ijtimoiy muammolar va hayotning murakkabligi haqida teran fikrlar mavjud. U o'zining ijodini she'rlar va ocherklar yozishdan boshlagan. 1962-yilda uning "Po'lat chavandoz" nomli ocherklar to'plami bosilib chiqdi. Shundan keyin uning birin-ketin qissa, hikoya va romanlari insonlar qo'liga yetib bordi. Uning ilk qissasi "Cho'l havosi" kitobxonlar tomonidan iliq qarshi olindi. Atoqli adib Abdulla Qahhor bu qissa haqida juda yaxshi fikr bildirgan. Yosh ijodkorning bu qissasiga Abdulla Qahhorning oq yo'lida u: "Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo'ladi", - deb bashorot qilgan edi. Bundan keyin yozuvchining izlanish va mashqlar davri boshlandi. Yozuvchining ilk qadamlariyoq inson ma'naviyati va ruhiyati va hissiyotlari qalb ko'zining davosi sifatida ko'ringan.

"Bahor qaytmaydi" qissasida ham insoniy tuyg'ularning barcha turi aks etadi. Yaxshiliklar ham yomonliklar ham bir maromda o'quvchiga yetkazib beriladi. Boshlanishida hech bir g'uborsiz boshlangan tuyg'ular vaqt o'tishi bilan razillik sari yo'l olishi, qizning sof tuyg'ularining qadriga yetmagan xudbin yigit hiyonat botqog'iga botib ketishi ham haqiqiy san'atkorona ifoda etiladi.

O'tkir Hoshimovning ijodi asrdan-asrga o'tishi bilan sayqallanib bordi. Undagi go'zallik tuyg'usi behad kuchli. U aldangan insonning ichki kechinmalarini ham aniqlik bilan ifoda eta olar shu vaziyatda ham qahramonlarning ma'naviy inqirozga yuz tutmasligini ko'rsatib berardi. Asarda bu qahramonlar yetuk, barkamol inson sifatida tasvirlansa, aksincha jabrdida obrazidagilar esa sof bolalarcha tuyg'uga ega beg'ubor inson siymosida shakllanadi.

O'tkir Hoshimovning "Nur borki, soya bor" romani 1976-yilda yozilgan va adibning birinchi yirik romani hisoblanadi. Asarda insoniyat hayotidagi murakkab vaziyatlar, odamlarning ichki kechinmalari va hayotiy kurashlari aks etgan. Asarning asosiy mavzusi sifatida halollik, vijdon, mehr-oqibat aks ettiriladi. Romanda turli toifadagi odamlarning hayot yo'li orqali taqdirning murakkab qirralari tasvirlangan. Adib jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, insoniylik, adolatsizlik tushunchalarini ochib beradi.

Asar qahramonlari hayotlari davomida ko'pgina adolatsizlarga uchraydilar. Vijdonlilik va noinsoflik o'rtasidagi kurash, insonlarning maqsadlariga erishish yo'lidagi kurashishlari romanning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. O'tkinchi hoyu-havaslariga berilganlarning taqdiri qanday yakun topadiyu, chin insoniy qadriyatlarga tayanib ish ko'radiganlarniki esa qanday yuksalishi romanda to'liq ochib berilgan.

Yuqorida aytib o'tilgandek O'tkir Hoshimov tarjima sohasida ham o'chmas iz qoldirgan. Uning o'zining asarlarining yozilish tili qanchalik darajada sodda va tushunilishi oson bo'lsa uning tarjimalari ham shunday talqinda yozilgan asarlar bo'lgan. U Vasiliy Shukshinning "Солнце, старик и девушка" (Quyosh, chol va qiz) hikoyasini tarjima qilish davomida o'zgacha noziklik bilan ishlagan. Shukshinning hikoyalari sodda, hayotiy va halqona uslubda yozilgan. U asarlariga rus halqining iboralari, mahalliy lahjalari bilan birga yozgan. Ayni "Quyosh, chol va qiz" hikoyasida Shukshin chol va hayotga bo'lgan qarashlari va qizning ichki kechinmalarini sodda ammo chuqur mushohada bilan yozib qoldirgan. Shukshinning hikoyalari qisqa mazmunli va hissiyotlarga boy bo'lgani uchun Hoshimov ham ortiqcha jimjimadorliklardan qochib mazmunni to'g'ri yetkazishga harakat qilgan. Asardagi rus madaniyati yashash tarziga oid elementlarni o'zbek o'quvchisi uchun tushunadigan va his qila oladigan tarzda keltirgan. Hikoyadagi uchta asosiy obraz (quyosh, chol va qiz) lari asosiy ahamiyatga ega. Yosh qizning orzu umidlarga boy kelajak haqidagi o'ylari bu yo'lni allaqachon bosib o'tgan, oxir-oqibat hayotning og'ir zarbalariga uchragan chol, har kuni o'z vaqtidan botib ertasi kuni yana yangi kun, yangi tongni boshlab ularni zimdan kuzatuvchi quyosh chuqur falsafiy ma'no kasb etadi aslida. O'tkir Hoshimov buni shunchaki tarjima sifatida emas, balki o'zi ham kuchli hikoyanavis bo'lganligi uchun, Shukshin uslubini juda aniq tarzda saqlab, eng muhimi asarning asl mohiyatini kitobxonlarga yetkazib bera olgan.

Hoshimov chet el adiblarining asarlarini tarjima qilib o'zbek adabiyotini boyitish bilan bir qatorda o'zining ko'plab asarlari ham chet tillariga tarjima qilinib kitobxonlarga yetkazilgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda O'zbekistonda adabiy tarjima sohasida faoliyat yuritayotgan 150 dan ortiq tashkilot mavjud edi. Ushbu tashkilotlar tomonidan yillik ravishda 200 dan ortiq asar tarjima qilinadi, ulardan 30% dan ortig'i o'zbek yozuvchilarining asarlaridir. O'tkir Hoshimovning asarlari ushbu statistikada alohida o'rin

tutadi, chunki ularning tarjimasi ko‘plab xorijiy tillarda amalga oshirilgan. Bunga misol tariqasida “Dunyoning ishlari” asari Mark Ris va Abdulla Ro‘ziyev tomonidan ingliz tiliga tarjima qilinganini aytish mumkun. Hatto kitobning reklamasi Nyu York metrolarida ham paydo bo‘lgan. Amazon saytida 31 marta sotuvga chiqqan. Tarjimonlar asar nomini ingliz tiliga “Such life” deb o‘girishgan. Risning yozishicha, kitobni tarjima qilishdan nashr qilishgacha 5 yil vaqt ketgan.

Adib o‘zining samarali ijodi bilan insonlar ko‘nglidan chuqur joy egallagan. U haqda ko‘plab adabiyotshunoslar, yozuvchilar va kitobxonlar e‘tirof bildirganlar. Quyida u haqda aytilgan fikrlarga qaralsa: yozuvchi va drammaturg Sharof Boshbekov “O‘tkir aka o‘zbek adabiyotining chinakam xalq yozuvchisi edi. Uning asarlarida oddiy odamlar hayoti, samimiy insoniy tuyg‘ular va hayot haqiqatlari mohirona aks etgan.” Adabiyotshunos Xurshid Do‘stmuhammad “O‘tkir Hoshimov o‘zbek adabiyotiga milliy ruhni olib kirgan ijodkorlardan biri. Uning asarlari shunchaki hikoya emas, balki hayot darsliklari edi.” Adabiyotshunos U.Normatov O‘tkir Hoshimovning ijodi haqida quyidagicha fikr bildirgan: "O‘zining badiiy asarlarida millatimizning yaqin o‘tmishi va bugungi hayoti, uning butun murakkabliklarini, milliy urf-odatlar va qadriyatlarni izchil badiiy dalolatlar bilan tasvirlab, adabiyot taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shgan."

Bu ta’riflar orqali biz yozuvchining o‘zbek adabiyotiga qanchalik ta’sir ko‘rsatganini yana bir bor anglab yetamiz va shu bilan birga shaxsiy hayotda ham nihoyatda samimiy, halol va elparvar inson sifatida insonlar yodida qolgan. Uning jurnalistik faoliyati ham odilona fikrlar, dolzarb mavzularni ko‘tarishi bilan xalq orasida e‘tiborli bo‘lgan. Adibning jami nashr etilgan asarlari 50 dan ortiq bo‘lib, ularning umumiy tiraji qariyb ikki milliondan oshadi. O‘tkir Hoshimov samarali ijodiy mehnati uchun 1991-yil “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” faxriy unvoni berilgan. “Mehnat shuxrati” (1996), “Buyuk hiznatlari uchun” (2001). 2013-yil 24-may kuni o‘zbek adabiyoti va san’ati og‘ir judolikka uchradi. Atoqli adib, O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov 72 yoshida vafot etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.10-sinf adabiyoti. – Toshkent: «O‘qituvchi», 2017. – B. 116–117.

2. Shushkin, V. Quyosh, chol va qiz / O‘tkir Hoshimov tarjimasi. – Toshkent: 2015.

NEGA INSON KULADI?

Saodat Muxamedjanova,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi

indonez-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Kulguni hajviy asarlar, biror voqea-hodisa, hazil, latifa kabilar keltirib chiqaradi va ularning kulgili jihati yumor yoki hajviya deb nomlanadi. Bu mavzuda turli shifokor, faylasuf, antropolog va boshqa ko‘pgina olimlar ilmiy izlanish olib borgan, tadqiqot o‘tkazib, hajviya fenomenasini tushunish va tushuntirishga urina va bugungi kunda ham ushbu mavzu aktualligini yo‘qotmagan. Depressiya, shizofriniya kabi murakkab va hali to‘liq o‘rganilmagan kasalliklar qatori, insonga xos bo‘lgan yumor, kulgudek pozitiv jihatlar ham ruhiy salomatlik va miyya faoliyati bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

Kalit so‘zlar: shartsiz refleks, normal, fundamental, vizual, kommunikatsiya, pragmatik, auditoriya, etnografiya, manipulyatsiya, kognitiv, emotsiya, akt, kontent, intellekt, produksiya, dominant, gelotologiya, bosh miya old qismida joylashgan lob, infant, psixika, inson.

Аннотация: Смех порождается из-за юмористических произведений, каких-либо происшествий, шуток, анекдотов и другого и то, что делает их смешными называется юмором. Многие доктора, философы, антропологи и другие учёные вели исследования на эту тему, пытаюсь понять и объяснить феномен юмора и до сегодняшнего дня она не потеряла свою актуальность. На ряду со сложными и ещё полностью не изученные болезнями такими как депрессия или шизофрения, свойственные человеку юмор, смех тоже напрямую связаны с ментальным здоровьем и работой мозга.

Ключевые слова: безусловный рефлекс, нормальный, фундаментальный, визуальный, коммуникация, прагматичный, аудитория, этнография, манипуляция, когнитивный, эмоция, акт, контент, интеллект, продукция, доминант, гелотология, лобная доля, инфантильный, психика, человек.

Abstract: Comic stories, various events, jokes, anecdotes and others make laughter and their amusing features are called humor. Many doctors, philosophers, anthropologists etc, have conducted researches regarding this topic attempting to understand and explain the phenomena of humor, and it is still relevant. Likewise complex diseases such as depression or schizophrenia which have not been fully discovered, positive sides like humor and laughter, inherent to humans, are also strongly related to mental health and the work brain performs.

Key words: unconditioned reflex, normal, fundamental, visual, communication, pragmatic, audience, ethnography, manipulation, cognitive, emotion, act, content, intelligence, production, dominant, gelotology, frontal lobe, infant, mind, human.

Biz kulgu hamda hajviya haqida fikr yuritganimizda ularning qanchalik oddiy va har kungi, inson hayotining ajralmas qismi ekanligini tushunamiz. Chunki biz kulgili hisoblagan har qanday hazil, biror voqea - hodisa yoki gapni deb xuddishartsiz refleks asosida kulamiz. Bolalikdan bunga o'rganganmiz va uni eng normal inson xususiyatiligidan xabardormiz. Ko'p xollarda kulgu va hajviya (yumor)ga yagona bir narsa sifatida qaraladi va ular odamda hayotining ilk onglaridan beri paydo bo'lib, uning asosiy tuyg'ularidan biriga aylangani sababli, kulgu va yumor jiddiy o'rganilmaydi yoki katta e'tiborga sazovor bo'lmaydi. Biroq ularning o'rni har birimiz uchun fundamental darajada muhim va yumor, kulguni ilmiy tadqiqot, izlanishlar bilan o'rganmoq inson ruhiyati va jismini to'liq kashf qilishda yana bir eshikni ochishi mumkin.

Villyam Bimen, amerikalik antropolog, o'zining "Linguistics and Anthropology" kitobida hajviyaga alohida to'xtalgan. Xususan, antropologiyada katta e'tiborga sazovor bo'lgan so'z san'ati aspektlaridan biri yumor. Yumor - nafaqat til, imo-ishora, vizual tasvir taqdimi va vaziyatga ta'sir qilish xususiyatlari, balki yana boshqa bir qator kommunikatsiya

qobiliyatlaridan iborat, bajariluvchi pragmatik ish (amaliyot)dir. Hajviyaning maqsadi auditoriyada, aynan, rohat xissini yuzaga keltirish, aksariyat hollarda jismoniy ko‘rinishda, tabassum va kulgu bilan birga shakllanadigan. Uning tarkibi va hosil bo‘lish holatlari madaniyatlararo o‘zgaruvchan bo‘lgani uchun, yumor etnografiya tadqiqoti predmeti - so‘zlashish etnografiyasi sohasidagi islohot.

Hajviyaning asosi auditoriya uchun kutilmagan (surpriz)ni hosil qilish maqsadida kommunikatsiya manipulyatsiyasi. XVIII asrdan beri surprizning eng keng tarqalgani “mos kelmaslik”. Mos kelmaslikning asosi lingvistik atamalarda quyidagicha ta’riflanadi: kommunikativ aktor xabar yoki boshqa materialni taqdim etadi va kognitiv “sur’at”ga to‘g‘rilayadi. Aktor sur’atni hikoya qiluvchining nuqtai nazari, vizual tasavvur va vaziyatni anglagani yordamida tashkil etadi. So‘ng u to‘satdan ushbu sur’atni chetga surib qo‘yadi, auditoriya a’zolariga original materialning boshqa ko‘rinishlari bo‘lishi mumkin bo‘lgan bir necha kognitiv sur’atlarni ayon qilib. Original sur’at va to‘satdan paydo bo‘lgan sur’atlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik natijasi biz guvohi bo‘ladigan rohat javobi - tabassum, quvonch va kulgu shaklidagi emotsiya “chiqishi”. Bu qarama-qarshilik yumor o‘zagidagi, harakatga keltiruvchi kuchdir va uni yo‘qotmoq, ta’kidlaydi Freyd [1960], odam zotining fundamental xulqiy refleksidir.

Hajviya, barcha kommunikativ aktlar orasida, eng ko‘p aktor va auditoriyaning teng ishtirokiga suyangen harakat. Auditoriya rohatni xis etish uchun hazilni tushunishi talab etiladi. Bu ularning aktor taqdim qilgan kognitiv sur’atlarini tahlil qilish hamda yumor hosil bo‘lish jarayonini kuzatish qobiliyatlariga ega bo‘lishi zarurligini anglatadi.

Aksariyat hollarda, yumor to‘rt bosqichdan iborat: kirish, paradoks, yechim va natija. Original material kontenti va dastlabki yoritib berish vositasining taqdimoti kirish qismida. Paradoks qo‘shimcha kadr yoki kadrlardan iborat. Yechim: ilk ko‘rinish va keyingi ko‘rinishlar bir vaqtning o‘zida mavjud ekanligini aks ettiruvchi bosqich, qarama-qarshilikni yuzaga keltiradigan. Natija esa auditoriya tushunish jarayonida ko‘rsatgan rohat. Demak, yumor va kulgu o‘rtasida farq bor. Yumor kulguning omilidir. Natijaning tahliliga to‘xtalsa, uning qanday yuzaga kelishini bilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Agar kulgu tibbiyot nuqtai nazaridan tahlil qilinsa, u yumorga psixologik javobligi aniq. Yana bir Amerika olimi Marshall Brein kulgu ikki qismdan iboratligi va

ular bir qator imo-ishoralar va ovoz produksiya ekanligiga oydinlik kiritadi. Inson kulsa, miyya ushbu xatti-harakatning ikkovini bir vaqtning o'zidan bajarishni buyuradi.

Ko'pgina tadqiqotchilar kulguning maqsadi insonlar o'zaro munosabat qurish va uni mustahkamlashi bilan aloqador, degan fikrda. Madaniy antropolog Mahadev Apte ta'kidlashicha: "Kulgu odamlar o'zini bir-biri atrofida erkin xis qilganida hosil bo'ladi va qanchalik ko'p kulgu bo'lsa, guruhda shunchalik yaqin rishtalar bo'ladi". Kamdan-kam hollarda guruh a'zosi ajralib qolishni xohlaydi va ushbu istak Mahadevning so'zi bilan qo'shilganda, kulguning nega "yuqumli"ligiga yana bir sabab topiladi. Hamda rahbar, jamoa boshi yoki oila patriarxi kabi dominant o'rindagilar yumordan ko'proq foydalanadi, ularga bo'y sunivchilardan. Shuning uchun barcha ishchilar rahbar kulganda kuladi. Bunday vaziyatlarda, aytib o'tadi Morreall, guruhning kulgusini boshqarish kuchni tekshirmoq vositasidir, guruhning xissiy holatini boshqarish yordamida. Demak, kulgu, insonning boshqa xulqiy jihatlari kabi, o'zgalarning xulqini o'zgartirish uchun rivojlangan, deydi Provayn. Masalan, uyatli yoki xavfli vaziyatlarda kulgu yarashtiruvchi ishora yoki jahlni bosish yo'li sifatida xizmat qilishi mumkin. Xavf ko'rsatayotgan shaxs kulguga qo'shilsa, ziddiyat sodir bo'lish darajasi pasayadi.

Kulguni psixologik o'rganish o'z nomiga ega - gelotologiya. Hech kimga sir emaski, miyaning ma'lum bir qismlari ma'lum bir ish-harakatlarga javobgar. Misol uchun, emotsional javoblarni miyaning eng katta bo'lagi - bosh miya old qismida joylashgan lob (frontal lobe) beradi. Ammo kulgu produksiyasi miyaning ko'plab boshqa qismlari ishtiroki bilan amalga oshadi. Kulgu va miya o'rtasida munosabat butunlay tushunilmagan bo'lsada, tadqiqotchilar bir nuqtada to'xtab qolishgani yo'q.

Inson miyasi bugungi kunga kelib ham hali to'liq o'rganilmagan. Bu uning qay darajada murakkabligiga dalolat. Shunga qaramay, azaldan hajviya, kulgu va inson to'g'risida isbot talab qilmaydigan xulosalar chiqarilgan. Odamga kulgili tuyulgan va kulgusini keltirgan hazil, gap, vaziyatlar uning millati, dini, yoshi, hayotiy tajribasi, ruhiy holati, intellekti kabi faktorlar asosida ham yuzaga keladi. Vaqt o'tishi bilan inson ulg'ayadi. Bolalikdagi mantiqsiz tushunarsizliklar asta-sekinlik bilan ma'lum bir ko'rinish, ma'noga ega bo'ladi. Natijada inson hayotida hajviya ko'payadi. Biroq kim ko'proq kulishi-kattalarmi yo bolalarmi, aniqlash biroz mushkul. Chunki bolalar beg'ubor,

qiziquvchan va quvonchga to'la bo'ladi. Yoshi kattalar esa, odatda, infant bo'lmasada, ular uchun ham kulishga sabab topiladi.

Yuqorida aytib o'tilgandek, hajviya to'g'ridan-to'g'ri odam ongi va ruhiyatiga bo'g'liq. Jumladan, inson nimadan kulishi uning sa'viyasining aksidir. Nodon va bilimsiz, ko'pincha noo'rin holatlarda, xunuk, achinarli yoki behayo narsadan kuladi. Undan uncha farq qilmaydigan esa uning qah-qahasiga ergashadi. Bunday odamlarning hattoki kulgusi ham yoqimsiz. Kamtar inson o'ylab gapirganidek, har qanday gap-so'z yoki voqeadan baralla ovozda, baqirib kulmaydi.

Kulgu xursandchilik, ko'ngil to'qligidan yuzaga kelishi yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan a'yon. Biroq bunday xissiyotlarni boshqa inson tanazzuli, muvafaqqiyatsizligi, fojiasi ham keltiradi. Birovning baxtsizligi boshqaning xursandchiligi. Xasaddan odam qo'rqqoqligini ham ko'rsatadi: ikkiyuzlamachilik bilan xasad qilayotgan inson bilan do'stona munosabatda bo'lib, uning orqasidan g'iybat qiladi, yolg'on tarqatib, o'sha insonga pinhona zulm qiladi. Aksariyat hollarda, olamon yolg'on va g'iybatga ishonadi va oylab, yillab aybsiz insonga arzimagan muomalasini ko'rsatadi. Xasadgo'y o'z kamchilik, nuqsonlarini anglash, to'g'rilash o'rniga undan kuchliroq, aqlliyoqqa jabr keltiradi, ustunroq bo'lmasi uchun. Aybsiz ruhan sinadi, chunki unga qarshilar soni ziyoda va bir inson oqimga qarshi suzishi juda mushkul. Xasad qilayotgan tanqid emas mazah qiladi va shundan zavqlanib kuladi. Unga esa, albatta, yonidagi nodonlar qo'shiladi.

Joshua Barajas PBS vebseytida kino - film, multfilmlardagi yovuz kulgu haqida yozib o'tgan. "Kulgu dahshatli filmlarda qo'l kelishiga sabab, Siz tushkun va og'ir vaziyatda bo'lsangiz har qanday kulgu yovuzlikni qo'llab-quvvatlaydi," - ta'kidlagan horror, qo'rqinchili kinolar tarixchisi va muallifi Tananarive Dua. "Bu mos kelmas reaksiya".

DC tanlovi 115 barcha yosh, uslub va oktava arizalariga ega bo'ldi. Ularni eshitib, deyarli har qanday kulgu to'g'ri bo'lishi mumkinligiga amin bo'linadi. "Agar Siz qorong'u joy - chordoq, o'rmon, bola ko'rmaydigan istagan yeringizga yo'l olsangiz, - "bola kulgusi Sizni karaxt qiladi", - aytadi D'yu, Los-Anjeles Kaliforniya universitetida Afrofuturizmdan dars beruvchi. Hattoki eng yovuz, yurakni qinidan chiqaruvchi vahimali kulgu, qo'rqinchili kinolarga xos, kimdir Sizning ustringizdan kulayotganiga ishora qiladi, deydi D'yu.

“Ular qopqonga chorlamaydi, Siz qopqonga tushib bo‘ldingiz”, - fikr yuritadi D’yu. “Kulishni boshlagan vaqtiga kelgach, ularning ishi juda yaxshi, Sizniki juda yomon”.

Odamzot nimani kulguli deb hisoblashining o‘zi qiziq. Kichik bolakay ertak tinglab kulsa, boshqa odam kimningdir ahmoqligi, xatosi yoki nuqsonini mazah qiladi. Ba’zilar esa birovning o‘limi ustidan ham kula oladi. Inson fe’l-atvori, ilm darajasi, farosatini bilish maqsadida u nimaning ustidan va kimning ustidan kulashiga e’tibor bermoq kifoya. Yaxshi hazil odam kulgusini qistaydi. Qattiq asabiylashayotgan, xavotir va bezovta ham hech qanday sababsiz kulishi mumkin. Achchiqlangan istehzo bilan kulishi mumkin. Ya’ni kulgu xolis ijobiy xissiyot, ijobiy vaziyatlarda bo‘lmaydi. Insoniyat uchun miya o‘ta murakkab va hanuz yechilmagan jumboq bo‘lganidek, insonning o‘zi ham bir talay savollar tug‘diradi. Yaxshi hazil vaziyatni yengillashtirish, erkinlik va sokinlik berish xususiyatlariga ega. Asabiylashayotgan odam, aynan, shuni deb sababsiz kuladi - psixika tinchlanish yo‘llarini qidiradi. Yolg‘iz va g‘amgin odamlar, odatda, boshqalardan ko‘proq va uzunroq kuladi, chunki ularga ana shu erkinlik, sokinlik, quvonch yetishmaydi. Bolalar bor yerda shovqin-suron bilan soddalik, yengillik bor. Buyuk rus faylasuf-yozuvchisi Fyodor Dostoyevskiy: “Ruh bolalar bilan bo‘lish orqali tuzaladi” degan.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, hajviyaning omili kulgudir va har ikkisning turlari ko‘p. Ular odamzot hayoti va ongining ajralmas, muhim qismidir. O‘rganish va tadqiqotlar davom etmoqda va har bir kashfiyot yangi bir yutuqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Linguistics and Anthropology” bo‘limi, 2012, “Philosophy of Linguistics”, William O. Beeman.
2. “How stuff works”, Marshall Brein.
3. “The scary ting about evil laughs”. 28.10.2021. PBS vebsayti.

ADABIYOTNING ERKIN NAFASI: VOHIDOVNING IJODIY MANZARALARI

Durdona Rahmatullayeva,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Xalqaro jurnalistika yoʻnalishi

indonez-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola Erkin Vohidovning hayoti, ijodi va faoliyatini yoritishga bagʻishlangan. Tadqiqotda shoirning yoshlik davridan boshlab, taʼlim olishi, ijodiy yoʻlining bosqichma-bosqich rivojlanishi, dramaturgiya va tarjimonlikdagi yutuqlari tahlil qilinadi. Maqola davomida Vohidovning asarlari, dostonlari va tarjimalari oʻzbek adabiyotidagi oʻrni, shuningdek, uning milliy madaniyat va maʼnaviy qadriyatlarni mustahkamlashdagi hissasi yoritiladi. Tadqiqotda hujjatli tahlil, adabiyotshunoslik yondashuvi va solishtirma metodlardan foydalanilgan. Natijalar shuni koʻrsatadiki, Erkin Vohidovning ijodi nafaqat oʻz davrida, balki keyingi avlodlar uchun ham ilhom manbai boʻlib qolmoqda.

Kalit soʻzlar: Erkin Vohidov, oʻzbek adabiyoti, sheʼriyat, dramaturgiya, tarjimonlik, milliy madaniyat, insonparvarlik, “Faust” tarjimasi, “Nido” dostoni, “Oltin devor”, yoshlik ijodi, adabiy meros.

Аннотация: Данная статья посвящена жизни, творчеству и деятельности Эркина Вахидова. В исследовании анализируются этапы его творческого пути начиная с юношеских лет, получения образования, а также достижения в области драматургии и переводческой деятельности. В ходе статьи освещается значение произведений, поэм и переводов поэта в узбекской литературе, а также его вклад в укрепление национальной культуры и духовных ценностей. В исследовании использованы методы документального анализа, литературоведческого подхода и сравнительного анализа. Полученные результаты свидетельствуют о том, что творчество Эркина Вахидова остаётся источником вдохновения не только для его современников, но и для будущих поколений.

Ключевые слова: Эркин Вахидов, узбекская литература, поэзия, драматургия, переводческая деятельность, национальная культура, гуманизм, перевод “Фауста”, поэма “Нидо”, “Золотая стена”, раннее творчество, литературное наследие.

Abstract: This article discusses the life, art and work of Erkin Vokhidov. The research analyses his education, the way he got into art step by step, dramaturgy and his achievements as a translator starting from his youth. The article shows the impact of Vokhidov’s work, sagas and translations on Uzbek literature and his role in maintaining national cultural and moral traditions. Documental analysis, literary approach and comparing methods are used in the research. The results indicate that the art of Erkin Vokhidov is a source of inspiration to not only generation at the time, but also to many other future ones.

Key words: Erkin Vokhidov, Uzbek literature, poetry, dramaturgy, translation, national culture, humanity, translation of “Faust”, saga “Nido”, “Oltin devor”, works when he was young, literary legacy.

Erkin Vohidov – adabiyotimizning yuksak siymosi. O‘zbek she’riyatining eng yirik namoyandalaridan biri bo‘lmish Erkin Vohidov o‘zining lirik va epik asarlari, dramaturgik ijodi hamda tarjimalari orqali adabiyotimizni boyitgan ijodkorlardan biridir (Qosimov, 2010). Uning ijodida insonparvarlik, milliy o‘zlik va ma’naviy barkamollik mavzulari yetakchilik qiladi. Shoir nafaqat she’riyat, balki dramaturgiya va tarjimonlik sohasida ham o‘zining katta hissasini qo‘shgan.

Bolaligi va ta’lim olishi. Erkin Vohidov 1936-yil 28-dekabrda Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumanida tug‘ilgan. Uning bolaligi og‘ir kechdi: otasi Ikkinchi jahon urushidan og‘ir jarohat olib qaytib, 1945-yilda vafot etgan, oradan bir yil o‘tib esa onasi ham olamdan o‘tgan (O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2005). Shundan so‘ng, yosh Erkin Toshkentda yashovchi tog‘asi Karimboy Sohiboev qo‘lida tarbiyalangan. Toshkentga kelishi uning ta’lim va ijodiy rivojlanishida muhim qadam bo‘ldi. U Toshkent davlat universitetining o‘zbek filologiyasi fakultetida tahsil oldi. Talabalik yillarida adabiyotga bo‘lgan qiziqishi yanada ortdi (Karimov, 2008).

Ijodiy faoliyati. Erkin Vohidovning ijodi 1960-yillardan boshlab faollashdi. Uning ilk she’riy to‘plami Tong nafasi 1961-yilda chop etilgan

bo‘lib, shundan so‘ng Qo‘shiqlarim sizga (1962), Yurak va aql (1963), Mening yulduzim (1964) kabi to‘plamlari nashr etildi (Vohidov, 1981). Shoirning Nido dostoni urushning dahshatlari va insoniyatga keltirgan musibatlarini chuqur ifoda etgan bo‘lsa, Ruhlar isyoni dostonida millatlar va dinlar o‘rtasidagi nizolarning bashariyatga olib keladigan falokatlari tasvirlangan (Mirzaev, 2016). Uning asarlarida insonparvarlik g‘oyasi yetakchilik qiladi.

Dramaturgiya va tarjimonlik faoliyati. Erkin Vohidov dramaturgiya sohasida ham o‘zidan yorqin iz qoldirgan. Uning Oltin devor komediyasi uzoq yillar davomida o‘zbek teatri sahnasidan tushmadi va jahonning bir qator tillariga tarjima qilinib, turli teatrlarda namoyish etildi. Shuningdek, Istanbul fojiasi kabi dramalari ham tomoshabinlar e‘tiborini qozongan (Qosimov, 2010).

Shoirning tarjimonlik faoliyati ham alohida e‘tiborga loyiq. U rus shoiri Sergey Yeseninning she‘riy asarlarini va nemis adabiyotining buyuk asari Faustni o‘zbek tiliga tarjima qilgan (Yesenin, 2000; Gyote, 2005). Ayniqsa, Faust tarjimasi o‘zbek adabiyotida katta hodisa bo‘lib, bu asar shoir tomonidan mahorat bilan, o‘zbek tilining ohangdorligi va obrazlilik xususiyatlari saqlangan holda tarjima qilingan (Karimov, 2008).

Jamiyatdagi o‘rni va mukofotlari. Erkin Vohidov nafaqat shoir, balki jamoat arbobi sifatida ham faoliyat yuritgan. U Yoshlik jurnalining birinchi bosh muharriri sifatida yosh ijodkorlarning adabiyotga kirib kelishida katta hissa qo‘shgan (Karimov, 2008). Uning xizmatlari yuksak baholanib, Buyuk xizmatlari uchun ordeni va O‘zbekiston Qahramoni unvoni bilan taqdirlangan. Erkin Vohidov 2016-yil 30-may kuni 79 yoshida vafot etdi. Uning boy ijodiy merosi va insonparvarlik g‘oyalari xalqimiz qalbida mangu yashaydi (Mirzaev, 2016).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gyote, I.V. (2005). Faust (E. Vohidov tarjimasi). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
2. Karimov, M. (2008). O‘zbek she‘riyatining yuksak cho‘qqisi: Erkin Vohidov ijodi haqida, “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, №2.
3. Mirzaev, H. (2016). O‘zbek adabiyotida insonparvarlik g‘oyalari va Erkin Vohidov merosi. Toshkent: Akademnashr.

4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. (2005). Erkin Vohidov haqidagi maqola. Toshkent: O‘zME nashriyoti.
5. Qosimov, B. (2010). Erkin Vohidovning hayoti va ijodi. Toshkent: Fan nashriyoti.
Abdurauf Fitrating o'ziga xos, yuksak darajada mahoratli dramaturg ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Yigirmanchi yillarda Fitrat 20 ga yaqin drammlar yaratdi va e'tiborlisi o'sha yillarda barcha drammlari sahna yuzini ko'rdi. Bularning o'sha paytdagi madaniy hayotimizda ham katta ro'l o'ynaganini ko'rishimiz mumkin. Har bir yozilgan asarlari ham ,hech shubhasiz, tanqidlardan, muhokamalardan chetda qolib ketmagan. Bu asarlarni varoqlagan har bir shaxs tariximiz haqida ham, balki madaniy hayotimiz haqida ham keng mulohazaga ega bo'lardi. "Dunyoning eng boy, eng baxtsiz tili qanday tildir? Turkcha." Keyin esa muallif juda ko'p misollar bilan, Alisher Navoiyning "Muhokamatul lug'atayn" kabi asariga tayanib shunday turk tilining boyligini ko'rsatib beradi. Keyin esa nima uchun bu tilning "baxtsizligi"ni ochadi. Eng muhimi, bu tilning istiqboli haqida Fitrat umid va ishonch bilan qalam tebratadi, tilga g'amxo'rlikni el-u yurti sevishtan, vatanparvarlik bilan bog'laydi: "Turk ulusini sevamiz, lekin tili qabodir, musiqasi totsizdir, tarixi qorong'udir deganlarning ham bir-ikki tayoq yeb quvilmoqlari kerakdir" - deb Ozoda Sharafiddinov o'z maqolalarida shunday fikrlar bilan keltirib beradi. Bu fikrlardan ko'rinib turibdiki, Ozod Sharafiddinov ham o'z qarashlarida Fitratning qay darajada qalam tebratganligi, qay darajada o'z qalamining sohibi ekanligini. Adabiyotimiz uning juda ham rang barang bo'lgan meroslari bilan sayqallanib turadi.

Xulosa sifatida fikr yuritar ekanmiz, Fitratning hayoti va faoliyat-ijodi haqida O'zbekistonda, balkim xorijiy davlatlarda ham judaym keng darajada ilmiy tadqiqotlar yaratilib kelinmoqda. Bizning qarashlarimizdan shular ko'rinib turibdiki, 20-asrlarning boshlanishida Markaziy Osiyo ziyolilarining eng ko'zga ko'rinadigan, eng e'tirof etiladigan, juda ham ta'sir doirasi kuchli bo'lgan, oz qalami bilan barchada fikrlar uyg'ota olgan, o'z vatanini, tilini muqaddas bilgan, uni quzg'unlardan tozalash uchun harakat qilgan, eng jonkuyar jadidlarimizdan biri hisoblanadi. U o'sha davrning eng ilg'or jonkuyarlaridan shoir va Jurnalist siyosiy arbob va Turkiston jadidchiligining g'oyaviy yetakchilaridan biri sifatida tanilgan. Darhaqiqat, Fitrat matnshunos, manbashunos, tilshunos, lug'atshunos, adabiyotshunos, nazariyotchi sifatida

bir qancha ilmiy maqolalar yozib qalam tebratdi. Bu ilmiy merosda aks etgan ilmiy qarash, ilmiy fikrlarning aksariyati, bugungi davr tadqiqotlari uchun asos vazifasini o‘tab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 5 jildlik. (Nashr- ga tayyorlovchi: prof. H.Boltaboyev). Ma'naviyat, 2000-2008-yillar. Toshkent;
2. Aliyev A. Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat. Toshkent, 1991;
3. Boltaboyev H. Abdurauf Fitrat. Toshkent, 1992.
4. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
5. Qosimov B. Maslakdoshlar: Behbudiy, Ajziy, Fitrat. Toshkent: Sharq NMK, 1994.

XALQNI TARAQQIYPARVARLIKKA DA`VAT ETGAN JADID

Lobar Miraxmatova,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Xalqaro Jurnalistika yo‘nalishi

malay-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola milliy uyg‘onish harakatining yirik siyosatgo‘y rahnamosi sifatida tarixda nom qoldirgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning publisistik asarlariga nazar solgan holda, uning publisistikasida millat manfaatlari nechog‘lik ustuvor ekanligi, qay tarzda ifoda etilgani haqida bo‘lib, siyosatning o‘tkir nazariyotchisi qalamiga mansub ayrim asarlar misolida millat manfaatlariga taalluqli qarashlarini o‘rganib, tahlil qiladi va bundan tashqari, o‘quvchiga «Kitobi muntaxabi jug‘rofiyai umumiy va namunai jug‘rofiya» deya nomlanuvchi darsligi timsolida adib yashagan davrdagi boshqaruv usullari to‘g‘risida qiymati bebaho deb e’tirof etiladigan ma’lumotlarni yetkazib beradi.

Kalit soʻzlar: Millat, maʼrifiy taraqqiyot, alifbo darsligi, maktablar, maqola, geografiya, jadidchilik harakati.

Аннотация: Данная статья посвящена публицистическому наследию Махмудходжи Бехбудия — выдающегося политического деятеля и лидера движения национального возрождения, оставившего заметный след в истории. На основе анализа его публицистики раскрывается, насколько приоритетным для него были интересы нации и каким образом они находили отражение в его произведениях. Через примеры отдельных работ, принадлежащих перу острого политического теоретика, исследуются его взгляды на вопросы, связанные с судьбой народа. Кроме того, читателю представляются ценные сведения о формах управления той эпохи на примере учебника под названием «Китобӣ мунтахаби жуғрофиёи умумий ва намунаи жуғрофиё», который по праву считается бесценным источником своего времени.

Ключевые слова: Нация, развитие образования, алфавитный учебник, школы, движение, статья, география, революционное.

Abstract: This article looks at the journalistic works of Mahmudkhoja Behbudi, who left a name in history as a great political leader of the national revival movement, about how the interests of the nation are prioritized in his journalism, and how they are expressed. In the form of a textbook known as “General Geography” and “Exemplary Geography”, it provides invaluable information about the management methods of the period in which the writer lived.

Key words: Nation, educational development, alphabet textbook, schools, revolutionary, article, geography, movement.

Tarixan uzoq va mashaqqatli yoʻlni bosib oʻtgan millatimiz, xalqimiz hayotida Mahmudxoʻja Behbudiyning salmoqli hissasi bordir. Xususan, XX asrning 20-yillariga kelgach, xalqimizning "oʻzbek" deya rasman tan olinishi va nomlanishida adibning hissasi mavjuda ekanini eslamoq oʻrinli boʻladi.

Behbudiya publisist sifatida faoliyat olib borishdek juda yorqin qirra borligi uning oʻz umri mobaynida yuzlab maqolalar yozishga sabab boʻlgan. Shu oʻrinda adib jadidchilik harakatining tamal toshi boʻlgan maktab islohtiga qattiq kirishadi. Uning tashabbusi va gʻayrati bilan 1903-yil Samarqand atrofidagi Halvoyi (S.Siddiqiy), Rajabamin (A.Shakuriy)

qishloqlarida yangi maktablar tashkil qilindi. Shundan so'ng adib maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Keyinchalik esa, "Risolayi asbobi savod" "Risolayi jug'rofiyayi Rusiy" "Kitobatul atfol" "Amaliyoti Islom" "Tarixi Islom" kabi darsliklari paydo bo'ldi. Shu o'rinda Behbudiy Turkiston o'lkasida birinchi bo'lib Alifbo darsligini yaratadi va uni, "Risolayi asbobi savod" deb nomladi, bu asar tojik tilida. Muallif alifboni bosmadan chiqarishdan oldin bir yil davomida Abduqodir Shakuriy maktabida tajribadan o'tkazdi, alifboga ba'zi bir o'zgartirishlar kiritdi va 1905-yil Samarqandda bosmadan chiqardi. Bu haqida adib asar muqaddimasida quyidagilarni yozadi: Janobi fazilatpanoh maktabdorlar, muallimlar, shogirdlar murabbiylari, sizlarga murojaat va arz qilurman. Kaminaning "Asbobi savod" nomli ushbu risolasi shogirdlarning qisqa muddatda o'qish va yozishni o'zlashtirishlari uchun mo'ljallangan bo'lib bir necha bor sinovdan o'tkazilgandir. Siz, aziz muallimlar bizning "Asbobi savod" alifbo darsligimizdan ham foydalanishingizni so'raymiz. Alloh sizlarga yor bo'lsin.

Mahmudxo'jda Behbudiyning muhim darsliklaridan yana biri "Kitobat ul-atfol" dir. Ba'zi tadqiqotchilar ushbu darslikning nomlanishini "Bolalar uchun kitob" "Bolalar uchun yozuv kitobi" kabi shakllarda tarjima qiladilar. Bunday nomlanish muallif maqsadiga ham, kitobning mazmun mohiyatiga ham to'g'ri kelmaydi, chunki "kitobat" so'zi lug'atlarda "xat" "bitik" deb tarjima qilingan. Ushbu "Kitobatul atfol" darsligini "Bolalar maktublari" deb tarjima qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki kitobda bolalar rasmiy, norasmiy, xususiy xatlar yozishga o'rgatish, yozma nutqni o'stirish masalalari atroflicha tahlil qilingan, bolalarning turli mazmun va maqsadda yozilgan maktublaridan chiroyli namunalar berilgan. Mahmudxo'ja Behbudiy jadid mutafakkirlari kabi geografiya fanini o'qitish masalasiga alohida e'tibor bergan. Uning bu fanga oid "Muntaxabi jug'rofiyayi umumiy" darsligining to'liq nomi "Kitobi muntaxabi jug'rofiyayi umumiy va namunayi jug'rofiya" (Umumiy jug'rofiyadan saylanma kitob) den nomlanadi va u 1906-yilda Samarqandda G.I. Demurov matbaasida bosmadan chiqqan. Keyinchalik muallif geografiya fanining paydo bo'lishi tarixini "kurrayi musattaha"- globus, geografik xaritalarning yaratilish tarixi, geografiya ilmining muhim ahamiyati haqida batafsil to'xtaladi.

Adib XX asr boshida Turkistonning yirik siyosiy arbobi sifatida tanilishi bilan bir qatorda, millat va Vatan taqdiri haqidagi barcha qarashlari adibning

maqolalarida o'z ifodasini topdi. Milliy uyg'onish harakatining ulkan siyosiy rahnamosi sifatida maydonda o'zini ko'rsatgan Behbudiyni mutaxassislar «Turkiston jadidchilik harakatining boniysi», deya e'tirof etadilar. Shuning barobarida adibni «Murakkab va fojeali asrda yashab, o'zbek xalqining ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan»ini ham ta'kidlab o'tadilar. Behbudiy siyosat bobida o'tkir nazariyotchi va faol amaliyotchi ham bo'lganidan darak beruvchi tarixiy manbalar mavjud. Bu boradagi nazariy qarashlari va mulohazalarini adib qalami bilan dunyoga kelgan «Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy va namunai jug'rofiya» darsligi hamda «Duma va Turkiston musulmonlari», «Xayr ul-umuri avsatuho», «Muhtaram samarqandiylarg'a xolisona arz» singari nomlar ostida ommaga ma'lum bo'lgan maqolalarida o'z ifodasini topgan. Behbudiy siyosat bobida o'tkir nazariyotchi va faol amaliyotchi ham bo'lganidan darak beruvchi tarixiy manbalar mavjud. Bu boradagi nazariy qarashlari va mulohazalarini adib qalami bilan dunyoga kelgan «Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy va namunai jug'rofiya» darsligi hamda «Duma va Turkiston musulmonlari», «Xayr ul-umuri avsatuho», «Muhtaram samarqandiylarg'a xolisona arz» singari nomlar ostida ommaga ma'lum bo'lgan maqolalarida o'z ifodasini topgan.

Behbudiy maqolalarida millat va xalq uchun naqadar qayg'urganini yozishdan charchamadi. Siyosiy partiyalar haqida bildirgan fikrlari Vatan va millat manfaatini ko'zlagani, bugungi kun uchun ahamiyati yuqori bo'lganini ayni vaqtdagi mamlakatimizda ko'p partiyali tizimning real voqelikka aylanganidan ham bilish mumkin. Xususan, uning "Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy va namunai jug'rofiya" nomli darsligi davlat va millat taqdiriga nisbatan nechog'lik e'tiborli, jonkuyar bo'lganini bildiradi. Adib ushbu darsligida o'sha davrdagi boshqaruv usullari haqida qimmatbaho ma'lumotlarni bergan.

Behbudiyning har bir fikrlari, asar va maqolalari barcha zamonlar uchun munosib ahamiyatga ega deyishimiz mumkin. Zero, bugungi kunda mamlakatimiz bo'ylab amalga oshirilga va oshirilayotgan qator islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad ham ulug' millatparvar bobokalonimiz orzu qilganlaridek, davlat boshqaruvida har bir millat a'zosi, har bir fuqaro qatnasha oladigan mutaraqqiy barpo etishdan iboratdir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Mahmudxo‘ja Behbudiyning publisistik merosi millat va milliyat masalalari keng yoritilganligi jihatidan milliy o‘zlikni saqlash, milliy ma’rifatning yuksalishi kabi o‘lmas g‘oyalarni o‘zida mujassam etganligi bilan bugungi kunda ham alohida ahamiyatga ega. Adibning bu boradagi qarashlari o‘rganish zamonamiz yoshlari qalbida Vatan va millatga muhabbat tuyg‘usini kuchaytirishga, bu orqali mamlakatimiz kelajagining nurli bo‘lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jadidlar.Mahmudxo‘ja behbudiynashri risolasi.T:Yoshlar nashriyoti uyi, 2022.
2. Mahmudxo‘ja Behbudiynashri. Tanlangan asarlar. 3-nashri. (Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi B.Qosimov). Toshkent, — Ma’naviyat, 2006, 243-244-betlar.
3. Pardayev Q. O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotini o‘rganishda matbuotning o‘rni. -T: «Muharrir», 2012.
4. Qosimov B. Behbudiynashri «Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi haqida». «Jahon adabiyoti», 2003, 8-son, 146-156-betlar.
5. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. Toshkent, — Ma’naviyat, 2002, 217-bet.
6. O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotiga materiallar. (Nashrga tayyorlovchilar: B.Qosimov, U.Dolimov, N.Jabborov). Toshkent, «Universitet» nashriyoti, 2004.

MATNNI NASHRGA TAYYORLASH MADANIYATI. MUALLIF BILAN ISHLASH JARAYONI

Farangiz Po‘latova,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti
Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi
malay-ingliz guruhi talabasi

Anontatsiya: Ushbu maqolada matnni nashrga tayyorlash madaniyati, tahrir jarayonining asosiy bosqichlari va muallif bilan samarali ishlashda tamoyillari ko‘rib chiqiladi. Muharrir va muallif o‘zaro hamkorlikning sifati va o‘ziga xos jihati nashr uchun zarur bo‘lgan mezonlarni tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tilida matnni tahrirlash, nashrga tayyorlash, muallif bilan ishlash, matn madaniyati, muharrirlik san’ati, stilistika va tuzatish, nashriyot ishlari, matn tuzilishi, til me’yorlari, adabiy uslub.

Аннотация: В данной статье рассматриваются культура подготовки текста к публикации, основные этапы редакторского процесса и принципы эффективного взаимодействия с автором. Анализируются критерии, необходимые для издания, а также качество и особенности сотрудничества между редактором и автором.

Ключевые слова: редактирование текста на узбекском языке, подготовка к публикации, работа с автором, культура текста, искусство редактирования, стилистика и корректура, издательская деятельность, структура текста, языковые нормы, литературный стиль.

Abstract: This article analyses the culture of preparing text for publication, the main stages of editing and principles of productive work with author. Quality of collaboration between editor and author and its uniqueness, standards for publication are discussed.

Key words: editing text in Uzbek language, preparation for publication, working with author, culture of text, art of editing, stylistics and correction, publication works, structure of text, norms of language, publicistic style.

Matnni nashrga tayyorlash jarayoni faqat texnik tuzatishlarni o‘z ichiga olmagan holda, balkim muallif bilan hamkorlik qilish, uslubiy ishlov berish va matnni sifat jihatidan yuksaltirish talab etiladi. Bu jarayon muharrir, korrektor, dizayner va nashriyot xodimlari ishtirokida amalga oshadi. Matnni nashrga tayyorlash bosqichlari:

1. Matnni tahrirqilish;
2. Korrektura (matnnitekshirish);
3. Muallif bilan ishlash madaniyati;
4. Matnni sifatli tayyorlash va maslahatlar;

Matnni tahrir qilish jarayonida matnnining mazmuni, uslubi va grammatik jihatdan to'g'riligi ustida ishlashni o'z ichiga oladi. Bu tahrir jarayoni bir necha turga bo'linadi.

Mantiqiy tahrir – matnning mantiqiy yaxlitligini tekshirish, ortiqcha yoki tushunarsiz joylarini aniqlash va tuzatish.

Uslubiy tahrir – matnning uslubini yaxshilash, shu jumladan yanada aniq va tushunarli qilish.

Grammatik va orfografik tahrir - imlo, tinish belgilari va grammatik xatolarni tuzatish.

Korrektor tomonidan amalga oshiriladigan ishlar: grammatik va tinish belgilarini tekshirish; so'z iboralarini to'g'ri ishlatilishini nazorat qilish; sarlavha, havola va sanalarni tekshirish.

Dizayn va maker tayyorlash. Matn nashrga tayyor bo'lsa uning dizayner tomonidan bir necha xil usulda ishlov beriladi.

1. Sahifa tuzish rejalashtirish.
2. Shrift va ranglar uyg'unligini birlashtirish va tanlash.
3. Sarlavha va pragraf ajratish.

Yakuniy tekshiruv va chop etish jarayoni. Matn teshiruvi tugagach, nashr oldidan yakuniy tekshiruv amalga oshiriladi va nashrga yuboriladi yoki electron shaklda chop etiladi.

Muallif bilan ishlash madaniyati. Muallif bilan ishlashning o'z tamoyillari mavjud. Muallifning g'oyalari, fikri va uslubiga hurmat bilan yondashish. Muallifning fikrini inobatga olish va o'zaro kelishgan holda muhokama qilish.

Muloqot va maslahat berish.

1. Muallif bilan tahrir jarayonida doimiy aloqada bo'lish.
2. Tuzatishlarni tushuntirish va Muallif bilan kelishish Maxfiylik va Mualliflik huquqlarini saqlash.
3. Matnning maxfiyligini taminlash va nazoratga olish.
4. Muallif huquqiga rioya qilish.
5. Moslashuvchanlik.
6. Muallif uslubini o'zgarmaligiga harakat qilish.
7. Takliflarni samimiy tushuntirish va to'g'ri qabul qilish.
8. Matnni sifatli tayyorlash uchun maslahatlar.
9. Matnni bir necha marta o'qish.

10. Muhim joylarini bo‘rttirib ko‘rsatish yani sarlavha va asosiy fikrlarni ko‘zga ko‘rinadigan qilib belgilash.

11. Ko‘pchilikka tushunarli bo‘lishi uchun sodda va aniq ifodalardan foydalanish zarur.

12. Mutaxassislar yoki moharrir bilan birgalikda maslahatlashish.

Xulosa. Matnni nashrga tayyorlash nafaqat tahririy jaroyon emas balki matnni nashrga tayyorlash bu bir san‘at ham hisoblanadi. Asosan matnning ilmiy, badiiy va uslubiy va dizayn jihatlariga ham e‘tibor qaratiladi. Shu bilan birgalikda matnning shrift va ranglariga va yana muallif bilan ishlash jarayoniga muhim nazar tashlanadi. Bu barcha jarayonlar matnning sifatini oshiradi va o‘quvchilar uchun yanada qulay va tushunarli matn holatiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi matbuot va axborot agentligi (2022).
2. Nashr qilish me‘yorlari va talablari. Tashkent: Akademiya nashr.

MAQSUD SHAYXZODA: ADABIYOTNING ULUG` NAMOYONDASI

Sharifa Ro‘zmetova,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi

malay-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ozarboyjon va O‘zbek adabiyotida yorqin iz qoldirgan ulug` mutaffakir adabiyotshunos olim, tarjimon Maqsud Shayxzodaning sermashaqqat hayoti va sermazmun ijod yo‘li o‘zbek olimlarining ijodiy faoliyatida o‘ziga hos ilhom bag‘ishlaganligi haqida yoziladi.

Kalit so‘zlar. Dramaturg, adabiyotshunos, shoir, emotsional, ekspressiv, namoyondal, namoyanda, lingvopoet, vosita.

Аннотация: В данной статье рассматривается яркое наследие великого мыслителя, литературоведа и переводчика, оставившего глубокий след в азербайджанской и узбекской литературе, Максуда Шайхзода. Описание его трудного жизненного пути и многогранного творческого пути, который вдохновил узбекских ученых на их творческую деятельность.

Ключевые слова: Драматург, литературный критик, поэт, эмоциональный, экспрессивный, репрезентативный, представительный, лингвопоэт, медиум.

Abstract: This article discusses the life of the great literary critic, translator Maksud Sheikhzoda, who left a bright mark on the literature of Azerbaijan and Uzbekistan.

Keywords. Playwright, literary critic, poet, emotional, expressive, representative, representative, lingua poet, medium.

O‘zbek adabiyotining ulug` namoyandasi, mashhur shoir, dramaturg, adabiyotshunos olim va tarjimon Maqsud Shayxzoda o‘zbek adabiyotida o‘ziga hos yorqin iz qoldirgan. O‘zbek badiiy adabiyoti va adabiy tilimiz rivojida Maqsud Shayxzodaning shayxona ijod yo‘li alohida o‘ringa ega. Adib Shayxzodaning turli mavzularda yaratilgan she‘rlari va dramalarida o‘zbek tilining yashirin imkoniyatlari, til birliklarining o‘ziga xos nozik ma’nolar ifodalashda lingvopoetik xususiyatlari, jozibasi, bo‘yoqdorligi, ifodaliligi, emotsional-ekspressivligi turli til vositalari yordamida namoyon bo‘ladi. Ijodida betakror tasvirlarni yuzaga keltiruvchi hamda asarlari tilining badiiyatini ta’minlovchi lingvopoetik vositalardan o‘rinli va unumli foydalanganligi uning so‘z qo‘llashda yuksak mahorat sohibi ekanligidan dalolat beradi.

Ozarbayjon va o‘zbek xalqining sevimli adibi Maqsud Shayxzoda dramaturgiya maktabi asoschilaridan biridir. N.Karimov adib haqida shunday yozadi: “Maqsud Shayxzoda nomi yodga olinganda tasavvurimizda ulug‘vor, olijanob, ayni paytda, samimiy, mehnatsevar, har qanday sharoitda ham xushchaqchaq insonning nuroniy siymosi paydo bo‘ladi. Shoirdan bizga lirik poemalar, falsafiy mushohadaga boy manzumalar, ruboiylar, ballada, dostonlar, yetuk dramatik asarlar, publitsistik maqolalar meros bo‘lib qoldi” . Aytish zarurki xurmatli ustoz Na'im Karimov o‘zining adib hayot va ijodiy

faoliyatining qizg'in, maroqli, ziddiyatlarga boy achinarli, ammo sharaflı damlarini mashhur adabiyot darg'alari hikoyalari orqali yuksak ehtirom bilan "Maqsud Shayxzoda" nomli ma'naviy-ma'rifiy biografik romanida aks ettiradi. Ulug' adib Shayxzodaning ijod sarlavhalarini tadqiq etgan ko'plab tadqiqotchilar masalan, I.G'afurov, O.Sharafiddinov, B.Qosimov, A.Kattabekov, S.Mirvaliyev, S.Mirzayev, S.Shermammedov kabi o'zbek adabiyotshunoslari o'rgandilar va ilmiy jarayonlarda o'ziga hos qirralarini ochishga harakat qildilar desak mubolag'a bo'lmaydi.

Iste'dodli dramaturg 1960 yilda yozgan «Mirzo Ulug'bek» tragediyasida buyuk o'zbek munajjimi va ma'rifatparvar podshosi obrazini yaratadi. Shayxzodaning so'zga muhabbati va ehtiromi o'zgacha. Bu ehtiromni tasvirlamoq uchun so'zlarga shayxona yo'l ko'rsatadi, ularning chinakam mo'jiza ko'rsatishlari uchun imkon yaratadi, ma'nan va mantiqan "ko'zi ochilgan" so'zlar, g'aroyib mo'jizalar yaratadi. Keyinchalik, Ozarbayjonda X.Rizo "Maqsud Shayxzodaning badiiy mahorati" (1980-yil) nomli kitobi chop etiladi. Adib ijodi 2000-yildan qardosh turk xalqi darg'alari H.Bargan, Yo.Okpinarlar e'tiborini ham ohangrabodek o'ziga tortdi. E'tiborlisi, turk olimi Shuayib Qoraqoshning dramaturg hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqoti jahonda o'rganilgan so'nggi ishlardandir. Bunda adibning bolalik, o'spirinlik yillari, Ozarbayjon va Toshkent manzaralari, ijodidagi "Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek" dramalarining o'ziga xos shaklda tadqiq etilgan. Babahan Muhammad Sharif "Maqsud Shayxzoda shoir, dramaturg, tadqiqotchi" nomli maqolasida adibning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi drama, sahna tojiga aylangani, voqealar rivoji, kompozitsiyalardagi hayajon va g'oyalarni o'zida mujassam etgan olovli misralar, tilining o'ziga xos va ravonligi iste'dodli dramaturg ekanligini ta'kidlaydi. Adib mard inson sifatida "Jaloliddin Manguberdi" dramasini yaratdi va bu fojialar orqali keng ma'noda "o'zbek Shekspiri" unvoniga sazovor bo'ldi. Adib tavalludining 112 yilligiga bag'ishlangan Toshkent davlat transport universitetida o'tkazilgan "Maqsud Shayxzodaning adabiy merosi va zamonaviylik" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ijodkorning adabiy merosini o'rganishdagi ishlarning nufuzini yanada oshirdi. J.Jovliyev matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishidagi "Maqsud Shayxzoda asarlari qo'lyozmalarining matniy-qiyosiy tadqiqi" nomli nomzodlik dissertatsiyasida ijodiy faoliyati nashrlari, xususan, "Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek" dramalarining variantlari bilan

nashr nusxalari materiallarining mushtarak va farqli jihatlarini aniqlash, dramalardagi mafkuraviy talab bilan tushirib qoldirilgan o‘rinlar fojia matnlarida qayta tiklanganligi, birgina “Jaloliddin Manguberdi” dramasiining 6 ta nusxasi mavjudligi, adibning fanga ma’lum bo‘lmagan “Navoiy” opera-librettosi topilgani, Maqsud Shayxzodaning Toshkentga kelgunga qadar Ozarbayjonda 1920-yilda yozilgan “Istiqlol” poemasi topilgani va bu adib ijodining ilk davridagi qimmatli ilmiy ma’lumotlar ekanligi tadqiqot ishida alohida yoritilgan. Maqsud Shayxzoda “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasini yozish uchun 20 yildan ortiq izlanadi. XV asrda yaratilgan temuriylar, Ulug‘bek davri aks ettirilgan manbalar, Sharafiddin Ali Yazdiy, A.Samarqandiy, M.Isfizoriy, Mirxond, Xondamir, Bobur, Z.Vosifiy asarlari, shuningdek, V.V.Bartold, E.Bertels, Yu.Yakubovskiy, o‘zbek olimi Qori Niyoziy, eron, turk tarixchilarining asarlarini sinchiklab o‘rganadi, Ulug‘bek haqida maqolalar yozadi. Ehtimol, Navoiy ijodini tadqiq etish jarayonida (1939-1967) “Farhod va Shirin” xamsasidan o‘rin olgan Ulug‘bek madhetilgan baytlar tahlilidan so‘ng, adibda shoh, olimga nisbatan ijodiy muhabbat shu davrlarda uyg‘ongandir balki. Shayxzodaning o‘zbek adabiyoti tarixi, o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasida yaratilgan ijodiy ishlari ham tahsinga sazovordir. Shayxzoda asarlari qardosh xalqlar va xorijiy tillarga tarjima qilinib, jahon adabiyoti namoyondalarining mahorat maktabidan ta’lim olgan ilg‘or an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan she’rlar yozgan. Ulug‘ shoir xotirasi o‘zbek adabiyoti sahifalarida doimo xurmat bilan tilga olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Şuayip Karakaş. Maksud Şeyxzase ve Mirza Uluğbek piyesi.
2. Türkiyat türklük bilimi araştırmaları dergisi, Güz, 2010 sayı. 7. – S. 13-64.
3. Babahan Muhammed Şeri f. Maksut Şeyhzade Şair, ramaturg ve Araştırmacı.
Kardeş Kalemler, 2019 sayı. 149.
4. Maqsud Shayxzodaning adabiy merosi va zamonaviylik. Xalqaro ilmiy – amaliyanjuman maqolalari to‘plami. – Toshkent, 2020. – 173 b.

ZULFIYAXONIM: O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI SADOQAT VA ILHOM TIMSOLI

Farangis Sodiqova,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi

malay-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zulfiyaxonimning ijodi va uning o‘zbek adabiyotidagi qoldirgan o‘rni tahlil qilinadi. Shoiraning asarlari vatanga bo‘lgan muhabbat, o‘zbek ayolining oilaparvarligi, insoniylik, ayolning sabrliligi mavzulari asosida asosida o‘rganiladi. Tadqiqot davomida shoiraning she‘rlari poetik tarzda tahlil qilinib, o‘ziga xos badiiy uslubi yoritiladi. Zulfiyaxonimning ijodining bugungi avlod uchun ahamiyati ham ko‘rib chiqilib, uning merosi o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni bilan izohlanadi. Maqola shoiraning ijodini chuqurroq o‘rganish va uning merosini batafsilroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Poetik tahlil, ayol obrazi, ijodiy meros, badiiy uslub, o‘zbek adabiyoti, muhabbat, go‘zallik.

Abstract: This article delves into the literary contributions of Zulfiyakhonim, highlighting her enduring influence on Uzbek literature. Her poetic works serve as a testament to patriotism, familial devotion, humanism and the patience of women. Through an in-depth poetic analysis, the study explores the distinct artistic style that defines her poetry. Additionally, the research examines the relevance of Zulfiyakhonim’s legacy heritage in the contemporary era, shedding light on the lasting impact of her works within Uzbek literature. By offering a comprehensive exploration of her creative legacy, this article aims to deepen the appreciation of her artistry and the cultural significance of her poetry.

Keywords: Poetic analysis, female representation, literary heritage, artistic expression, Uzbek literature, patriotism, beauty.

O'zbek adabiyotida o'zining betakror hissiyotlari va go'zal she'rlari bilan ajralib turadigan ijodkorlardan biri Zulfiyaxonim haqida so'z yuritamiz. Zulfiyaxonim asarlari sadoqatlik, muhabbat, vatanparvarlik va ayolning jamiyatdagi o'rnini aks ettirishi bilan farqlidir. Shoir o'zining go'zal ifoda shakli va nafis fikrlari bilan nafaqat o'z davrining, balki bugungi kitobxonlar orasida ham diqqatga sazovor ijodkor bo'lib kelmoqda.

Zulfiyaxonim o'zbek adabiyotidagi bahor timsolidir. Bizga bahor faslidagidek iliqlikni o'z hissiyot va kechinmalarini go'zal she'rlari bilan ifoda bera olgan shoiramiz XX asr boshlarida Toshkent shahrida dunyoga keldi. Bolalik chog'laridayoq she'riyatga mehr qo'ygan va o'zining ilk she'rlarini yoshligida yozishni boshlagan. U nafaqat shoirlik, balki rassomchilik bilan ham shug'ullangan. Bilim olishni boshlang'ich maktabdan boshlab, keyinchalik xotin-qizlar bilim yurtida ettirgan. 15-18 yoshlarida O'zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutini aspiranturasida o'qigan. U hayotining ajoyib va esda qolarli davrlarini "Saodat" nomli xotin-qizlar jurnalida bosh muharrir sifatida o'tkazgan. Shoir o'zining she'rlarida vataniga bo'lgan muhabbatini aks ettirardi. Buning yaqqol namoyondasi bo'lgan "Vatan" she'rini hozir poetik tahlil qilib ko'ramiz. "Vatan" she'ri o'zining nomidan ma'lum bo'lganidek, ona yurtga bo'lgan muhabbat, fidoyilik va mehrni tarannum etadi. Zulfiya bu she'rida vatanni nafaqat bir geografik hudud balki insonning kindik qoni to'kilgan joy, ikkinchi ona, yuragi va qalbi bilan bo'liq muqaddas makon sifatida tasvirlaydi. Asosiy g'oya - vatanga bo'lgan betakror muhabbat va hurmatni ko'rsatish, vatan uchun xizmat qilish, uni asrash-avaylash zarurligini ta'kidlashdir.

Shoir she'riyatda quyidagi badiiy vositalarda foydalangan:

1. "Tashbeh va metaforalar"- Shoir Vatanni ona timsolida tasvirlab, uni mehribon, saxovatli va go'zal sifatida taqdim etadi.
2. "Jonlantirish" – She'rda vatan jonli mavjudot sifatida tasvirlaydi va insoniy tuyg'ular bilan boyitadi.
3. "Emotsional ohang" – She'rda yurakdan chiqadigan samimiy va ilhomlantiruvchi ruhda yozilgan.
4. "She'ring shakliy xususiyatlari" – She'r lirik janrda yozilgan bo'lib, qofiyalanish va ritm jihatidan ohangdor va ta'sirchan chiqqan.

Ushbu she'r o'zbek adabiyotida katta ahamiyatga ega bo'lib, u milliy iftixor, g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otadi.

Mening Vatanim

Men shunda tug'ildim, ko'rdim dunyoni,
Hayotga ilk qadam men shunda.
Tilim nutq topdi, ko'klam xiyoni,
Mehr va ehson bilan yashadim kunda.

Zulfiyaxonim Isroilova va Hamid Olimjon bu ikki zabardast adabiyot vakillari nafaqat ijod balki hayot yo'llarini ham bir-biriga tayanch, o'zaro muhabbat va sadoqatni yuqori o'rinda tutgan. Ularning oilaviy hayoti faqat shaxsiy baxt timsoli emas, balki ijodiy birdamlikning yaqqol namunasi bo'lib qolgan. Ularning uchrashuvlari adabiyot maydonida sodir bo'ldi. Hamid Olimjon allaqachon mashhur shoir bo'ldib ulgurgan edi. U yosh ijodkor, ya'ni Zulfiyani darhol payqadi va unga o'z yordamlarini ayamadi. Hamid Olimjon Zulfiyaga shunchaki rafiqa emas, balki iste'dodli shoira, ijodiy hamkor va ilhom manbai sifatida qarardi. Ularning munosabatlari nafaqat oilaviy, balki ijodiy hamkorlik orqali ham mustahkam edi.

Zulfiyaxonim erishgan bir qancha mukofotlar bilan tanishamiz. 1970-yil "SSSR mukofoti", "Mehnat Qizil Bayroq" ordeni, "Do'stlik" ordeni, "O'zbekiston xalq shoiri", "Xalqaro tinchlik mukofoti" kabi yutuqlarda erishgan.

1944-yilda Hamid Olimjon fojiali tarzda vafot etganida, Zulfiya uning xotirasiga umrbod xiyonat qilmadi.

Shoira umrining so'ngigigacha Hamid Olimjonni sevib, uning nomini va asarlarini e'zozlab yashadi. U ko'plab she'rlarida turmush o'rtog'iga bo'lgan sog'inchi va sadoqatini ifodaladi. Uning quyidagi she'rlari bunga isbot bo'la oladi. "Sen yetishmasang", "Sensiz", "Hamidga", "Yana bahor keldi".

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Zulfiyaxonim ijodi bugungi avlod uchun adabiy va ma'naviy meros hamda ibrat maktabidir. Uning she'rlarida yoshlarga vatanga sadoqat, oilaga mehr, insoniylik va ezgulik tuyg'ularini singdiradi. Shoiraning asarlari orqali yoshlar ona tilini sevish, milliy qadriyatlarni hurmat qilish va ijodga intilish ruhida

tarbiyalanadilar. Shuning uchun ham Zulfiya ijodi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va kelajak avlodlar uchun muhim bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Zulfiyaning hayot va ijod yo'li".
2. Xurshida Hamroqulova, Qozoqboy Yo'ldosh - "Zulfiya she'riyat olamida".

BUYUK ADIB VA UNING O'LMAS IJODI

Ahror Ergashev,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti institute

Xalqaro jurnalistika yo'nalishi

malay-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk ingliz yozuvchisi Artur Konan Doylning hayoti va ijodi yoritib o'tilgan. Uning adabiyotga qo'shgan hissasi, ayniqsa, dunyoga mashhur detektiv qahramon Sherlok Xolms haqida batafsil ma'lumot bergan. Shuningdek, Doylning boshqa janrlardagi asarlari, xususan, ilmiy-fantastik kerminal va tarixiy romanlari haqida ham so'z yuritiladi. Maqolada yozuvchining mashhur asarlari va ularning tarjimalari keltirilgan. Doylning adabiyotga qo'shgan ulkan hissasi, shaxsiy hayoti va uning merosi bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolayotgani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Artur Konan Doyle, Sherlok Xolms, detektiv hikoyalar, ingliz adabiyoti, yo'qolgan dunyo, tarixiy romanlar, ilmiy-fantastika, Baskervillarning iti, tarjimalar, detektiv janri.

Аннотация: В данной статье освещаются жизнь и творчество великого английского писателя Артура Конан Дойла. Особое внимание уделено его вкладу в литературу и всемирно известному детективному

персонажу — Шерлоку Холмсу. Также рассматриваются произведения писателя в других жанрах, в частности, его научно-фантастические, криминальные и исторические романы. В статье приведены наиболее известные произведения Дойла и их переводы. Подчёркивается, что его литературное наследие, личная жизнь и вклад в мировую литературу остаются актуальными сегодня тоже.

Ключевые слова: Артур Конан Дойл, Шерлок Холмс, детективные рассказы, английская литература, окружающий мир, исторические романы, научная фантастика, «Собака Баскервилей», переводы, жанр детектива.

Abstract: This article discusses the life and art works of the great English writer Arthur Conan Doyle. It provides information regarding his impact on literature, Sherlock Holmes, in particular, who is a well-known detective character worldwide. Also, works of Doyle in other genres, such as science fiction criminal and historical novels are talked about. The article includes writer's popular works and their translations. It mentions Doyle's enormous contribution to literature, personal life and how his legacy is still relevant.

Key words: Arthur Conan Doyle, Sherlock Holmes, detective stories, English literature, the lost world, historical novels, science fiction, "The hound of the Baskervilles", translations, detective genre.

Sherlok Xolms dunyo adabiyotining eng mashhur obrazlaridan biri sanaladi. Konan Doylning asarlari ko'plab tillarga tarjima qilingan va o'zbek tilida ham keng o'qilgan. Ushbu maqolada uning asarlarining o'zbek tilidagi tarjimalari va ularning ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Dunyoda shunday yozuvchilar borki, ularning ijodi asrlar o'tsa ham eskirmaydi, avloddan-avlodga o'tib, o'z o'quvchilarini topaveradi. Ana shunday adiblardan biri – Artur Konan Doyl. U o'zining mashhur detektiv qahramoni Sherlok Xolms orqali nafaqat adabiyotda, balki jahon madaniyatida ham ulkan iz qoldirdi. Biroq Doyl faqatgina detektiv janr bilan cheklanmagan bo'lib, tarixiy, ilmiy-fantastik va sarguzasht romanlar yozish bilan ham shug'ullangan. Uning hayoti va ijodi haqida batafsil to'xtalib o'tamiz. Bolaligi va ta'lim olishi.

Artur Ignatius Konan Doyl 1859-yil 22-may kuni Shotlandiyaning Edinburg shahrida tug'ilgan. Uning oilasi san'at va adabiyot bilan

chambarchas bog‘liq bo‘lib, otasi Charlz Altamont Doyl rassom edi. Biroq otasining ichkilikka mukkasidan ketgani tufayli Artur asosan onasi tarbiyasida o‘sgan. Onasi Meri Doyl zukko ayol bo‘lib, o‘g‘lining adabiyotga bo‘lgan mehrini qo‘llab-quvvatlagan.

Yosh Doyl Edinburg universitetida tibbiyot bo‘yicha tahsil olgan (1876–1881). O‘qish davomida u hikoya yozishga ham qiziqib, ilk asarlarini nashr eta boshladi. O‘qishni tamomlagach, u shifokor sifatida ishladi, biroq yozuvchilik unga ko‘proq qiziq tuyulardi.

Sherlok Xolmsning yaratilishi 1887-yilda Konan Doylning "A Study in Scarlet" ("Qirmizi rangdagi tadqiq") nomli birinchi detektiv romani nashr etildi. Ushbu asar orqali dunyo Sherlok Xolms va doktor Uotson bilan tanishdi. Xolms prototipi sifatida Edinburg universitetidagi o‘qituvchilardan biri – professor Jozef Bell xizmat qilgan, u inson psixologiyasini o‘rganish va tafsilotlarni tahlil qilish qobiliyati bilan ajralib turgan.

Doyl Xolms haqidagi hikoyalarini davom ettirdi va ular tez orada juda mashhur bo‘lib ketdi. Sherlok Xolms – nafaqat adabiy qahramon, balki detektivlik san’atining ramziga aylandi. Uning mantiqiy tahlil qilish qobiliyati, ajoyib kuzatuvchanligi va murakkab jinoyatlarni yecha olishi o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otdi.

Sherlok Xolms haqidagi asosiy asarlar:

1. "A Study in Scarlet" (1887) – "Qirmizi rangdagi tadqiq".
2. "The Sign of the Four" (1890) – "To‘rtta belgisi".
3. "The Adventures of Sherlock Holmes" (1892) – "Sherlok Xolms sarguzashtlari".
4. "The Memoirs of Sherlock Holmes" (1893) – "Sherlok Xolms xotiralari".
5. "The Hound of the Baskervilles" (1902) – "Baskervillarning iti".
6. "The Return of Sherlock Holmes" (1905) – "Sherlok Xolmsning qaytishi".
7. "The Valley of Fear" (1915) – "Qo‘rquv vodiysi".
8. "His Last Bow" (1917) – "Uning oxirgi bukilishuvi".
9. "The Case-Book of Sherlock Holmes" (1927) – "Sherlok Xolmsning arxivi".

Biroq, Konan Doyl o‘zining detektiv hikoyalari bilan shuhrat qozongan bo‘lsa-da, u boshqa janrlarda ham samarali ijod qilgan.

Boshqa janrlardagi ijodi. Doyl tarixiy romanlar, ilmiy-fantastik asarlar va harbiy-tarixiy maqolalar yozgan. Uning "The Lost World" ("Yo‘qolgan dunyo") nomli ilmiy-fantastik romani professor Challenger haqidagi hikoyalar

turkumining bir qismi bo‘lib, hozirga qadar ommabopligicha qolmoqda. Doyl Birinchi jahon urushi davrida harbiy strategiyalar haqida kitoblar ham yozgan va bu sohada ham katta iz qoldirgan.

Asarlarning tarjimalari. Artur Konan Doylning asarlari butun dunyoga tarqalib, ko‘plab tillarga tarjima qilingan. O‘zbek tiliga ham uning mashhur hikoyalari tarjima qilingan va ularning aksariyati adabiyot ixlosmandlari tomonidan sevib o‘qilgan. Mashhur tarjimalardan ba’zilari:

1. "Sherlok Xolms sarguzashtlari".
2. "Baskervillarning iti".
3. "Qo‘rquv vodiysi".
4. "Yo‘qolgan dunyo".

Bu asarlar bugungi kunda ham kitob do‘konlari va kutubxonalarda o‘z o‘quvchilarini topmoqda.

Shaxsiy hayoti va vafoti. Konan Doyl shaxsiy hayotida ikki marta turmush qurgan. Uning birinchi rafiqasi Luiza Xokins sil kasalligidan vafot etganidan so‘ng, u Jin Lekki bilan turmush qurgan. U 1930-yil 7-iyul kuni yurak xurujidan vafot etdi. Uning qabri Angliyadagi Minsted qishlog‘ida joylashgan.

Xulosa. Artur Konan Doyl – jahon adabiyoti tarixida o‘chmas iz qoldirgan yozuvchi. Uning asarlari, ayniqsa Sherlok Xolms haqidagi hikoyalari, hozirgacha eng mashhur detektiv hikoyalardan biri bo‘lib qolmoqda. Doylning ijodi nafaqat adabiyotga, balki kino, teatr va san’atning boshqa sohalariga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning kitoblari va obrazlari hanuzgacha inson mantiqiy tafakkuri va kuzatuvchanlik qobiliyatining ramzi sifatida qadrlanadi.

KITOB BILAN BUYUKLIK SARI YO‘L!

Muslima Mo‘ydinova,
Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti
Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti
Xalqaro Jurnalistika yo‘nalishi
malay-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kitobxonlikni yanada oshirish, jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk shaxslar, hamda ularning qoldirgan meroslari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Turkiston jadid ziyolilari, taraqqiyot uchun kurash, ilm - ma'rifat, axborot asri, oynai jahon.

Аннотация: В данной статье рассматривается повышение уровня чтения, а также великие личности, которые внесли огромный вклад в развитие общества, и их оставленное наследие.

Ключевые слова: современная интеллигенция Туркестана, борьба за развитие, наука-просвещение, информационный век, зеркальный мир.

Abstract: This article discusses the great figures who have made a significant contribution to the further development of reading, the development of society, and their legacy.

Keywords: New Turkestan intellectuals, struggle for development, science - enlightenment, information age, mirror of the world.

O'ninchi asrning atoqli musulmon olimlaridan biri bo'lmish andalusiyalik Ibn Rushd umri davomida faqat ikki kecha kitob o'qimagan ekan: biri uylangan chog'ida bo'lsa, yana biri otasi vafot etgan kechada. Tobeinlardan Urva Ibn Zubayra roziyallohu anhu hayotida bir marta kitob (Qur'on) o'qishni tark qilgan. Qorason boshlangan oyog'i ta'siridan xushini yo'qotgan va shu sababli kitob o'qiy olmay qolgan. Bular o'tmishda kitobga bo'lgan munosabatning ajoyib manzaralari edi. Yigirmanchi asr boshlariga kelib Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi shaharlarida o'nlab jadid usulidagi maktablar ochildi. Bu maktablarda yoshlarni bilimli va ma'rifatli qilib tarbiyalash, ular orqali Turkistonda mustaqil davlat barpo etish uchun milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surgan. O'sha yillarda Turkistonda jadid ziyolilarining avlodi, mamlakatimiz ma'naviy-ma'rifiy soha taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan namoyondalari vujudga keldi. Bulardan Muhammad Xo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar edi. Ular bizga nafaqat maktab, ko'plab asarlar, yosh avlodlarga o'rnak bo'la olgan, vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik harakatlarining

rivojlanishiga katta hissa qo'shgan shaxslar hisoblanadi. Shu bilan birgalikda taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Kitob o'qishni bilganlar xalq ichida obro'li sanalar va qattiq hurmat qilinar edi. Lekin ana shunday kitobxon xalqning vorislari hozir deyarli kitob o'qimay qo'ygani achinarli.

"Axborot asri", "texnologiya zamoni", "vaqtning yetishmasligi" degan bahonalar bilan kitob o'qishga toqatimiz yetmay qoldi, go'yo... Oladigan ma'lumotlarimiz internetdagi, ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa va uzoq-yuluq xabar - dalillardan iborat, holos. Bu esa aytish mumkinki, millatning saviyasi, dunyoqarashi, fikriy salohiyatining o'tmaslashuviga olib kelyapti. Ayniqsa, yoshlarning qiziqishlar va ilmiy bilimlari tobora sayozlashib bormoqda. Ularning "bilimdonlik doirasi" sport va san'at, ommaviy madaniyat chegaralaridan nariga o'tolmayapti. Biz doim hotirjammiz, go'yo hech narsa bo'lmayotganday butun hayotimizni, vaqtimizni, aql - idrokimizni o'rab olgan qo'l telefoniga yoki "oynai jahon" ga termuganimiz-termulgan. Bu bilan ishlarimiz kabi qiziqishlarimiz doirasi ham tobora torayib bormoqda. Dunyo-yu oxiratimizga mutlaqo foydasi tegmaydigan, faqta nafsimizni semirtiradigan hamma narsaga qiziqamiz. Ularga oid ma'lumotlarni erinmay o'rganamiz, hatto qanchalar befoyda ma'lumotlarni yodlab olamiz. Ammo ikki dunyo saodatiga eltuvchi bilim va ma'lumotlarni o'rganishga vaqtimizni qizg'onamiz. Bizga dahlsiz bo'lgan madaniyatlarni o'rganib unga taqlid qilamiz, ammo o'zi dinimiz, madaniyatimiz, tariximizni o'rganish yo'lida sabr toqatimiz yetmaydi. Ibrohim Xaqqiy rohimahullohning go'zal satrlari bor edi:

Oz ye, oz uhla, oz ich,
Tan tubanligidan kech.
Dil gulshaniga kel, ko'ch.
Ko'ramiz, Mavlom naylar,
Naylarsa, go'zal aylar.

Inson bu dunyoga faqat yeb-ichish, rohatda yashash, yaxshi kiyinish, moldunyo topish uchun kelmaydi. Inson shaxsiy kamoloti, fikri va dunyoqarashining kengligi, bilimdonligi va axloqi bilan saralanadi, dovrug'

qozonadi. Shunday kishilar borki, ular nafaqat o'zlarini ustida ishlab, juda katta ilmni, ma'rifatni mustaqil qo'lga kiritishgan. Bularning barini ular majburlikdan yoki obro' topishni o'ylashmagan. O'zining kamolga erishuvchi, ilmi, saviyasining oshishi uchun, kelajak avlodlarga ham o'rnak tarzida ularning vatanparvar, ma'rifatparvar ruhida kamol topishlari uchun jon dildan harakat qilib o'rganishgan. Hamma narsa maktab, oliy o'quv yurtlarida o'rgatilavermaydi, bularni inson kamol topishi, dunyoqarashi kengayishi uchun xolis va mustaqil o'rganadi. Kitob o'qimagan xalq joxillikka mahkumdur. Ilmga intilmagan, ruhiyatini boyitishga loqayd qaragan millatning farzandlari o'zligini, erkini, madaniyatini boy berishi muqarrar. Mazhabboshimiz Abu Hanifa shunday deganlar:

"Ulamolar hayoti haqidagi qissalar men uchun ayrim fiqhiy masalalardan ko'ra suyuqliroqdir. Chunki unda olimlar odobi va go'zal xulqlari hikoya qilinadi". Yana bir zamondosh olimning ushbu gaplari ham kishini o'qishga va sog'lom fikrlashga undaydi: "Qissalar tarbiya uchun eng qulay qo'llanmadir. Qissalar himmatni jo'shtirib, oliy qiluvchi kuch bor. Qissalar ovozsiz mohir murabbiydir. Ular orqali olam kezasiz, moziyga sayohat qilasiz. Buning yaqqol misoli o'z umrini islom dinining sofligi va ilm-ma'rifatga bag'ishlagan ulug' shaxs Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf qoldirgan yuzdan ortiq kitoblari, asarlari, saboqlar va hikmatlari jamiyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Shu bilan birga u zot shunday marhamat qiladilar: "Dinning asosiy maqsadlaridan biri – insonga yomonlikning zararlarini bayon qilib, undan asrab qolish hamda yomon yo'lga kirib ketganlarni to'g'ri yo'lga chorlashdir. To'g'ri yo'ldan yurish odob-axloqqa asoslangan taraqqiyotga sabab bo'ladi. Qaysi jamiyatda shu ish yo'lga qo'yilsa, o'sha jamiyatning ahvoli nihoyatda yaxshi bo'ladi". Shu bois siz ham dunyo ajoyibotlari haqida qissalar, kitoblar mutolaasini boshlang, jahon tarixida o'chmas nom qoldirgan buyuklarning hayot yo'llari bilan tanishing, ulardan ibrat oling va boshqalarga ham o'rnak bo'ling!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, Toshkent, 1999.
2. Dunyoni tebratgan buyuklar Toshkent "Qaqnus media" nashriyoti 2019.

SAID AHMAD IJODI VA UNING TARJIMONLIK SAN'ATI

Zarina Tajkulova,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Xalqaro jurnalistika yo'nalishi

malay-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Said Ahmad asarlaridagi qahramonlarning inson qalbiga ta'siri, ularning hayotiy realizm bilan uyg'unligi hamda adabiyot ixlosmandlari tomonidan qanday qabul qilinishi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, adibning tarjimonlik mahorati, rus adabiyoti namunalarini o'zbek tiliga moslashtirish usullari va bu jarayonda milliy hamda madaniy qadriyatlarni saqlab qolish masalalari tahlil qilinadi. Yozuvchining ijodiy faoliyati, ayniqsa, "Ufq" trilogiyasi va hikoyalari o'zbek adabiyotidagi o'rni hamda badiiy tafakkurga qo'shgan hissasi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: O'zbek adabiyoti, hayotiy realizm, qahramon obrazlari, tarjima san'ati, milliy qadriyatlar, badiiy tafakkur, tarjimonlik mahorati, adabiy meros, Said Ahmad, Ufq trilogiyasi, jurnalistik faoliyat.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние героев произведений Саида Ахмада на человеческую душу, их гармония с жизненным реализмом, а также восприятие его творчества поклонниками литературы. Особое внимание уделяется мастерству писателя как переводчика, его подходам к адаптации образцов русской литературы на узбекский язык, при этом анализируются вопросы сохранения национальных и культурных ценностей в этом процессе. Творческая деятельность писателя, в частности его трилогия «Уфк» и рассказы, анализируются с точки зрения их места в узбекской литературе и вклада в развитие художественного мышления.

Ключевые слова: Узбекская литература, жизненный реализм, образы персонажей, искусство перевода, национальные ценности, художественное мышление, мастерство переводчика, литературное наследие, Саид Ахмад, трилогия "Уфк", журналистская деятельность.

Abstract: This article explores the impact of the characters in Said Ahmad's works on the human soul, their realistic depiction, and how they are perceived by literature enthusiasts. It also analyzes his translation skills, the adaptation of Russian literary works into Uzbek, and the preservation of national and cultural values in this process. The author's creative activity, particularly the "Ufq" trilogy and short stories, are examined in terms of their significance in Uzbek literature and their contribution to artistic thinking.

Keywords: Uzbek literature, realistic depiction, character portrayal, art of translation, national values, artistic thinking, translation mastery, literary heritage, Said Ahmad, Ufq trilogy, journalistic activity.

Said Ahmad 1920-yil 10-iyun Toshkentda dunyoga keladi. Uning bolaligi Elbek, G'ofur G'ulom, Oybek singari davrasida o'tti. Tinib-tinchimas Said Ahmad o'zini bolalik davridan xar hil sohalarda sinab ko'rdi. U Nizomiy nomidagi pedinstitutda broz vaqt o'qigandan keyin 1941-yilda "Mushtum" jurnalida ishladi. 1942-1943 yillarda Respublika radiosida, 1943-1947 yillarda „Qizil O'zbekiston" gazetasida, 1948-1950 yillarda „Sharq yulduzi" jurnalida mehnat qildi. Uning asarlari insoning qalbiga, hayot dunyosiga kirib boradi. Har bir asari o'ziga hos obraz va yo'nalishda yozilgan. O'quvchi Said Ahmadning kitoblarini o'qir ekan uni xayolan tasavvur qilmaslik ilojsizdir. Said Ahmadning birinchi hikoyalar to'plami „Tortiq, Er yurak, Farg'ona hikoyalari, cho'l burguti, cho'l oqshomlari, odam va bo'ron" singari hikoyalari chop etilgan. Said Ahmad o'z hikoyalarida Oybekning psixalogik tasir mahorati, G'ofur Gulomning yumori, Abdulla Qahhor bayonidagi lakonizimdan o'rganishga intilgan. Uning eng mashhur asari Said Ahmad nomini barcha tanishiga sabab bo'lgan asari "Ufq" ramani hisoblanadi. 1965-1974 yillarda "Ufq" trilogiyasini yozib tugatadi va O'zbek tarixida birinchi trilogiya yozgan yozuvchi hisoblanadi. Asar uchta - "Qirq besh kun", "Hijron kunlarida", "Ufq bo'sag'asida" ramanlaridan iborat. Ushbu asarda yozuvchi ikkinchi jahon urshining shiddatli og'riqli nuqtari, xalqimizning mehnatsevarligi, tirishqoqligi, oliyjanobliligini asarda yorqin bayon etgan.

Tanqidchi Abdulla Qahhor adibning asarlaridagi qahramonlarni sharhlayotganda shunday deydi: "Said Ahmad asarlaridagi qahramonlar inson qalbining eng nozik qatlamlarini aks ettiradi, ularning har biri o'ziga xos

tarixiy va ruhiy tajribaga ega.” Uning obrazlari xalq hayotining haqiqatini aks ettirib, o‘quvchini o‘ziga jalb etadigan ma’naviy kuchga ega bo‘lgan. Said Ahmadning asarlari nafaqat adabiy maydonda, balki keng omma orasida ham katta qiziqish uyg‘otgan. Ko‘plab kitobxonlar, talaba va adabiyot ixlosmandlari uning asarlarida aks etgan milliylik, samimiylik va tarixiy kontekstga alohida e’tibor qaratishadi.

Said Ahmad asarlari o‘qish tajribasida o‘ziga xos o‘rnini egallaydi. Adabiyot ixlosmandlari va talabalar asarlarni o‘qiyotganda diqqat bilan tahlil qilinadi. Qahramonlarning ichki dunyosi, dramatik voqealar va tarixiy kontekst batafsil o‘rganiladi. Emotsional va ma’naviy ozuqa sifatida qabul qilinadi. Ko‘plab o‘quvchilar asarlardan hayotiy saboqlar olib, o‘zlarining shaxsiy rivojlanishida foydalanishadi. Adibning asarlari haqida ijobiy fikr bildirgan tanqidchilar va o‘quvchilar orasida uning asarlaridagi chuqur ma’naviy mazmun, samimiylik va hayotiy realizm yuqori baholangan. Masalan, O. Sharafiddinov shunday deydi: “Yozuvchining obrazlari – o‘zbek xalqining jonli tarixi va kelajakka bo‘lgan ishonchini aks ettiruvchi yorqin timsollardir.” Zamonaviy adabiyotshunoslar shunday yozishadi: “Said Ahmad asarlari o‘zida hayotiy saboqlar va insoniy qadriyatlarni mujassamlashtirgan, ularni o‘qish orqali biz nafaqat adabiy merosni, balki xalqimizning ruhiy dunyosini ham o‘rganamiz.”

Zamonaviy texnologiyalar, elektron kitoblar va audio kitoblar orqali Said Ahmad asarlari yangi avlod o‘quvchilari orasida keng tarqalmoqda. Raqamli formatdagi asarlar yoshlar orasida qulay o‘qish sharoitini yaratib, adabiyotning madaniy merosini saqlab qolish va rivojlantirishga xizmat qilmoqda. O‘quvchilar onlayn muhokama forumlari, ijtimoiy tarmoqlar va virtual adabiyot klublarida asarlar ustida o‘z fikrlarini almashishmoqda. Shuningdek Said Ahmad tarjima borasida ham yetuk hisoblangan. Tarjima jarayonida original asarning mazmuni, uslubi va badiiy ohangini o‘zbek tilida aks ettirishga harakat qilgan. Bu orqali rus adabiyotini vakillarining asarlaridagi chuqur ma’naviy va badiiy mazmun o‘zbek o‘quvchisiga tushunarli tarzda yetib kelishiga ulkan hissa qo‘shgan. Said Ahmadning Anton Chekhovning «Папи» asaridan qisqa tarjima keltirsak va uning tarjima dunyosi haqida aniqroq tasavvurga ega bo‘lsak.

Asl asarning matni:

В один дождливый вечер, в тускло освещенной комнате трактирщика, между людьми разгорелся спор о том, возможно ли прожить двадцать лет в полной изоляции. Один из собеседников, молодой юрист, заявил: “Я готов доказать, что человек может обойтись без всякого общения и прожить долгие годы, лишившись всех мирских удовольствий.”

Said Ahmad tarjimasi:

Bir yomg'irli kechada, traktirxonaning xira yoritilgan xonasida, odamlar orasida to'liq izolyatsiyada yigirma yil yashash mumkinmi degan bahs boshlanadi. Suhbatdoshlarning biri, yosh yurist, shunday deydi: “Men isbotlashga tayyorman, inson hech qanday muloqotsiz yashab, barcha dunyoviy zavqlardan mahrum bo'lib, uzoq yillar davomida yashay oladi.

Tarjima qilingan matnlarda u til va madaniy kontekstni inobatga olgan holda, asl asarning ruhini saqlab qolishga intilgan. Shunday qilib, tarjimalar o'zbek adabiyoti an'alariga moslashib, o'ziga xos ifoda uslubini shakllantirgan. Ba'zi tanqidchilar uning tarjimalarida ba'zi joylarida badiiy ozchiliklar borligini ta'kidlagan bo'lsa-da, umuman olganda, u tarjima sohasida sezilarli natijalarga erishgani va o'z tarjimalari orqali asarlarning asl mazmunini yo'qotmaslikka intilishi bilan ijobiy baholangan.

Umuman olganda, Said Ahmadning tarjimalari adabiy va madaniy qadriyatlarni boyitishda, shuningdek, rus adabiyotining o'zbek o'quvchisiga tanishtirishda ulkan omil hisoblangan, va hozirgi kungacha tarjima qilingan asarlar o'z muxlislari tomonidan sevib o'qilmoqda. Said Ahmad ijodi va uning asarlariga bo'lgan qiziqish nafaqat o'zbek adabiyotining, balki butun jamiyatning ma'naviy merosiga katta hissa qo'shgan. Uning asarlari o'quvchilarga hayotiy saboqlar, insoniy qadriyatlar va milliy ruhni etkazishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston adabiyoti tarixi kitobi.
2. Darslik, O'quv-qo'llanmalar.

EKOLOGIK MUAMMOLARGA YECHIM BORMI?

Mohichehra Qadamova,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Xalqaro jurnalistika yoʻnalishi

malay-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada global ekologik muammolar, ularning sabablari va oqibatlari tahlil qilinadi. Iqlim oʻzgarishi, tabiiy resurslarning isrof qilinishi va ekotizimlarning yemirilishi kabi muammolar yoritilib, ularga yechim sifatida muqobil energiya manbalaridan foydalanish, resurslarni samarali boshqarish va xalqaro hamkorlikning ahamiyati koʻrib chiqiladi. Shuningdek, inson omilining ekologiyaga taʼsiri va har bir fuqaroning atrof-muhitni muhofaza qilishdagi oʻrni haqida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar: ekotizim, iqlim oʻzgarishi, tabiiy resurslar, energiya manbalari, yer eroziyasi, atmosfera ifloslanishi, neft qazib olish, biologik xilma-xillik, atrof-muhit muhofazasi, texnogen taʼsir.

Аннотация: В данной статье анализируются глобальные экологические проблемы, их причины и последствия. Рассматриваются такие проблемы, как изменение климата, расточительное использование природных ресурсов и разрушение экосистем, а также предлагаются решения, такие как использование альтернативных источников энергии, эффективное управление ресурсами и важность международного сотрудничества. Также обсуждается влияние человеческого фактора на экологию и роль каждого гражданина в защите окружающей среды.

Ключевые слова: экосистема, изменение климата, природные ресурсы, источники энергии, эрозия почвы, загрязнение атмосферы, добыча нефти, биологическое разнообразие, охрана окружающей среды, техногенное воздействие.

Abstract: This article analyzes global environmental issues, their causes, and consequences. Problems such as climate change, resource shortages, and ecosystem degradation are discussed, along with possible solutions, including the use of alternative energy sources, efficient resource management, and international cooperation. Additionally, human contribution to the

environment and the role of individuals in environmental protection are explored.

Keywords: ecosystem, climate change, natural resources, energy sources, soil erosion, air pollution, oil extraction, biodiversity, environmental protection, technogenic impact.

Ekologik muammolar, bugungi dunyoda katta ahamiyatga ega bo'lgan uzoq muddatli muammolar qatoriga kiradi. Bu muammolar, atrofimizdagi tabiiy resurslarning iste'molini, tarkibiy o'zgarishlarni, iqlim o'zgarishlarini va hayvonot dunyosining yo'qolib ketish xavfini o'z ichiga oladi. So'ngi paytlarda global muammo bo'lib ulgurgan iqlim o'zgarishini, neft, gaz, suv, o'rmon resurslari kabi tabiiy boyliklar va ularning isrof qilinishini ekologik muammolarga sabab qilib ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari, shaharlarning kengayishi, industrializatsiya, transport vositalarining ko'payishi va tinimsiz qurilishlar oqibatida atrofimizdagi ekosistemaning zarar ko'rish ehtimoli eng yuqori ko'rsatgichlarga chiqqan. Qayd etish joizki, ekologik muammolarning katta qismi inson faoliyati natijasida paydo bo'lmoqda. Buni inson omili atrof-olamga qanday ta'sir ko'rsatayotganidan bilish qiyin emas. Tabiiy boyliklar esa, atrofimizdagi ekologik muammolar uchun boshqa bir muhim sababdir. Neft, gaz va tabiiy resurslar, ularning iste'moli va isrof qilinishi, ekologik ravishda, muhim tabiiy boyliklarni buzilishiga olib kelmoqda. Quyosh energiyasi va boshqa alternativ energiya manbalarini yaratish, har bir insonning tabiiy boyliklarini ishlatish usullarini o'zgartirishga yordam beradi. Ekologik muammolar bilan kurashish global miqyosda amalga oshirilishi kerak. Bunda kelajak avlodni zaxiralar bilan ta'minlash va bugungi qatlamning jamoviy burchidir. Davlatlar, tashkilotlar va fuqorolar hamjihatlikda ishlash orqali atrofimizdagi resurslarni asrab qolishi, ekologik muammolarni kamaytirishga vaqtinchalik yechim topishi mumkin. Albatta chiqindiga bo'kib borayotgan yer sayyorasi va resurslar, yerning erroziyaga uchrashi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Germaniyalik siyosatchi, Yevropa parlamenti a'zosi Viola von Kramon parlamentdagi nutqida O'zbekiston haqida quyidagi fikrni bildirgan: "O'zining yosh, mehnatkash aholisi, tabiiy boyliklari va boy tarixi bilan O'zbekiston Markaziy Osiyoning muvaffaqiyat tarixi bo'lish uchun barcha narsaga ega. Shunga qaramay, u yerda odamlar qiynalyapdi, resurslar va yer erroziyaga uchrayapdi, avtokratik qo'shnilar Xitoy va Rossiya esa

mamlakatni o'zlarining shaxsiy o'yin maydonchasiga aylantirib olgan. Yevropa ittifoqi nafaqat O'zbekiston bilan savdo-sotiq qilishi, balki u yerdagi inson huquqlari buzilishiga ham jim qarab turmasligi kerak. Albatta, paxta dalalaridagi ishlash sharoitlari yaxshilanyapdi, bolalar mehnatiga barham berilyapdi, lekin hali qilish kerak bo'lgan ishlar juda ham ko'p. Suv resurslari noto'g'ri sarf qilinyapdi, shaxarlar zaharli changga to'lgan, mamlakat esa qisman cho'lga aylanib boryapdi. Agar bu jarayonlar orqaga qaytarilmasa, O'zbekistondagi 37 milliondan ortiq aholini ekologik falokat kutmoqda. Yevropa Ittifoqining ehtimoliy kengayishi O'zbekistonni mintaqaga ancha yaqinlashtiradi, bu mamlakat fuqarolari Xitoy va Rossiya o'rnini bosadigan alternativ demokratiyaga haqli. Yevropa ittifoqi Markaziy Osiyoga yanada, yaqinroq bo'lishi kerak, shunda u yerdagi odamlarning hayotini yaxshilash va ekotizimni asrab qolishda ko'proq natijaga erishadi'-deb o'z fikrini keltirgan va bu nafaqat O'zbekiston balki, u bilan bir qatorda boshqa ekologiyasi yomon ahvolga kelib qolgan davlatlar uchun ham tegishli deb o'ylayman. Misol uchun Boku(Ozarbayjon) ekologiya sohasi mutaxassislarining fikricha, Boku dunyodagi eng ifloslangan shaxarlar ro'yxatida birinchi o'rinda turar ekan. Eng achinarlisi vaziyat yomonlashib bormoqda. Buning asosiy sababi Shahar hududida ulkan neftni qayta ishlash komplekslarining hamda katta miqdordagi neft quduqlarining joylashganligidir.

Mumbay (Hindiston). Bu yerda toza suvning o'zi yo'q, Shahar ko'chalari yoqimsiz hid va turli-tuman infeksiyalarga to'la. Ekspertlarning fikricha, Mumbayni tozalash va zaruriy inshootlarni qurish uchun bir milliard dollardan ko'proq mablag' sarflanishi talab etiladi. Ekologiya zararlanishi Braziliya, Nepal, Tanzaniya va shunga o'xshash davlat va shaxarlarning ko'pligi bizni ancha tashvishga soladi. Agar insonlar birlashsa ellik yilda yer paydo bo'lgan davrdagi ekologik toza holatga erishishi mumkin ekan. Har birimiz ekologik bilimga ega bo'lishimiz, texnologiya va ijtimoiy salomatlik sohasidagi yangiliklarni kuzatib borish orqaligina insoniyatni ekologik ravishda qayta ta'minlash jarayonlarini rivojlantirishda yordam bera olamiz. Shunday ekan, bu qadam ekologik muammolarga javob berishda barcha jamiyat a'zolarining birlashishini talab etadi va bu, tabiatni asrab qolishda kengaytirilgan muhim bir tajriba bo'ladi va doimiy ishtirok talab etiladi. Kelajakda ikki tomonlama manfaatni saqlash uchun birgalikda ishlash zarur. Zero Ibn Sino bobomiz

aytgan gapni (Inson chang va g'uborlarsiz mingy yil umr ko'radi) amalini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamidov, L. (n.d.). Viola von Karamon: Telegram rasmiy sayti.

RUS SHE'RIYATI NAMUNALARI O'ZBEK TILIDA

Xumora Toshmurodova,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Xalqaro jurnalistika yo'nalishi

malay-ingliz guruhi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola rus she'riyatining o'zbek tiliga tarjima qilingan namunalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada rus adabiyoti namoyandalari bo'lgan Aleksandr Pushkin, Sergey Yesenin, Mixail Lermontov va boshqa mashhur shoirlarning asarlari o'zbek tilida qanday talqin etilgani o'rganiladi. Tarjima jarayonining o'ziga xosligi, poetik mazmunni saqlab qolishdagi qiyinchiliklar va muvaffaqiyatlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Rus she'riyati, adabiy tarjima, tarjima san'ati, tarjima uslubi, poetik ifoda, estetik uyg'unlik, til va badiiyat, metaforik tasvir, poetik ohang.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу переводов образцов русской поэзии на узбекский язык. В статье рассматривается, как произведения таких представителей русской литературы, как Александр Пушкин, Сергей Есенин, Михаил Лермонтов и других известных поэтов, были интерпретированы на узбекском языке. Анализируются

особенности процесса перевода, трудности и успехи в сохранении поэтического содержания.

Ключевые слова: Русская поэзия, литературный перевод, искусство перевода, стиль перевода, поэтическое выражение, эстетическая гармония, язык и художественность, метафорический образ, поэтический тон.

Abstract: This article analyzes the samples of Russian poetry translated into Uzbek language. The article examines how the works of such famous representatives of Russian literature as Alexander Pushkin, Sergey Esenin, Mikhail Lermontov and other poets were interpreted in Uzbek. The peculiarities of the translation process, the difficulties in preserving the poetic content and the success achieved are studied.

Keywords: Russian poetry, literary translation, art of translation, translation technique, poetic expression, aesthetic unity, language and artistry, metaphoric imagery, poetic tone.

Rus she'riyati dunyo adabiyotida alohida o'ringa ega. Aleksandr Pushkin, Mixail Lermontov, Sergey Yesenin kabi shoirlar nafaqat rus adabiyotining, balki jahon madaniyatining ham muhim vakillari hisoblanadi. Ularning asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinishi esa ikki xalq o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashda katta rol o'ynagan. O'zbek tarjimonlari tomonidan rus she'riyatining o'ziga xos ruhi va poetik ohangini saqlab qolish borasida ulkan mehnat qilingan. Bu jarayonda tarjimonlar nafaqat so'zma-so'z tarjima qilish, balki she'rning ritmi, obrazlari va hissiyotini ham o'zbek tilida aks ettirishga intilganlar. Ushbu maqolada rus she'riyatining mashhur namunalari o'zbek tilida qanday talqin etilgani, tarjima jarayonida duch kelgan muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi. Shuningdek, rus va o'zbek she'riyati o'rtasidagi madaniy uyg'unlik va ta'sirchanlik masalalari ham bayon qilinadi. Rus she'riyatining o'zbek tiliga tarjima qilinishi XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. Sovet davrida rus adabiyoti o'zbek madaniyatiga keng yo'l topdi va bu jarayon o'zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Cho'lpon, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Erkin Vohidov kabi taniqli adiblar rus shoirlarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish orqali ikki xalq madaniyati o'rtasida ko'prik vazifasini o'tadilar. Bu tarjimalar nafaqat rus she'riyatining

o‘zbek tilida tarqalishiga, balki o‘zbek adabiy tilining boyishiga ham xizmat qildi.

Aleksandr Pushkin she’rlarining o‘zbek tilidagi tarjimalari. Aleksandr Pushkin rus she’riyatining otasi hisoblanadi. Uning she’rlari romantik ruh, lirik ohang va falsafiy chuqurlik bilan ajralib turadi. Pushkinning “Gul” (“Цветок”) she’ri o‘zbek tiliga Mirtemir tomonidan tarjima qilingan. Asl matnda ifodalangan nozik hissiyotlar tarjimada saqlanib qolgan.

ЦВЕТОК

Цветок засохший, безуханный,
Забытый в книге вижу я;
И вот уже мечтою странной
Душа наполнилась моя:
Где цвёл? когда? какой весною?
И долго ль цвёл? и сорван кем,
Чужой, знакомой ли рукою?
И положён сюда зачем?
На память нежного ль свиданья,
Или разлуки роковой,
Иль одинокого гулянья
В тиши полей, в тени лесной?
И жив ли тот, и та жива ли?
И нынче где их уголок?
Или уже они увяли,
Как сей неведомый цветок?

GUL

Qurigan, hidi yo‘q, unutilgan gul –
Kitobni ocharkan ko‘rib qoldim men
G‘alati xayolga to‘ldi-da ko‘ngil,
Parishon termilib, turib qoldim men:
Qayerda va qachon, qaysi bahorda –

Gullagan? Uzoqmi? Kim uzdi ekan?
Yot qo‘lmi, tanishmi uzgan nahorda?
Nima uchun bu yerga qo‘yildi ekan?
Nozik bir visolning esdaligimi.
Yoki shum ayriliq - firoq yodgori?
Yoki tinch sahroda, o‘rmon soyasi
Yolg‘iz sayr, tomosha xotiralari?
Tirikmikan yigit, tirikmikan qiz?
Shu paytda ularning qayda go‘shasi?
Yoki shu qurigan - so‘lg‘in, belgisiz.
Gul kabi so‘ldimi har ikkalasi.

Mirtemirning Pushkin she‘rini o‘zbek tiliga tarjima qilishi – adabiy tarjima san‘atining yorqin namunasi. U tarjima jarayonida she‘rning emotsional ta‘sirini yetkazishga alohida e‘tibor qaratgan. Asl matnning ohangini va g‘amgin kayfiyatini saqlagan holda, uni o‘zbek tilining tabiiy ifoda vositalari bilan aniq va ravon aks ettirgan. She‘r dastlab rus tiliga xos ohang va ritmga ega bo‘lsa-da, Mirtemir uni o‘zbekcha qofiya tizimi va uslubiga moslab tarjima qilgan. Masalan, u asl matnning musiqiylikni buzmagani holda o‘zbek tilida tabiiy va jo‘shqin ohang yaratishga muvaffaq bo‘lgan:

“Qayerda va qachon, qaysi bahorda –
Gullagan? Uzoqmi? Kim uzdi ekan?”

Mirtemir tarjimasida Pushkin she‘ri o‘zbek o‘quvchilari uchun yanada tushunarli va yaqinroq bo‘lishi uchun ba‘zi jumlar tabiiy tarzda moslashtirilgan. Masalan, “Иль одинокого гулянья, В тиши полей, в тени лесной?” misralarini u:

“Yoki tinch sahroda, o‘rmon soyasida
Yolg‘iz sayr, tomosha xotiralari?”

deb tarjima qilgan. Bu esa original matnning falsafiy ruhini saqlagan holda, o‘zbek tilining tabiiy ifoda usullariga mos keladi. Mirtemir tarjimasida milliy

ohang ham seziladi. U rus she'riyatiga xos chuqur fikr va hayotiy mazmunni o'zbek xalq she'riyatining uslubiga yaqinlashtirgan.

Mixail Lermontov she'rlarining o'zbek tilidagi tarjimalari. Mixail Lermontov rus she'riyatining eng yorqin vakillaridan biri sanaladi. Uning "Rahmat" ("Благодарю") she'ri o'zbek tiliga Maqsud Shayxzoda tomonidan tarjima qilingan.

Благодарю

Благодарю!.. Вчера мое признание
И стих мой ты без смеха приняла;
Хоть ты страстей моих не поняла,
Но за твое притворное вниманье
Благодарю!
В другом краю ты некогда пленяла,
Твой чудный взор и острота речей
Останутся навек в душе моей,
Но не хочу, чтобы ты мне сказала:
Благодарю!
Я б не желал умножить в цвете жизни
Печальную толпу твоих рабов
И от тебя услышать, вместо слов
Язвительной, жестокой укоризны:
Благодарю!
О, пусть холодность мне твой взор покажет,
Пусть он убьет надежды и мечты И все,
что в сердце возродила ты;
Душа моя тебе тогда лишь скажет:
Благодарю!

Rahmat

Rahmat!.. Kecha tinglading kulmay,
She'rimni ham iqrormni ham,
Tinglasang ham dardimni bilmay,
Lutfig yolg'on bo'lsa ham u dam

Rahmat!
Bir vaqt meni qilganding jodu,
Burri tiling, ajoyib ko‘zing
Saqlanadi dilimda mangu,
Ammo, dema menga sen o‘zing
Rahmat!
Umlari gullagan chog‘i
Ko‘paymasin qullaring yana
Istamayman, eshitay tag‘in
So‘z o‘rniga og‘zingdan ta'na Rahmat!
Oh, ko‘zlaring sovuq ko‘rinsin
Qursin dilning umid tilagi
Va tug‘dirgan hislaring butun
Shundagina qalbim der balki:
Rahmat!

Maqsud Shayxzodaning tarjimasida asl she‘rdagi tasviriylilik, tuyg‘ular va ruhiy kechinmalar o‘zining betakror ifodasi bilan namoyon etiladi. Tarjimon asarning poetik tuzilishini saqlab, uning ohangini va mazmunini o‘zbek o‘quvchisi uchun tabiiy va ta’sirchan qilib yetkazgan. Lermontovning “Благодарю!” she‘ri muhabbat va iztirobning nozik uyg‘unligini aks ettiradi. Unda minnatdorchilik so‘zi kinoya bilan ishlatilgan bo‘lib, bu tuyg‘ular paradoksini kuchaytiradi. Sevgidan umid qilgan yurak, javobsiz tuyg‘ular qarshisida minnatdorlik bildirib, o‘z og‘riq va xafagarchiliklarini yashirishga harakat qiladi. Shayxzoda ushbu ruhiy holatni tarjimada juda nozik aks ettirgan. Masalan,

“О, пусть холодность мне твой взор покажет” misrasi
“Oh, ko‘zlaring sovuq ko‘rinsin”

tarzida o‘girilgan bo‘lib, bu ifoda asarning ichki hissiyotlarini to‘laqonli yetkazadi. U shunchaki so‘zlarni tarjima qilish bilan kifoyalanmagan, balki she‘rning falsafiy mazmunini o‘zbek tilida tabiiy shaklda aks ettirgan. Shayxzoda tarjimada rus she‘riyatining ifoda uslubiga yaqin qolishga harakat qilgan bo‘lsa-da, uni o‘zbek tilining she‘riy imkoniyatlariga moslab, jonli va

ta'sirchan qilib bergan. Natijada Lermontovning chuqur falsafiy she'ri o'zbek tilida ham rang-barang va mazmunan boy asar sifatida yangraydi.

Sergey Yesenin she'rlarining o'zbek tilidagi tarjimalari. Sergey Yesenin rus she'riyatining eng yirik lirik shoirlaridan biridir. Uning she'rlari tabiat, vatan va insoniy hissiyotlar bilan to'ldirilgan. Yesenin " Bu dunyoda men bir yo'lovchi... " ("В этом мире я только прохожий ...") she'ri o'zbek tiliga Erkin Vohidov tomonidan mahorat bilan tarjima qilingan. Erkin Vohidovning tarjimasida she'rning ma'nosi, ruhiy kechinmalari va umuminsoniy tuyg'ularini chuqur aks ettirishga intilishi kuzatiladi. Vohidov tarjimasida "Bu dunyoda men bir yo'lovchi..." iborasi orqali she'rning koinotdagi mavjudlik, vaqt va mavhumlik kabi mavzulari o'z ifodasini topadi.

В этом мире я только прохожий...
Сестре Шуře
В этом мире я только прохожий,
Ты махни мне веселой рукой.
У осеннего месяца тоже
Свет ласкающий, тихий такой.
В первый раз я от месяца греюсь,
В первый раз от прохлады согрет,
И опять и живу и надеюсь
На любовь, которой уж нет.
Это сделала наша равнинность,
Посоленная белью песка,
И измятая чья-то невинность,
И кому-то родная тоска.
Потому и навеки не скрою,
Что любить не отдельно, не врозь -
Нам одною любовью с тобою
Эту родину привелось.

Bu dunyoda men bir yo'lovchi...
Singlim Shuraga
Bu dunyoda men bir yo'lovchi,
Shodon menga qo'l silki, erkam.

Xuddi shunday tinch, erkalovchi
Ziyo to‘kar kuz fasli oy ham.
Isinurman oyning taftiga,
Ilk bor undan orom olar jon.
Allaqachon so‘ngan sevgiga
Umid bog‘lab yashayman hamon.
Bunga bois — shu makonimiz,
Shu yer — oppoq, sho‘r manglay turbat,
Qaylardadir toptalgan nomus,
Kimlargadir qadrdon g‘urbat.
Yashirmayman, har kim ham bilar:
Boshqa-boshqa emas, jon singil,
Ikkimiz ham bir sevgi bilan
Shu vatanga qo‘yganmiz ko‘ngil.

Tarjimada tabiatning jozibador va tasviriy unsurlari – masalan, “kuz fasli Oy” va “tinç, erkalovchi” kabi iboralar – asl she‘rning vizual va ruhiy obrazlarini muvaffaqiyatli aks ettiradi. Shuningdek,

“Ikkimiz ham bir sevgi bilan
Shu vatanga qo‘yganmiz ko‘ngil”

qatorlari orqali vatanga bo‘lgan sevgi va birlashuv hissi yorqin ko‘rsatiladi, bu esa she‘rni yanada umuminsoniy va milliy kontekstga boy qiladi. Tarjimada ifodalangan metaforalar nafaqat tabiatning o‘zgaruvchanligini, balki inson qalbining o‘tkinchi holatini ham ifodalaydi. Shu bilan birga, “oppoq, sho‘r manglay turbat” kabi so‘z birikmalari yordamida atrof-muhitning qayg‘uli holati o‘z aksini topadi. Erkin Vohidovning uslubi o‘ziga xos erkinlik va tabiiylikni namoyon etadi. Tarjimada she‘rning ritmi va musiqiyliigi asl holida saqlanib qolgan bo‘lib, tilning o‘ziga xosligi va go‘zalligi yo‘qotilmagan. Tarjimon har bir qatorni diqqat bilan qayta ishlab, she‘rning asl mazmuni va hissiyotini zamonaviy o‘zbek tiliga moslashtirgan. Bu esa o‘quvchini she‘rning mazmuni bilan birga tilning boy ifoda vositalariga ham sho‘ng‘ishga undaydi. Shu sababli, ushbu tarjima nafaqat adabiy asar, balki tarjimonning san‘atga bo‘lgan chuqur munosabati va iste‘dodining yorqin ifodasidir.

Xulosa qilib aytganda, tarjima san'ati – bu tillar va madaniyatlar orasidagi nafis uyg'unlik bo'lib, unda har bir so'z mazmun va hissiyotning ohangdor jilosi sifatida yangraydi. Ushbu maqolada rus she'riyatining o'zbek tilida aks etishi, asl asarning ruhiy nafosati, nozik ohangi va hissiy chuqurligini saqlab qolish uchun qo'llanilgan turli yondashuvlar yoritildi. Tarjima jarayoni, o'zbek tilining boy ifoda vositalari bilan original asarning poetik sehrini yangidan jonlantirish, til va qalbning uyg'unligini aks ettirish san'atidir. Tarjimonlar, har bir satrda ikki xalqlar o'rtasidagi bog'lanishni, madaniyatlararo do'stlik va mehrni aks ettirishga intilib, asarning har bir so'zini, ohangini va tasvirini o'zbek o'quvchisiga yetkazishga intilganlar. Ularning ijodi – bu nafaqat asarning ma'nosini saqlash, balki uning nafosatini, mazmunini va chuqur hissiyotlarini yangi madaniyatga moslashtirish san'atidir. Shu tariqa, tarjima san'ati orqali rus she'riyatining betakror go'zalligi va qalbgaga teran ta'siri yangi she'riyat manzarasida jonlanib, ikki madaniyat o'rtasidagi abadiy dialogga aylanadi. Bu – til va badiiyatning, qalb va ruhning mukammal uyg'unligi, adabiyotning yuksalishiga bag'ishlangan san'atidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Erkin Vohidov. Yozuvchi va davr “Shoiru she'ru shuur” Yosh gvardiya nashriyoti, Toshkent 1987.
2. A.S.Pushkin. Bog'chasaroy fontani She'rlar, dostonlar va she'riy roman Toshkent “O'zbekiston” 2019.
3. S.A.Yesenin. Qora odam She'rlar va dostonlar Toshkent “O'zbekiston” 2021.
4. M.Y.Lermontov. Tanlangan asarlar. G'afur G'ulom nomidagi “Adabiyot va san'at” nashriyoti, Toshkent 1.

ISHSIZLIK VA IQTISODIY TENGSIZLIK

Javohir Ergashev,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti

Xalqaro jurnalistika yo'nalishi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ishsizlik turlari va ishsizlik davlat iqtisodiyotiga qay darajada ta'sir qilish haqida ma'lumotlar ishsizlikni keltirib chiqaruvchi omillar va bartaraf qilish yo'llari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ishsizlik, iqtisodiy tengsizlik, bandlik, mehnat bozori, ish o'rinlari, daromad tafovuti, kambag'allik, ish xaqi farqlari, inflatsiya va bandlik, minimal ish haqqi, raqamli iqtisodiyot va bandlik, ayollar va ish bozori.

Аннотация: В данной статье представлена информация о типах безработицы и степени ее влияния на экономику страны. В нем также представлены факторы, вызывающие безработицу, и пути ее устранения.

Ключевые слова: Безработица, экономическое неравенство, занятость, рынок труда, рабочие места, разрыв в доходах, бедность, разрыв в оплате труда, инфляция и занятость, минимальная заработная плата, цифровая экономика и занятость, женщины и рынок труда.

Abstract: This article provides information about the types of unemployment and the extent to which unemployment affects the state economy. The factors that cause unemployment and ways to eliminate it are presented.

Keywords: Unemployment, economic inequality, employment, Labor market, jobs, income gap, poverty, wage gap, inflation and employment, minimum wage, digital economy and employment, women and the labor market.

Ishsizlik – mamlakatdagi mavjud ishchi kuchi bir qismining foydalanilmay qolishini namoyon etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy hodisa xisoblanadi. Mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan, lekin ishchi kuchining ish bilan ta'minlanmagan qismi ishsizlar deyiladi. Namoyon bo'lish xususiyati va vujudga kelish sabablariga ko'ra ishsizlik friksion, tarkibiy, siklik, institutsional, texnologik, regional, doimiy, yashirin va turg'un ishsizlik turlariga bo'linadi. Kishilar turli sabablar (yangi yashash joylariga ko'chib o'tish, ishining mazmuni va tavsifi yoqmay qolishi, nisbatan yuqoriroq ish haqi olishga intilish o'zi hahlamagan ishda ishlamasligi va boshqa) sabablarga ko'ra o'z ishlarini almashtirib turadilar. Biroq, bir ishdan bo'shab, boshqa

biriga joylashgunga qadar orada ma'lum vaqt o'tadi (ba'zi taxminiy ma'lumotlarga ko'ra bu muddat 1 oydan 3 oygacha davom etishi ko'rsatiladi). Aynan shu vaqt oralig'idagi, ya'ni bir ishdan bo'shab yangi ishga joylashguncha bo'lgan davrdagi ishsizlik vaqti friksion ishsizlik deyiladi.

Joriy yilning o'tgan davrida qariyb 1 mlnga yaqin o'zbekistonliklar ish bilan ta'minlangan bo'lib, shuningdek, 46 mingdan ortiq aholi tayyorlov va malaka oshirish uchun jalb qilingan. Ular asosan xizmat ko'rsatish, qurilish va IT kabi sohalarda faoliyat yuritadi. Joriy yilning o'tgan davrida O'zbekistonda 999,7 ming aholi doimiy, qatinchalik va mavsumiy ish bilan ta'minlangan edi. Masullarning bergan malumotlariga qaraganda, 111,8 ming nafar ishsiz fuqarolar korxona va tashkilotlardagi mavjud bo'sh ish o'rinlariga ishga joylashtirildi. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va ishsizlik oqibatida boshqa oqimlarga kirib ketayotgan 10,2 ming nafar ehtiyojmand fuqarolar ish bilan ta'minlandi. Bundan tashqari, aholini vaqtinchalik ishlarda daromad olish maqsadida 7,3 mingta korxona va tashkilotlar bilan hamkorlikda 38,8 ming aholiga haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etilib, ularga ish haqi uchun 40,9 mlrd so'm mablag' moliyalashtirilgan. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri ma'lumot berishicha: mehnat bozori konyunkturasi tahlil qilinib, talab yuqori bo'lgan 71 turdagi kasb bo'yicha 160 ming nafardan ortiq ishchi kasb egalariga bo'lgan hozirgi va keyingi ehtiyoj belgilab olingan. Yanvar-aprel oylarida 46,4 ming nafar ishsiz aholi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga o'qitish, qayta tayyorlov va malakasini oshirish uchun yuborildi. Ularning 10,3 ming nafari o'qishni tugatishdi. O'qishga qayta tayyorlovga jalb qilinganlar quyidagi sohalarga to'g'ri keladi:

1. Sanoat va xizmat ko'rsatish bo'yicha — 34,4 ming;
2. Qurilish bo'yicha — 4,6 ming,
3. Agrotexnologiyalar bo'yicha — 900 ta;
4. IT sohasi bo'yicha — 1,9 ming;
5. Hunarmandchilik ("Usta-shogird") bo'yicha — 4 ming.

O'zini-o'zi band qilish faoliyat yo'nalishlari bilan band bo'lgan 10,9 ming nafar xotin-qizlar o'zini-o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazildi. Joriy yilda mehnat bozoriga 734,9 ming nafar bitiruvchi kirib kelishi

kutilmoqda. Shundan: umumiy o'rta maktabni bitirganlar bo'yicha — 383,1 ming; kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlarni bitirganlar bo'yicha — 194,3 ming; OTM bitiruvchilari 157,5 ming nafarni tashkil etadi. Joriy yilning 1-yanvar holatiga OTM talabalarining 110 mingga yaqini iqtisodiyotning rasmiy sektorida o'qishdan tashqari ish bilan band bo'lganlarni tashkil etadi. Xususan, shundan 64,5 ming nafari davlat sektorida, 42,1 ming nafari xususiy sektorda o'z faoliyatni yuritadi.

Mamlakatdagi ishsizlik darajasi 8,9%ga, qashshoqlik darajasi esa 14,1%ga kamayganini ko'rish mumkin. Tadqiqotlar 2023-yilda ishsizlik darajasi past bo'lgan hududlarga Toshkent shahri, Navoiy va Toshkent viloyatlari kirishini ko'rsatgandi.

Jizzax, Samarqand, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston esa ishsizlik darajasi eng yuqori bo'lgan hududlarga kiradi. Yil boshida davlat rahbari kambag'allikni qisqartirish bo'yicha topshiriqlar berdi. Xususan, sharoiti og'ir mahallalardan kamida 50 ming aholining bandligi ta'minlanadi. Shuningdek, 2025-yilda 5,5 mln nafar aholi bandligi ta'minlanib, 3 mln doimiy ish o'rinlari yaratiladi. Yana 1 mlndan ortiq aholini kambag'allikdan chiqarish vazifasi qo'yilgan. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari uning ta'sirida ishlab chiqarilmay qolgan mahsulot hajmi va soni orqali baholanadi. Iqtisodiyot barcha ishlashni xohlagan va ishlay oladiganlar uchun yetarli miqdorda ish joylarini yaratish holatiga ega bo'lmasa 21 turdagi mahsulot ishlab chiqarish potensial imkoniyatining bir qismi yo'qotiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda bu yo'qotish yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmining orqada qolishi sifatida aniqlanadi hamda u haqiqiy YaIMning potensial YaIMdan kam bo'lgan hajmi sifatida ko'rinadi. Ishsizlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, YaIM hajmining orqada qolishi shunchalik katta bo'ladi. Ayrim hollarda milliy mahsulotning haqiqiy hajmi potensial hajmidan ortib ketishi ham mumkin. Bunday hol ishsizlik darajasi tabiiy darajadan ham past bo'lgan davrlarda ro'y beradi. Ishlab chiqarishga ishchilarning qo'shimcha smenalarini jalb qilish, kapital uskunalardan belgilangan me'yordan ortiqcha darajada foydalanish, ish vaqtidan keyin qo'shimcha ishlash va o'rindosh ishlarda band bo'lish kabilar buning asosiy sabablaridir. Ishsizlikning ijtimoiy oqibatlari ham mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir o'tkazishi mumkin. Jumladan, ishsizlikning ba'zi turlarining uzoq muddatli tavsifi ishchilarning o'z malakalarini yo'qotishlari hamda daromad va ijtimoiy mavqei jihatidan

aholining nisbatan past toifasiga o‘tib qolishiga olib keladi. Bu esa ularda o‘z turmush tarzidan qoniqmaslik, ijtimoiy faollikning yo‘qolishi, atrofdagilarga nisbatan loqaydlikning paydo bo‘lishi kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Ishchi kuchining ish bilan bandligi muammosi ko‘p qirrali bo‘lib, u barcha odamlarga o‘z qobiliyatlarini ishga solish, o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun dastlabki teng imkoniyatlarni ta‘minlovchi davlat va bozor mexanizmini vujudga keltirish; ishchi kuchini unumli va samarali ish bilan band qilish; zarur hollarda ishchi kuchini iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari o‘rtasida qayta taqsimlash kabi masalalarni ham o‘z ichiga oladi.

Keltirilgan ma‘lumotlardan shuni xulosa qilish kerakki, yildan yilga ishsizlik masalasiga jiddiy yondashib kelinmoqda. Ishsizlikning ortishi iqtisodiyotning pasayishiga ham katta tasir ko‘rsatadi ekan. Yurtimizda ishsizlik masalasini hal etishda kamyuter muxandisligi, IT texnologiyalarini, yangi kasblarni o‘qitishga chuqurroq qaralishini takidlab o‘tish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tish yo‘lida. – T.: O‘zbekiston, 1993.
2. Qobilov N.K., Xoshimov B.I. Makroiqtisodiyot. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2019.
3. Hasanov B., Tursunov B. Mehnat iqtisodiyoti. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018.
4. To‘xtaboyev Sh. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. – T.: “IQTISODIYOT”, 2020.

TARJIMALAR.

BO‘M - BO‘SH UY: VATSON UCHUN MEHMON

Ingliz tilidan
Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi
indonez-ingliz guruhi talabasi
Madinabonu Xakimova tarjimai

1894- yilning bahorida marhum Ronald Adairning sirli o‘limi butun Londonni hayratga soldi. Avvaliga men ham bu jinoyatni qiziqarli deb o‘ylagan edim, biroq ushbu qotillikdan so‘ng yana bir hayrotomus voqea yuz berdi. Bu men uchun sarguzashtga boy hayotimdagi eng katta zarba bo‘ldi. 1891- yilda qadirdonim Sherlok Holmes g‘oyib bo‘lganidan keyin ham gazetada chop etilayotgan jinoyatlar haqidagi yangiliklarni o‘qishda davom etdim. Aksariyat hollarda jumboqlarni yechishda Holmesning usulidan foydalanishga harakat qilar edim. Ronald Adairning o‘ldirilishi haqida

o'qiganimda, bu birodarim Holmes fosh etishni yoqtiradigan sirlardan biri ekanligini bilardim. Tushkun holda Holmesning o'limi jamiyat uchun katta yo'qotish bo'ldi deya o'yg'a toldim. Ronald Adair Maynuz grafining ikkinchi o'g'li bo'lib, u onasi va singlisi bilan Londondagi Park Leyn 427-da yashar edi. Ronaldning ko'plab boy va zodagon do'stlari bo'lib, u hayotidan mamnun edi. Uning noma'lum dushmanlari va yomon odatlari yo'q edi. Buni qarangki, hali yosh va navqiron bo'lgan bu aristokrat 1894-yil 30-mart sanasida tungi soat 10:00 va 10:20lar atrofida o'ldirildi. Ronald karta o'ynashga qiziqar edi. O'sha muthish kechada ham o'limidan bexabar Ronald kechki ovqatdan keyin janob Murray, Jon Hardy janoblari va palkovnik Moran bilan Bagatella qovoqxonasida qimor o'ynashgan va u taxminan 5 funtini qimorda yutqizgan edi, ammo bu yosh zodagon janob uchun arzimagan pul edi holos. Shuningdek bir necha hafta oldin, u va palkovnik Moran va boshqa o'yindagi sheriklari Godfriy Milner va Lord Balmoral bilan kartada 420 funtni qo'lga kiritishgan edi. Ushbu ma'lumtlarning bachasi tergovda aytilgan. Qotillik sodir bo'lgan kechasi u qimorxonadan soat 10:00da qaytib kelganida onasi uyda emas edi. Bekasi qaytgach, xizmatkor ayol Ronaldni o'z xonasiga chiqib ketayotgan vaqtidagi oyoq tovushlarini eshitganligini aytadi. Xonasining derazasi ochiq bo'lgan. Maynuz xonim uyga qaytib kelganida soat 10:20 edi va u o'g'liga hayrli tun tilash uchun uning xonasiga ko'tariladi, biroq eshik berk bo'lgan. U eshikni taqqillatadi va chaqiradi, ammo hech kim javob qaytarmaydi. Shundan so'ng o'g'lidan havotirlangan Maynuz xonim ikkita xizmatkoriga eshikni buzishlarini buyiradi. Xonaga kirishganida esa Ronald Adairni hushsiz holda stol yonidan topishadi. Ko'rinib turardiki, kimdir uning peshonasidan otgan va ajablanarlisi xonada hech qanday qurol yo'q edi. Shuningdek stolning ustida biroz pul va qarshisida turli raqamlar yozilgan qovoqxonadagi do'stlarining ismi bor edi. Ehtimol, u o'limi oldidan yutuqlari va qarzlarini hisoblab chiqqan ko'rinadi. Hech kim u nega eshikni qulflaganini tushinmas edi. Qotil buni qilgan va keyin derazadan qochib ketgan bo'lishi mumkin. Biroq oyna yerdan 6.5 metr balandlikda joylashgan va osti gulzor. Gulzordan esa hech kimning oyoq izlari topilmadi. Modomiki, kimdir uni derazadan mo'ljallab o'q uzgan bo'lsa ham Park Leyn gavjum ko'cha, buni kimdir eshitgan bo'lar edi. Shubhasiz bu sirli jinoyat edi. Gazetada bu tergov haqida o'qiganimdan keyin butun kun ushbu jinoyat to'g'risida fikr yuritdim va boshqotirmanini yechish yo'llarini izladim. Tushdan so'ng Park Leynga jo'nadim. Odamlar Ronald

Adairning derazasiga qaragan holda ko'chada turishar edi. Ortga burilib ketayotganimda to'satdan orqamda turgan kishiga urilib ketdim. Uning sochlari qarilikdan oqargan va gavdasi bukchaygan edi. Turtilib ketgan mahalim qo'lidan kitoblari tushib ketdi. Uzur so'rab unga kitoblarini yig'ishda yordam berdim. U menga o'qrayib qaradi va yo'lida davom etdi. Uyga qaytganimdan besh daqiqa o'tgach, xizmatkor kimdir meni ko'rishni istayotganini aytdi. Buni qarangki, bu o'sha men Park Leynda turtilib ketgan qariya edi.

“Men sizga kitoblarimni yig'ishda yordam berganingiz uchun minnatdorchilik bildirgani keldim janob.” dedi u.

“Ovvora bo'libsizda.” deya javob qaytardim.

“Cherkov ko'chasining burchagida kitob do'konim bor. Kitob sotib olishni istaysizmi? Hozir qo'limda “Britaniya qushlari” nomli biri bor”.

Kitobni oldim va unga qaradim. Ikkinchi bor qaraganimda ko'zlarim qinidan chiqay dedi. Oldimda Sherlok Holmes jilmayib turardi! O'rnimdan turdim va hayron holda unga qaradim. So'ngra umrimda birinchi va oxirgi marotaba hushimni yo'qotdim. Ko'zimni ochganimda Holmes labimga konyak to'ldirilgan idishni tutib turardi.

“Qadirdonim Vatson.” dedi u. “Meni ma'zur tuting. Men sizni bunday holga solishni istamagan edim.”

Yig'lamsirab “Holmes! Bu rostan ham sizmisiz? Siz qanday qilib bu daxshatli tubsizlikdan qochdingiz?” dedim.

U qarshimga o'tirdi va sigaret tutatdi. Stol ustida boyagi kitob, soxta oq sochlar va qiyofasinin o'zgartirishda foydalangan palto turardi.

“Tunda bir ish qilishimiz kerak,” dedi u.

“O'z sarguzashtlarim haqida ertaga Reyxenbax sharsharasi oldida so'zlab beraman.”

“Yo'q, menga hozir ayting. Qiziqib ketyapman”.

“Ertaga tunda men bilan borasizmi?”

“Albatta,” dedim.

“Yaxshi, unday bo'lsa keling men sizga nima bo'lganini aytib beraman: men hech qachon bu daxshatli jarlikka qulamaganman.”

“Hechqachon?”

“Yo'q,” dedi Holmes kulib.

“Qoldirgan xatim haqiqiy edi. Buni yozayotgan paytim o‘lishim mumkin deb o‘ylagan edim. Professor Moriarty meni sharsharaning chetigacha kuzatib bordi. U meni o‘ldirishni xohlashini bilar edim. Men undan o‘limimdan oldin sizga xat yozib qoldirishni so‘radim. Yozib bo‘lgach, uni sigaret qutisida qoldirdim. Keyin Moriarty men tomon yugurdi. U meni ham o‘zi bilan sharsharadan qulashimga umid qilardi. U qasosidan zavqlanib o‘lishni istardi. Biroq men ham anoyilardan emasman, Baritsu- yapon jang san’atini bilaman. Qisqa olishuvdan so‘ng men Moriartyning qo‘lidan qutildim va u yolg‘iz jarlikka quladi.

“Ammo oyoq izlari!” deya qichqirdim. “Men axir sharshara yoqasida ikki xil oyoq izlarini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim va hech kim ortga qaytmagan edi.”

“Professor Moriarty g‘oyib bo‘lgan payt, bu men uchun ajoyib imkoniyatligini bilar edim. Chunki meni o‘dirishni istovchi faqat Moriarty emas edi: ular uchta va hammasi xatarli kishilar edi. Dunyo meni o‘lgan deb bilishi yaxshi g‘oya degan qarorga keldim. O‘zimdan iz qoldirmaslik uchun qoyaga tirmashib chiqdim. Bu shubhasiz to‘g‘ri yo‘l edi. Cho‘qqiga chiqish juda ham qiyin bo‘ldi, hattoki, bir- ikki marotaba quladim ham, ammo nihoyat so‘ngida buni uddaladim. Men u yerga yashiringan holda siz va politsiya tergov ishlarini olib borayotganligingizni kuzatib turdim. Qachonki, barchangiz shaharga qaytganingizda, men Moriartyning hamtovoqlaridan birini ko‘rdim, u boya sizga aytgan uchta xatarli kishilardan biri edi. U mening qochib ketayotganimni ko‘rdi va Moriarty bitira olmagan ishni nihoyasiga yetkazishni xohlar edi. Cho‘qqidan men tomonga qarata toshlar otishni boshladi. Men qochishga muvaffaq bo‘ldim va rejasiz Florensiya tomon yo‘l oldim.

“Men akam Maykroft bilan bog‘landim. Faqatgina u meni tirikligimdan xabardor edi. Pulga muhtoj edim, shuning uchun unga aytishga majbur bo‘ldim. Kechiring, Vatson, barcha meni o‘lgan deb bilishi juda muhim edi. Siz mening o‘limim haqida ishonchli hisobot yozishingiz uchun avval o‘zingiz bunga chinakam ishonch hosil qilishingiz kerak edi. Florensiyadan keyin, ikki yil Tibetda bo‘ldim va so‘ngra Dalai Lamaga tashrif buyurdim. Persiaga sayohat qildim, Makkaga bordim va nihoyat Fransiyaga kelganimda Park Leyndagi fojea haqida o‘qib qoldim va zudlik bilan Londonga qaytim, mana ko‘rib turganingizdek men shuyerdaman.”

Palkovnik Sebastian Moran.

O‘z hikoyasini tugatib: “Qani yuring Watson, qiladigan ishlarimiz bor.” dedi Holmes. Foytunga chiqib, qorong‘u ko‘cha tomon yo‘l oldik. Kissamda qurol, yuragim esa sarguzasht o‘yida dukkillab urardi. Foytun Beyker ko‘chasi yaqiniga to‘xtadi va Holmes meni bo‘m- bo‘sh uy tomonga boshladi. Cho‘ntagidan kalitni olib, eshikni ochdi va zinadan katta, bo‘sh qorong‘u xonaga ko‘tarildik.

“Nima uchun bu yerda ekanligimizni bilasizmi?” deya pichirladi u.

“Yo‘q,” deb javob berdim.

“Bu uy Beyker ko‘chasidagi eski uyimizning qarshisida joylashgan”, dedi u.

“Derazadan qarang, Watson. Ko‘radiganingiz sizni hayron qoldirishi aniq.”

Men oynadan tashqariga qaradim va ko‘chaning narida joylashgan Holmesning eski xonasining derazasini ko‘rdim. Xonada yorqin chiroq yonib turar, pardalar esa tushirilgan edi. Shu payt, parda ortida bir kishining soyasi ko‘rindi. Men hayratdan dong qotdim, chunki bu siymo menga juda tanish edi. Uning betakror qiyofasini adashtirish imkonsiz edi... Bu Holmesning o‘zi edi!

“Bu Fransiyalik rassom yasagan haykalim,” dedi Holmes sekin kulib.

“Londonga qaytgach, Beyker ko‘chasiga bordim. Avvaliga meni ko‘rib Hudson xonim qattiq hayratlandi, keyin esa o‘ziga kelgach, mana endi mening ko‘rsatmalarimga amal qilmoqda.”

“Lekin nima uchun haykalni deraza oldiga joylashtirdingiz?” deb so‘radim.

“Sababi eski dushmanlarim meni hali ham ta‘qib qilyapti. Ular hamon tirik ekanligimni bilishadi. Beyker ko‘chasida ekanligimda ulardan biri uyimni kuzatib turganini payqadim. Uyda bordek ko‘rinishim uchun parda ortiga haykalimni qoydim. Bugun tunda meni ta‘qib qiladigan odam, butun Londondagi eng xavfli odam, Watson. Biroq, bilmaydiki, aslida biz uning izidan tushganmiz.”

Yana bir bor derazadan qaradim va qichqirgancha: “Holmes! U harakatlanyapti.” dedim.

“Albatta, harakatlanadida. Axir men Hudson xonimga uni har besh daqiqada o‘rnidan siljitib turishini ta‘kidlaganman. U cho‘kkalagan holda bu ishni bajaradi, shunda uning soyasi oynadan ko‘rinmaydi.”

Oradan ikki soat vaqt o'tgach, Holmes qo'limdan tutib, xonaning qorong'u burchagiga boshladi. Kimningdir zinadan chiqayotganini eshitdim. Eshik ochilib yopildi. Zimistonda kimningdir sharpasi ko'rinardi. U deraza oldiga bordi va oynani ochdi. Kissasidan qurol olib, Holmesning haykalining soyasini mo'ljalladi va o'q uzdi. Quroldan tovush chiqmadi. Shu onda, Holmes boyagi kishining ustiga huddi yo'lbarsdek sakradi. Qatil katta yoshli odam bo'lishiga qaramay, kuchli va baquvvat edi. U abjirlik bilan Holmesning bo'ynidan bo'g'ib oldi. Tezda qurolimni olib, qatilning peshonasiga tiradim. U yerga cho'kkaladi.

“Lestrاد!” qichqirdi Holmes.

“Shu yerdaman janob Holmes,” deya baqirdi, zinadan yugirib kirganicha Inspektor Lestrاد. Uning oldida ikkita politsiya xodimi ham bor edi.

“Qaytganingizni ko'rish yoqimli, janob.”

Politsiya jinoyatchini qo'lga olgach, Inspektor Lestrاد uning yuziga sham tutdi. Yuzi qarilikdan ajin bosgan, shafqatsiz ko'k ko'zlari bilan Holmesga nafrat va hayrat aralash boqib turardi. “Sen iblis!” u baqirib yubordi. “Sen ayyor, juda ayyor iblissan!”

“Salom, palkovnik,” dedi Holmes. “Sizni ko'rish baxtiga Reyxenbax sharsharasidagi o'sha kundan beri muyassar bo'lmagan edim.” Keyin u men va Lestrاد tomon yuzlandi va dedi: “Janoblar, keling sizlarga palkovnik Sebastian Moran haqida so'zlab bersay. Palkovnik bir vaqtlar Britaniya Hindiston armiyasining a'zosi bo'lgan va uyerda yo'lbars ovlashdagi mahorati bilan mashhur edi.” Moran Holmesga tikilshda davom etdi. Uning yovuzona ko'zlari unga yo'lbarsga o'xshash qiyofa berardi. Holmes palkovnikning to'pponchasini yerdan oldi. “Ajoyib qurol,” dedi u. “Bu uzoq masofadan tovushsiz ota oladi.”

“Agar aytadigan boshqa gapingiz bo'lmas, janob, mahbusni politsiyaga olib ketamiz.” dedi Lestrاد.

“Qanday ayblov qo'yiladi?” so'radi Holmes.

Lestrاد hayrat bilan qaradi. “Albatta, uni janob Sherlok Holmesni o'ldirishga uringanlikda ayblaymiz,” dedi u.

“Yo'q, odamlar meni bilishini istamayman. Tabriklayman Lestrاد! Siz uni qo'lga oldingiz!”

“Ammo... kimni, janob Holmes?”

“Siz butun London qidirayotgan marhum Ronald Adairning qotilini qo‘lga tushurdingiz! Palkovnik Moran Hindiston Armiyasidan ketganidan beri, qimor o‘yinlarida qalloblik qilib pul yutib kelmoqda. Shubhasiz Adair buni payqab qoladi va gullab q‘ymasligi uchun palkovnik uni o‘ldiradi. O‘sha tunda Adair o‘z xonasida do‘stlaridan qancha qarzi borligini hisoblayotgan edi. U halol odam edi. Sherigining insofsizligidan kelgan pulni o‘zida saqlashni istamadi. Hisob- kitob qilayotgan payti to‘satdan onasi kirib qolmasligi uchun eshikni qulflaydi. Palkovnik xonaga kirmaydi, balki mana shu miltig‘i bilan ko‘chaning narigi tomonida turib ochiq deraza orqali uni otib tashlaydi. Mana, Lestrade: jinoyatchi, qurol va jinoyatning sababi!” Yuring Watson! Uyga qaytaylik. Hudson xonim bizni kutyapti.

TASLIM BO‘LMANG

Ingliz tilidan
Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi
indonez-ingliz guruhi talabasi
Saodat Rahmatullayeva tarjimai

Qadim zamonlarda, bir qishloqda Rodni ismli bola yashar edi. U oilasi bilan juda baxtli va hayotidan mamnun edi, lekin afsuski, uning bu baxtiyorligi uzoqqa cho‘zilmadi. Sababi Rodni va uning qishloqdoshlarini qattiq qurgoqchilik duch keldi. Negaki, ular yomg‘ir umid bilan emas, balki umidsizlik bilan kutishar edi, shu sababdan ularning omadlari kelmadi. Qurgoqchilik natijasida barcha ekinlar, yerlar va hatto daraxtlar ham qurib qoldi, buning oqibati hayvonlarga ham ta’sirini ko‘rsatmay qolmadi, ya’ni qoramollar ham birin-ketin o‘la boshladi. Yomg‘ir yog‘mayotganligi sabab soy asta-sekin qurib borardi.

Bir kuni kechasi, Rodni qishloqdoshlarini uchrashuvga chaqirdi va bu uchrashuv chog‘ida u shunday dedi: “Do‘stlar, biz hammamiz yoshlikda bobo va buvlarimizdan qishlog‘imizdan o‘qib o‘tadigan yer osti daryosi haqida ertaklarni ko‘p bora tinglaganmiz. Nega biz hozirda buni tekshirib

ko‘rmaymiz? Qishloq aholisi bu taklifga rozi bo‘lishdi va birgalikda qazishni boshlashdi.

Ular bir necha kun qazishdi, biroq oradan ko‘p o‘tmay charchab to‘xtab qolishdi. Biroq Rodni umidini uzmani va qazishni davom ettirdi hatto qishloqdoshlar “Bo‘ldi endi taslim bo‘l” deyishsa ham. U esa bunga javoban: “Xudo mendan yordamni ayamayapti va yo‘limga yo‘l ko‘rsatayapti” deya qazishni yana to‘xtatmadi. Kunlarning birida Rodni yetarlicha chuqur qaziganda, vanihoyat u suvni ko‘rdi. Uning bu murosasiz taslim bo‘lmagan harakati va murosasiz butun qishloqni qutqardi. Bu voqeadan so‘ng, Rodni qishloq aholisi quyidagicha: “Hech qachon osongina taslim bo‘lmaylik” – deya maslahat berdi. Endi ular hech qachon suvdan tanqislik qilmas. Negaki agar ularda yana qandaydir muammo tug‘ilsa, barcha qishloq ahli yig‘ilib, bir yoqadan bosh chiqarib, ana o‘sha muammoni yechimini topishardi.

QUVONCH

Anton Pavlovich Chexov

Rus tilidan

Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi

indonez-ingliz guruhi talabasi

Farangiz Ne‘matova tarjimasi

Tungi soat o‘n ikki edi.

Mitya Kuldarov nihoyatda hayajonlangan va sochlari to‘zg‘igan holda, ota-onasinikiga hovliqib kirib qoldi-da, uyma-uy ildamlilik bilan yugura boshladi. Ota-onasi allaqachon uxlashga yotgan edilar. Singlisi to‘shakda yotgan xolda, romanning so‘ngi saxifasini o‘qib tugatardi. Gimnazist ukalari esa uyquda edilar.

— Qayerdan kelding? — deyishdi ota-onasi hayron qolib. — Senga nima bo‘ldi o‘zi?

— Ex, asti so‘ramang! Hech kutmagandim! Bu... bu yetti uxlab tushimga kirmagan edi!

Mitya baxtiyorlikdan madori qochgan odam singari, xaxolab kulib, kresloga o‘tirib oldi.

— Yo‘g‘a, bo‘lishi mumkin emas! Sizlar tasavvur ham qila olmaysiz! Buni qaranglar!

Singlisi yotog‘idan sakragan xolda, ustiga ko‘rpa tashlab, ukasining oldiga keldi. Gimnazist ukalari ham uyg‘ondi.

— Senga nima bo‘ldi o‘zi? Rangingda rang qolmabdi! —deya xavotir ila so‘radi onasi.

— Bu xursandchilikdan, onajon! Axir, endi butun Rossiya men haqimda biladi! Shu mahalgachan faqat sizlarga bu dunyoda Dmitriy Kuldarov degan kollejlilik registrator borligini bilgan bo‘lsangiz, endilikda butun Rossiyada taniqli insonga aylandim, onajon! Oh, Xudoyim!

Xursandchilikdan ichiga sig‘magan Mitya, lop etib o‘rnidan sakragan xolda barcha xonalarni qayta aylanib chiqib, o‘z joyiga o‘tirgach, otasi undan bo‘lib o‘tgan voqeani tushuntiribroq gapirib berishini so‘radi.

— Sizlar, xuddi yovvoyi hayvonlar kabi yashaysizlar. Gazeta o‘qimaysizlar, yozilganlarga e‘tibor bermaysizlar. Ahir, gazetalarda juda ko‘p ajoyib xabarlarni borligini bilsangiz edi! Biron voqea ro‘y berishi bilan, darrov xammaga ayon bo‘ladi, gazetadan hechnarsani yashirib bo‘lmaydi! Qanday baxtliman! Axir, shu mahalgacha gazetalarda asosan mashhur odamlarni yozishgan bo‘lsa, ana endi men xakimda xam maqola chop etishibdi!

— Qo‘ysangchi, qayerda?

Otaning yuzi xayratdan o‘zgardi. Buni ko‘rgan onasi butga qarab, cho‘qinib oldi. Gimnazist ukalari esa tungi kalta ko‘ylaklarida o‘rinlaridan sakragan holda akasining oldiga keldilar.

— Ha-da! Men haqimda gazetaga yozishgan! Endi meni butun Rossiya taniydigan bo‘ldi! Ona, bu gazetani esdalik uchun saqlab qo‘ying. Ora-orada o‘qib turamiz. Qaranglar!

Mitya gazetani cho‘ntagidan chiqargan holda, otasiga ko‘k qalam bilan chizib qo‘yilgan joyni barmog‘i bilan ko‘rsatgach, otasiga buyruq ohangida:

— O‘qing! - dedi.

Onasi yana bir bor cho‘qinib olgach, otasi ko‘zoynagini taqib, o‘qishni boshladi:

«29-chi dekabr, kechqurun soat o‘n birda, kollejlilik registrator Dmitriy Kuldarov...

— Ko‘ryapsizmi? Davom eting!

...kollejlilik registrator Dmitriy Kuldarov Maliy Bronniy ko‘chasida joylashgan Kozixinning uyidagi pivaxonadan mast holatda chiqayotganda...

— Bu men, Semyon Petrovich bilan edim... Hammasini ipidan ignasigachan yozgan-a? O‘qishda davom eting!

...mast holda qoqilib ketib, Yuxnov uyezdi, qishloqlik Ivan Drotov degan dehqon chanasining oti tagiga yiqilib tushgan. Qo‘rqib ketgan ot, Kuldarovning ustidan sakrab o‘tib, Moskvali savdogar Stepan Lukov o‘tirgan chanani uning ustidan sudrab o‘tgach, ko‘cha tomon yugurib ketdi. Ot qorovullar tomonidan qo‘lga olingan. Hushidan ketgan Kuldarov, avvaliga politsiya mahkamasiga olib borildi va shifokor ko‘rigidan o‘tkazildi. Yelkasiga kelib tekkan zarba...

— Shoti yelkamga kelib urgandi. Uyog‘ini o‘qing-da!

...yengil jaroxat bo‘lib, unchalik shikast yemagan edi. Ro‘y bergan nohush voqea haqida protokol tuzildi. Jabrlanuvchilarga tez tibbiy yordam ko‘rsatildi»...

— Yelkangga latta ho‘llab bos deyishdi. Endi ko‘rgandirsiz? A? Mana, biz shunaqa odammiz! Endi dovrug‘im butun Rossiya bo‘ylab ketdi! Menga bering gazetani!

Mitya otasining qo‘lidan gazetani tortib olib, ikki buklab cho‘ntagiga soldi.

— Makarovlarnikiga borib, ularga ham ko‘rsatib kelaychi... Hali yana Ivanitskiylar ham ko‘rishi kerak, Nataliya Ivanovna va Anisim Vasilevichlar... Mitya kokardiyasi bor furajkasini boshiga kiyib, sevingan va gerdaygan holda, uydan yugurib chiqib ketdi.

DOKTOR MARK

Rus tilidan
Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi
indonez-ingliz guruhi talabasi
Farangiz Ne`matova tarjimasi

Doktor Mark onkologiya sohasining taniqli mutaxassisi edi. Kunlarning birida u boshqa shaharda bo‘lib o‘tadigan anjumanda qatnashish uchun aeroport tomon yo‘l oldi, qayerda-ki uning ko‘p yillik tibbiy tadqiqotlari uchun taqdirlashlari kerak edi. Biroq, samolyot havoga ko‘tarilganidan bir soat o‘tar-o‘tmas, texnik nosozlik tufayli yaqin aeroportga favqulodda qo‘nishiga to‘g‘ri keldi.

Shifokor darhol ijaraga mashina olib, anjuman tomon yo‘l oldi. Biroq, u yo‘lga otlanganidan ko‘p vaqt o‘tmay, ob-havo yomonlashib, kuchli bo‘ron boshlandi. Yomg‘ir tufayli navigator internetdan mahrum bo‘lgach, u yo‘lidan adashganini ikki soat vaqt o‘tgach anglab etdi. Nihoyatda och qolgan va charchagan doktor tunash uchun joy izlashga qaror qildi. Natijada, u eski va kichik bir uyga duch keldi. Chorasizlikdan mashinadan tushib, eshikni taqillatdi.

Eshikni bir ayol ochdi. U bo‘lgan voqeani tushuntirib, ayolning telefonidan qo‘ng‘iroq qilib olishni so‘radi. Ammo, ayolning telefoni yo‘qligi sababli, doktorni uyiga taklif qilib, ob-havo yaxshilanmagunicha o‘tirib turishi mumkinligini aytdi. Holdan toygan doktor ayolning taklifini qabul qilib, ichkariga kirdi. Ayol unga issiq choy qo‘yib, borib namoz o‘qishini aytdi.

Doktor Mark jilmayib, u barcha narsaga faqat mehnatsevarlik orqali erishish mumkinligini aytdi. Choy ichib o‘tirgan shifokor shamning xira nurida chaqaloq beshigi yonida ibodat qilayotgan ayolni kuzatgach, uning yordamga muhtojligini tushundi.

Ayol ibodatini tugatgach, doktor undan Xudodan aynan nimani so‘rab iltijo qilganini, nahotki Xudo ayolning duolarini ijobat qilishi haqida ishonchsizlik bilan so‘radi.

Ayol mahzun jilmayib dedi:

— Beshikdagi go‘dak mening o‘g‘lim, u kamdan-kam uchraydigan saraton turiga chalingan. Faqat birgina shifokorgina uni davolay oladi, uning ismi Mark. Ammo, farzandimni davolatishim uchun menda yetarlicha mablag‘ yo‘qligiga qaramasdan, bundan tashqari, Doktor Mark boshqa shaharda istiqomat qiladi. Xudo hali iltijolarimga javob bermadi, lekin ishonaman-ki, u albatta yordam beradi... va hech narsa Xudoga bo‘lgan e‘tiqodimni buzolmaydi.

Hayratda qolgan doktor Mark taajjubdan yig‘lab yubordi. U pichirlab:

— Alloh buyukdir... — dedi.

Doktor, bugun boshidan kechirgan barcha voqealarni birma-bir esladi. Samolyotdagi nosozlik, uning yoʻldan adashishiga sabab boʻlgan yomgʻir; va bularning barchasi Xudo nafaqat ayolning duosini ijobat qilganligi, balki unga moddiy dunyodan chetga chiqib, ibodatdan boshqa hech narsasi yoʻq kambagʻal, baxtsiz insonlarga yordam berish imkoniyatini bergani uchun sodir boʻlganini anglab etdi.

GRISHA

Anton Pavlovich Chexov

Rus tilidan
Xalqaro jurnalistika yoʻnalishi
indonez-ingliz guruhi talabasi
Farangiz Neʼmatova tarjimai

Bundan roppa-rosa ikki yilu sakkiz oy ilgari dunyoga kelgan jajji, doʻndiqqina Grisha ismli bolakay enagasi bilan birga bulvar boʻylab sayr qilmoqda. Bolaning egnida uzun moʻynali palto, boʻynida sharf, boshida paxmoqli tugma qadalgan katta qalpoq, oyogʻida esa issiqgina kalish. Jazirama issiqdan nafasi siqilgan, ustiga-ustak aprelning qaynoq quyoshi bolaning naqd qovoqlari orasidan oʻtib, koʻzlarini qamashtiradi.

Bolaning qoʻpol, noaniq hamda dadilsiz tashlayotgan har bir qadami butun gavdasida uning haddan tashqari chuqur hayrat ogʻushida ekanligini ifodalar edi.

Shu paytgacha Grisha faqat toʻrt burchakdan iborat olamni bilar edi. Uning bir burchagida yotogʻi joylashgan, ikkinchisida enagasining sandigʻi, xonaning uchinchi va toʻrttinchi burchaklarida kursi bilan shamchirogʻ yonib turardi. Bordiyu agar bolakayning yotogʻi ostiga nazar tashlasangiz, bir qoʻli singan qoʻgʻirchoq bilan doʻmbira diqqatingizni tortishi shubhasiz, bundan tashqari enagasi sandigʻining ortida turli-tuman buyumlarning son-sanogʻi yoʻq: ip gʻaltaklari, qogʻoz parchalari, qopqoqsiz qutilar hamda singan oʻyinchogʻi. Bu olamda Grisha va enagasidan tashqari, koʻpincha uning onasi ham mushugi ham boʻlib turadi. Onasi xuddi qoʻgʻirchoqqa, mushuk esa otasining poʻstiniga oʻxshaydi. Illo poʻstinning na koʻzi va na dumi bor. Bolalar xonasining yoʻlagi

ovqatlanib, choy ichib o'tiradigan xonaga boshlaydi. Xonada devorga ilingan soat bilan Grishaning baland bo'yli kursisi bor. Soatning mayatnik silkib, bong urishdan boshqa ishi yo'q edi. Oshxonadan qizil kursilar bilan jihozlangan xonaga o'tish mumkin. U yerga to'shalgan gilamning qoramtir dog'i sababli, Grishaning uyidagilari hali-hanuz unga barmoq o'qталishardi. Oshxonaning orqa tomonida yana bir sirli xona mavjud bo'lib, u yerga kirish man etilgan edi. Xonada faqatgina bolakayning otasining sharpasi ko'rinardi, u nihoyatda sirli shaxs edi. Grishaning onasi hamda enagasi uni doimo oq yuvib oq tarar, mehr bilan g'amxo'rlik qilardilar. Biroq, otaning vazifasi nimadan iboratligi noma'lum edi. Oilada yana bir sirli shaxs bor. U Grishaga baraban sovg'a qilgan xolasi edi. U goh paydo bo'lib, goh g'oyib bo'lardi. Grisha uni har yerdan izlar: goh yotog'i ostidan, goh sandiqning ortidan. Biroq, uni hech qayerdan topa olmasdi...

Ko'zlarni qamashtiruvchi bunday go'zal, quyoshli zaminda shu qadar ko'p otalar-u onalar, xolalar bor-ki, qay birining quchog'iga chopib borishni bilmaysan.

Ammo, hammasidan ham eng ajablanarlisi bu otlar. Grisha ularning harakatlanayotgan oyoqlariga termulib, hech narsani fahmlay olmasdi. Bolakay uni hayratga solgan hodisani tushunish maqsadida enagasiga yuzlandi, biroq ayol bir so'z ham demay jim turardi.

Kutilmaganda bolakayning qulog'iga dahshatli gursillagan qadam tovushlari eshitildi... Qirmizi olmadek yuzlari qizargan, qo'ltiqlariga hammom supurgisi qistirilgan bir to'da askarlar to'xtovsiz Grisha tomon ildam qadam tashlab kelmoqda. Vahima-yu qo'rquvdan eti jimirlagan Grisha, enagasiga savol tariqasida: bu xavfli emasmi? deya yuzlandi. Ammo, enaga na sarosimaga tushadi va na vahima qiladi. Demak, bundan kelib chiqadi-ki, atrofda hech qanday xavf yo'q. Grisha askarlarning qadamini nigohi bilan kuzatib, o'zi ham huddi ular kabi sekin-astalik bilan qadam tashlar edi.

Shu payt, tumshug'i uzun, tillari osilgan ikkita katta mushuk bulvardan oshib o'tadi. Grisha ham ularga ergashmoqchi bo'lib, mushuklarning ortidan chopa boshlaydi.

-To'xta! — deya enagasi shahd bilan Grishaning yelkasidan tutadi. - Qayerga ketyapsan? Nega sho'xlik qilyapsan?

Ko‘chaning bo‘yida qandaydir enaga ayol apelsinlar solingan kichik tog‘ora bilan o‘tirardi. Grisha uning yonidan o‘tayotib, indamay o‘zi uchun bir dona apelsin oldi.

—Nega bunday qilyapsan? Ahmoq! — deya g‘azablangan enagasi bolaning qo‘liga bir urib, apelsinni qo‘lidan tortib oldi.

Grisha oyog‘i ostida yaltirab yotgan siniq shisha bo‘laklarini olmoqchi bo‘ldi-yu, ammo, yana kaltak eb, dakki eshitishidan hayqidi chog‘i.

—Salom! — deb to‘satdan kimningdir baland, dag‘al ovozi bolakayning qulog‘iga chalindi. Yonida ko‘ylagining tugmalari yaltillagan, baland bo‘yli bir kishini ko‘rdi.

Salomalikdan so‘ng, erkak bilan enaga u yoq bu yoqdan suhbatlasha boshlashdi. Suhbatlaridan Grishaning ko‘ngli ko‘tarildi. Moviy osmonda charaqlayotgan quyosh nuri, aravalarning sho‘vqini, ko‘ylakning yorqin tugmalari-bularning barchasi hayratga soluvchi, yangi va xavfsiz ediki, bundan qalbi zavqlangan bolakay, xursandchilikdan xaxolab kular edi.

—Yur kettik, kettik! — deya qichqirdi Grisha, yaltiroq tugmali kishining paltosini ketidan tortib.

— Qayoqqa boramiz? — deb savol bilan yuzlandi erkak.

— Qani kettik! — deya qat‘iy turib oldi Grisha.

Bolakayning hayolidan o‘zi bilan otasi, onasi va mushugini ham birga olib ketish o‘yi o‘tdi-yu, biroq uning tilidan aytilayotgan so‘zlarning bari buning aksi edi.

Bir ozdan so‘ng enaga xiyobondan burilib, Grishani qor bosib yotgan katta hovliga yetaklab kirdi. Yaltiroq tugmali erkak ham ular bilan birga edi. Ular qor ko‘lmaklarini ehtiyotkorlik bilan aylanib o‘tib, iflos, qorong‘i zinapoyalar bo‘ylab xonaga kirdilar. Uyni tutn bosgan, qandaydir ayol pechka yonida turib kotlet pishirmoqda. Oshpaz ayol enaga bilan quchoqlashib, erkak bilan birga o‘tirib, oxista ovozda gaplasha boshlashdi. Burkab o‘ralgan Grisha isib ketib, nafasi bo‘g‘ila boshladi.

“Bu nimadan ekan?” — deya o‘ylaydi u, atrofga alanglab.

Tepada is bosgan qora shiftni, o‘chog‘i katta pechka hamda otashkurakni ko‘radi ...

—O-n-a-j-o-n! — deya harhasha qila boshladi bolakay.

—Xo‘sh, xo‘sh, xo‘sh! Shoshmay tur—deya blakayni jerkib berdi enaga.

Oshpaz ayol stolning ustiga bitta shisha ichimlik bilan uchta stakan hamda pirogni olib kelib qo'ydi. Uchcho'vlari birgalashib qadah ko'tarib, bir necha marta ichishdi. Haligi erkak avval enagani, ketidan esa oshpaz ayolni quchoqladi. So'ngra uchcho'vi jo'r bo'lib asta-sekin qo'shiq kuylashni boshlashdi.

Grishani pirogni tatib ko'rgisi kelayotganini bilib, unga faqat bir bo'lagini berdilar... Bolakay birogini yeb, enagasining ichishini kuzatardi... Shundan so'ng, unda ham ichishga ishtiyoq uyg'ondi.

-Menga ham bering! — deb oshpazdan yalinib so'radi.

Oshpaz ayol unga o'z qadahidan bir qultum ichirdi. Grishaning ko'zlari olayib ketib, qo'llarini silkitadi, ayol esa bolaning ahvolini ko'rib, kulib yubordi.

Uyga qaytib, Grisha onasiga, devorlarga va karovatiga qarab qayerda bo'lganligi va nimalarni ko'rganini birma-bir aytib berishni boshladi. U tili bilan emas, balki yuzi va qo'llari bilan gapirardi. U quyosh qanday porlashini, otlarning qanday yugurishini, dahshatli pechka qanday ko'rinishga ega ekanligi hamda oshpaz ayolni qanday ichganini jonli tasvirladi...

Kechqurun u hech uxlay olmadi. Supurgi ko'targan askarlar, katta mushuklar, otlar, shisha siniqlari, apelsin solingan tog'ora - bularning barchasi bir joyga to'planib, bolakayning miyyasini ezib tashlamoqda. U bir tebranib bir ag'anaydi, o'zida yo'q vijirlab, oxir oqibat hayajonlanishni ko'tara olmay, yig'lab yubordi.

Bolasining peshonasi ushlab ko'rgach ona: -Bolaning issig'i bor! — Nima sababdan bunday bo'ldi ekan? — deya ajablandi.

-Pechka! — deb yig'laydi Grisha. - Bu yerdan ket!

-Ehtimol, keraksiz ovqat yeb yuborgandir ... - deya taxmin qildi onasi.

Grisha, o'zi boshidan kechirgan yangi olam taassurotlari bilan to'lib toshib, onasining qo'lidan bir qoshiq kastor yog'ini ichar edi.

ONAMNING HIDI

Yapon tilidan

Dildora Shukurova tarjimasi

Odamning yoshi ulgʻaygani sayin uni bolalik xotiralari tez-tez yoʻqlay boshlar ekan. Kechagiday esimda, onam baliq ovidan qaytib kelgan otamni ochiq chehra va qandaydir koʻtarinki kayfiyatda qarshi olar, charchagan boʻlishiga qaramay, otamning yuzida ham tabassum yugurardi. Bunday vaqtlarda uyimiz quyosh nurlariga toʻlganday boʻlar va biz hammamiz baxt nomli tuygʻu girdobida gir aylanardik. Bu lahzalar hayotimning eng baxtli onlari boʻlgani uchun mening jajji qalbimda abadiy muhrlanib qolgandi.

Har yili may oyida otam ikkimiz erta sahardan turib, qishlogʻimizning Rayden ibodatxonasi yonidagi doimiy Ayu baliqlarini tutadigan joyimizga borardik. Har gal baliq oviga ipak qurti boqishda ishlatiladigan katta bambuk savatlarimizni olib ketardik.

Oʻsha vaqtlarda shunday koʻp baliq tutardikki, mening kichkinagina savatim tezda toʻlib qolardi.

Xuddi kechagidek yodimda, oʻshanda otam ikkimiz baliq ovlash joyiga yetib borishimiz bilan katta bambuk savatini olib, uni suvning sayoz, baliqlar toʻp-toʻp boʻlib suzib yuradigan joyiga botirib qoʻydik. Savatdan ikki tomonga ip tortib, unga oqqush patlarini ildik (bu qarmoqning bir turi boʻlib, yemakning oʻrniga qush patlari ilinadi). Har toʻlqin kelib urilganda, oqqush patlari ikki-uch daqiqalik masofaga qadar chayqalardi. Qarmoqqa baliqlar ilindi. Tutilgan baliqlarni savatimizga olib kelib toʻkdik.

Shunday qilib, ikki soatdan soʻng, savatimiz baliqlar bilan limmo-lim toʻldi.

Qornim juda ochib ketdi.

“Onam hozir kelib qolsa kerak-a”, - dedim baliq toʻrlariga tikilib turgan otamga qarab. Chunki, qachon qornim ochgani haqida oʻylasam, onam ovqat olib kelardilar. Shu payt jarlik tepasidan: “Hoʻsh, baliq tutildimi?”, - degan onamning yoqimli ovozi eshitildi va ortga oʻgirilganimda ular menga qarab jilmayib turardilar.

Onam qiyalikdan pastga tushib kelib, qoʻllaridagi qozon va xaltani mayda toshlar ustiga qoʻydilar. Katta va yassi xarsang tosh stol vazifasini oʻtadi.

Onam bizga tushlik dasturxonini tayyorlab berdilar. Keyin uchchalamiz dengizning mayin shiviri ostida ovqatlandik. Xaltada kecha tutilgan baliqlar pishirib kelingandi. Atrofda baliqning ajib hidi kezib yurardi.

O'sha-o'sha men, shu yoshimga yetgunimga qadar qaynatilgan baliq hidini tuysam, go'yo onamning hidini his qilgandek bo'laman.

BOLA BOSHIDAN

Turk tilidan

Marjona Rahmonova tarjimasi

Buloq boshiga suvga chiqqan uch ayol suhbatlashib qolishibdi. Gap gapga ulanib, mavzu farzandlarga borib taqalibdi. Shunda ular bir-biriga gal bermay bolalarining fazilatlarini sanay ketibdilar.

Birinchi ayol:

- Mening o'g'lim shunday qobiliyatliki, unga dorbozlikda hech kim tenglasha olmaydi. Uning dorda ko'rsatgan hunarlarini ko'rsangiz edi og'zingiz "lang" ochilib qoladi, - debdi.

Ikkinchi ayol esa o'g'lining ovozi ni maqtay ketibdi:

- Uning ovozi bulbulga o'xshaydi. Yer yuzida bunday shirali ovozni topa olmaysiz. Bu ham ollohning inoyati bo'lsa kerak, - debdi.

Uchinchi ayol bir chekkada turib, ularning suhbatiga qo'shilmayotganidan xayron bo'lib unga yuzlanishibdi:

- Sen nega o'g'lingni maqtamayapsan? Uning ham biron bir fazilati bordir.

- Yo'q, o'g'lim oddiy bola. Uning maqtashga arzigulik qobiliyati yo'q, - debdi istihola bilan uchinchi ayol.

Shundan so'ng suhbat o'z nihoyasiga yetibdi va ayollar uylari tomon ravona bo'lishibdi. Chelaklar og'ir bo'lgani uchun ular ora-orada to'xtab biroz dam ham olishibdi. Uyga yaqinlashganlarida esa ro'paralaridan shu atrofda o'ynab yurgan bolalari chiqib qolishibdi.

Onasini ko'rgan birinchi bola sakrab-sakrab turli xil hunarlar ko'rsata boshlagan ekan, hamma xayratga tushibdi. Ikkinchi bolaning qo'shig'ini eshitgan ayollarning ko'zlari yoshlanibdi.

Faqat uchinchi bola hech qanday hunar ko'rsatmay, yugurib kelib onasining qo'lidan og'ir chelaklarni olib, uyi tomon yurib ketibdi.

Shu orada turgan mo'ysafid choldan ham maqto'v eshitish niyatida boyagi ayollar:

- Otaxon, bolalarimiz yaxshi ekanmi? Ularning qobiliyatini ko'rdingizmi? Bu haqda nima deysiz? – deb so'rashibdi.

Bu savolga mo'ysafid biroz o'ylanib turib:

- Bolalaringizni bilmadimku, ammo ularning bittasi menda yaxshi taassurot qoldirdi. Uning chinakam erkak bo'lib yetishishiga ko'zim yetib turibdi. Qarang, u onasining og'irini yengil qilish uchun qo'lidan chelagini olib uyi tomon yurib ketdi. Buning uchun ham aql va farosat kerak, - deb javob beribdi.

ADABIYOT IXLOSMANDI

Aziz Nesin

Turk tilidan

Malohat Yoqubjonova tarjimai

Uyimizning ikkinchi qavatiga yangi qo'shni ko'chib keldi. Uning ko'chib kelishi oson bo'ldi-yu buyumlarni olib kelishi bir haftaga cho'zildi. Bilasizmi, hozirgi ko'p qavatli xonadonlar bizning eski uylarimizga o'xshamaydi. Ko'p qavatli uyda yonma-yon yashab bir-birini tanimaydigan, hatto ko'rganida salom-alik qilmaydigan qo'shnilar ham bor. Masalan, ikki yildan beri yonimdagi xonadonda yashaydigan malla sochli ayol pinhona uchrashuvlar uyushtirib yurganligi va oxir-oqibat uyini "bosishganini" gazetalardan o'qib, yoqamni ushlagandim.

Uyimizga yangi qo'shni ko'chib kelganidan men bexabar edim. Bir kuni ertalab uydan chiqib ketayotganimda devday bir kishi ro'paramda paydo bo'lib, shlyapasini qo'lga olib men bilan quyuq ko'rishdi. Uning salomiga alik oldimu yonidan o'tib ketishga shoshildim.

U esa tavoze bilan:

- Kamina Mo'min Ekrem O'zaner bo'laman, - dedi.

Va menga javob berishga imkon ham bermay so'zida davom etdi:

- Men yuqori qavatga ko'chib kelgan yangi qo'shningizman. Tanishganimdan bag'oyat xursandman. Bugun biznikiga keling, bir payola choy ustida suhbatlashamiz. Albatta keling, kutaman...

Biz Mo'minbey bilan yo'l ustida shu taqlid tanishdik. O'tkinchi bir tanishuv bo'lsa kerak degan xayolga borgan ham edimki, oqshom uning xizmatchisi eshigimni taqillatib keldi:

- Xo'jayin kelishingizni kutib o'tiribdilar. Chiqar ekansiz, - dedi u.

Qiladigan ishlarim ko'p bo'lgani sababli ensam qotdi. Ammo, buni sezdirmaslikka harakat qilib:

- Kechirasiz, hozir uyda mehmonim bor edi, - dedim.

Shundan so'ng, har oqshom Mo'minbey meni uyiga chaqiradigan bo'ldi. Mehmonga chiqsam bo'lardi, albatta. Vaqtim ham mazmunli o'tardi. Ammo, undan keyin men ham uni mehmonga chaqirishim kerak bo'lardi-da. Uyda esa o'tirish uchun to'rtta eski stuldan boshqa hech vaqo yo'q. Begona odamning oldida xijolat bo'lishdan yomoni bo'lmasa kerak. Lekin takliflar har kuni takrorlanavergach, bormasam qo'shnim meni qo'limdan tortib, majburlab uyiga olib boradiganday tuyula boshladi. Shuning uchun navbatdagi taklifdan keyin u yerga borishga ahd qildim.

Mo'minbeyning uyi nihoyatda did bilan jihozlangan bo'lib, nimasi bilandir ko'rgazma zalini eslatardi. So'nggi modeldagi muzlatgich, changyutgich, grammafon, kir yuvish mashinasi, elektrdan ishlaydigan xushtakli qozoncha, magnitafon, mikser va boshqa shunga o'xshash bir talay uy jihozlari xuddi yarmarkadagi pavilyonda qo'yib chiqilganidek uyni bezab turardi.

Dastlab Mo'minbey meni o'z kabinetiga boshladi. U yerga kirishim bilan javonlardagi qator qilib terib qo'yilgan kitoblar e'tiborimni o'ziga tortdi. "Bu safar adashdim chog'i" degan o'y ko'nglimdan o'tdi. Ammo, nimadir vaziyatning sun'iyligidan dalolat berar, Mo'minbeyning o'zi esa menga ustoz ko'rmagan muallimni eslatardi.

- Kaminaga intellektual muhit yoqadi, - dedi u jovon tomonga ko'z tashlab. Buning sababini xali-hanuzgacha tushunolganim yo'g'u, lekin uning bu gapida ham biroz sun'iylik sezilganday bo'ldi.

Suhbatimiz mavzusini o'zgartirish maqsadida uning nima ish bilan shug'ullanishi haqida so'radim.

- Tijorat bilan shug'ullanaman, - hozirjavoblik bilan javob berdi qo'shnim xuddi bu savolni avvaldan kutgandek.

Keyin Mo‘minbey o‘z she‘rlarini o‘qiy boshladi.

- Qalay, she‘rim sizga yoqdimi? – deb so‘radi u she‘rni o‘qib bo‘lgach.

- Juda yaxshi ekan, menga yoqdi, - iltifot ko‘rsatgandek javob berdim men.

Birozdan keyin uning she‘rini maqtaganim uchun afsuslanib ketdim. Chunki she‘rdan keyin she‘r o‘qildi, she‘rga esa hikoya ulandi...

Hikoya o‘qish yakunlangach:

- Qalay, hikoya yoqdimi? – deb so‘radi qo‘shnim.

Va kutilmaganda pyesa o‘qishga tushib ketdi. Usiz ham yuragim siqilib borayotgan edi, pyesa dard ustiga chiqqan chipqonday bo‘ldi.

Mavzuni o‘zgartirish uchun qo‘limni kitob javonida turgan kitobga cho‘zdim. O‘zim ko‘p yillik kitobsevar bo‘lishimga qaramay bunday boy kutubxonam yo‘qligidan afsuslanib o‘tirardim.

Xayolimni Mo‘minbeyning so‘zlari bo‘ldi:

- Ko‘rib turgan kitoblaringizning hammasi sovg‘a qilingan.

- Yo‘g‘-ye, - beixtiyor xayqirib yubordim men. - Kim sovg‘a qilgan?

- Kitob mualliflarining o‘zlari. Ma‘lumingiz bo‘lsinki, men hamma yozuvchi va noshirlar bilan shaxsan tanishligim bor. Ularning hammasi qadrdonlarim. Kam bo‘lishmasin, meni rosa hurmat qilishadi.

Hayratimning cheki yo‘q edi.

- Falix Rifqini bilasizmi? - deb so‘radi u.

- Eshitganman, - dedim.

Hamrohim javondan bitta kitobni olib:

- Mana bu uning sovg‘asi, - deya faxr bilan menga ko‘rsata boshladi.

Kitobni qo‘limga oldim. Falix Rifqining “Zaytun tog‘i”. Yozuvi ham bor.

“Janob Mo‘min Ekrem ukamga do‘stligimiz xotirasi sifatida taqdim etildi. Falix Rifqi.”

“Falix Rifqi “sifatida, etildi” kabi jumlar yozmasdi” degan fikr chaqmoqdek xayolimdan o‘tdi. “Yana kim biladi deysiz...”

- Bu esa Rashot Nurining sovg‘asi. “Choliqushi”. “Mo‘minbeyga xurmatlarim-la Rashot Nuri”.

- Kamina tijorat bilan shug‘ullanishimga qaramay, barcha mashhur yozuvchilar bilan do‘stman.

U yana bir kitobni olib menga uzatdi.

- Bu esa Roshen Eshrefbeyning ...

Va kitobning birinchi sahifasidagi yozuvini o‘qiy ketdi:

“Qadrdonim Mo‘minbeyga eng chuqur hurmatim qabuli o‘laroq Roshen Eshref Unaydin”.

Yoqub Qadrining “Yovvoyi”si, Holida Edipning “Pashshali oziq-ovqat do‘koni”... Hammasida mualliflarning o‘z qo‘li bilan Mo‘min Ekremga bag‘ishlovlari bor edi.

Javonni to‘ldirib turgan kitoblarning deyarli hammasi u kishiga mualliflar tomonidan yozib berilgan edi. Javonni ko‘zdan kechirar ekanman o‘zimning qachonlardir bir taxallus bilan yozgan romanimni ham ko‘rib qolsam bo‘ladimi?

Darrov birinchi sahifasini ochib ko‘rdim. Bu kitobda ham unga atalgan yozuv bor edi: “Muhtaram Mo‘min Ekrembeyga. hurmatla Xashan Yektash”. Birdan jahlim chiqib ketdi.

- Siz bu Xashan Yektashniyam taniysizmi? - dedim.

- Tanishligimiz bo‘lmasa kitobiga imzo ko‘yib, menga hadya qilarmidi? O‘tgan kuni ham shu yerda edi.

Xotini bilag‘onlikda eridan qolishmas, hatto eridan bitta ustunligi ham bor ekan, u Istanbul shevasida juda chiroyli gapirardi. Bunga keyingi uchrashuvimiz chog‘ida guvoh bo‘ldim.

Keyingi oqshomlardan birida kechki ovqatdan so‘ng ular yana meni qahvaga taklif qilishdi. Qolgan savollarimga javob olish maqsadida bordim. Suhbat chog‘ida:

- Buyuk shoirimiz Tofiq Fikrni ham tanisangiz kerak? – deya astalik bilan savol berdim.

Xotini erining oldiga tushib bidirlay ketdi:

- Voy, tanimay bo‘ladimi? Biz uni juda yaxshi ko‘ramiz. U ham bizni juda hurmat qiladi. Uyimizga ham tez-tez kelib turadi. Shoir men tayyorlagan zaytun yog‘li do‘lmalarni biram yaxshi ko‘radi.

Endi er-xotinning yolg‘onini fosh qilish vaqti kelgandi.

Men istehzoli kulib:

- Iya, xonim afandi, nimalar deyapsiz? Tofiq Fikret o‘lgan-ku, - dedim. Bu gapimdan ikkalasi ham uyalib qoladi deb o‘ylagandim. Ammo bu safar ham bunday bo‘lmadi.

- Ha-a-a, bekorga emas ekanda. Anchadan beri biznikiga kelmay qo‘ygandi, -dedi ayol kuyunchaklik bilan.

Eri esa:

- Men ham nega biznikiga kelmay ko‘yganiga hayron bo‘layotuvdim. Demak sho‘rlik o‘lgan ekanda? Eh, essiz, - deya zorlandi.

Qonim qaynab ketib:

- Tofiq Fikret vafot etganiga ellik yil bo‘lgan, - dedim shartta.

Bu gapimdan keyin bir muddat jimlik cho‘kdi.

Ikkalasi ajablanib, bir-birlariga qarashdi. Ularning bu holi bir necha soniya davom etdi xolos. Ayol darrov o‘ziga kelib:

-Voy xudo, vaqt shunaqangi tez o‘tayaptiki. Xuddi kechagidek..., - desa bo‘ladimi.

Churq etmadim. To‘g‘risi, bir so‘z aytarlik majolim ham yo‘q edi. Mo‘minbeyning nimalardir deb g‘o‘ldiragani qulog‘imga chalingaday bo‘ldi-yu xayr-xush qilib o‘rnimdan turdim. Eshik oldida to‘xtab:

- Ertaga kechqurun biznikida kutaman. Albatta kelinglar, - dedim.

- Bezovta qilmaymizmi? - dedi qo‘shnim ortimdan.

To‘g‘risini aytsam, shu issiqda mehmon kutish menga ancha malol kelayotgan edi. Ammo, bu yaramasni uyaltirib qo‘yish istagi ustun keldi.

Qahva ichib bo‘lingach sekingina gap boshladim:

- Mendagi kitoblar siznikichalik emas, lekin ularning ichida dastxat yozilganlari ham bor.

- Juda yaxshi, qani kitoblaringizni bir ko‘raylikchi...

Men kitob javonidan Ahmad Vefik poshshoning Molerdan qilingan tarjimalar kitobini olib Mo‘minbeyga uzatdim.

- Qani, o‘qib ko‘ringchi, Ahmad Vefik Posho menga nima yozgan ekan?

Qo‘shnimning nigohi kitobdagi yozuvga qadaldi.

“Sevimli Hashan bey o‘g‘limizga. Ahmad Vefik”.

- Bu Ahmad Vefik poshsho uchinchi Goldord qo‘shini qo‘mondoni bo‘lganmidi?

Javob berish o‘rniga “Balki endi tushunib yetib, sal uyalar”, degan o‘y bilan Naima Tarixiyning kitobini qo‘limga oldim.

- Buni ham ko‘ringchi, nima deb yozilgan ekan?

“Cheksiz muhabbatim nishonasi o‘larok ushbu asarim ojizona taqdim qilindi. Cheksiz hurmat va iltifot bilan Naima qulingiz”.

Yaramas yolg‘onchining yuziga qaradim. U o‘yga tolgandi. “Balki qilgan ishidan uyalayotgandir” degan fikr xayotimdan o‘tdi. U esa o‘ychan xolatdan chiqib:

- Bu Naim og'a deganingiz katta savdo markazlarida qahva tijorati bilan shug'ullanmaganmidi?

Indamadim. Agar og'zimni ochadigan bo'lsam, o'zimni tutib turolmay, yaramasni boshdan oyog'igacha gips qiladigan holatga tushirishim hech gap emas edi.

- Ammo, sizda uning mashhur asaridan yo'q ekanda, - dedi u.

Qo'limni tarjimalarga uzatdim. "Faust" chiqdi.

- Gyote bor, - dedim men. – Uning kitobida "Mening Hashanimga" degan yozuv bor.

- Kimning asari dedingiz? - deb so'radi u.

- Gyotening ...

Qo'lini chakkasiga tirab:

- "Got. Gote ... Gote", - deb bir necha marta takrorladi. - Bildim, u bir paytlar "Doch" avtomobillarining agenti bo'lmaganmi? – dedi.

Jinoyatchilar so'roq davomida o'zlari ko'zlagan ma'lumotlarini berib, "U yog'ini eslolmayman" deganlaridek, men ham u yog'ini eslolmayman. Ko'z oldim qorong'ilashib, nima qilib qo'yganimni bilmayman. Bir mahal o'zimga kelsam mahkamadaman. Qo'limda yirtilib ketgan Shekspirning kitobi. Mo'minbey yuz-qo'li tinalgan, qontalash bir holatda ro'paradagi kresloda o'tirgancha, "Hap shoshmay tur, seni qamatmasammi..." deb baqirgani qulog'imga chalindi.

Komissar menga qarata:

- Nima bo'ldi o'zi? Qani aytib bering-chi! - deya yuzlandi.

Qo'limdagi kitobni unga uzatib, muqovadagi Shekspirning suratini unga ko'rsatdim.

Komissar esa:

- Bu soqolli kim ekan? - deb so'radi.

- Shekspir! – dedim.

Bu yog'iga meni hech narsa ajablantirmay qo'ygandi.

- Ha, demak ajnabiy? – biroz o'ylanib turib dedi komissar.

- Inglizmi?..

- Nima ish qiladi?..

- Shoir, dramaturg, - dedim men.

- Qayerda yashaydi? Bu kishini qayerdan bilasiz? Tezda uning manzilini aytingchi!

Men najot izlaganday Mo‘minbey tomonga qarab:

- Iltimos, meni ushlang. Bo‘lmasa buni bir nima qilib qo‘yyaman, - deya yolvordim.

Komissar esa xonadagi ikki politsiyachiga qarata:

- Bunday ishlar bizning vakolatimizga kirmaydi, ularni siyosiy bo‘limga olib boring, - dedi...

YOLG‘IZLIK

Osamu Dazai

Yapon tilidan

Laylo Abdurahimova tarjimasi.

Har kuni ushbu temir yo‘ldagi kichik stansiyaga kimnidir kutib olish uchun kelaman. Ammo, uning kimligini o‘zim ham aniq bilmayman...

Har kuni xarid uchun bozorga chiqaman, qaytishda esa o‘sha bekat yonidan shunchaki o‘tib ketolmayman, stansiyaning sovuq o‘rindig‘iga o‘tirmaman, xaltachamni tizzamga qo‘yib, chiptaxona tomonga bezovta tikilib qolaman.

Har safar, turli yo‘nalishdagi poyezdlar platformaga kelganida, odamlar “to‘p-to‘p” bo‘lib sekin-asta yonimdan o‘tib ketadilar. Ular to‘xtashmaydi. Meni payqashmaydi ham.

O‘rindig‘im yonidan o‘tib ketishadi, xolos. Undan keyin maydonga chiqib, har kim o‘z yo‘liga ravona bo‘ladi. Men esa joyimdan jilmayman. Faqat ko‘nglimni qandaydir bezovtalik tirnaydi.

Birov ochiq chehra bilan menga so‘z qotsa ham, nima uchundir dahshatga tushaman. Yuragim “duk-duk” ura boshlaydi. Buning sababini o‘zim ham tushunmayman. Hattoki bu haqda o‘ylasam, ustimdan muzdek suv quyilganidek butun tanamni titroq bosadi, nafasim bo‘g‘iladi.

Ammo shunga qaramay, men hamon kimnidir kutaman. Kutishdan charchamayman. Har kuni shu yerda kelib, o‘rganib qolgan o‘rindig‘imga o‘tirib, kimnidir kutaveraman, kutaveraman... Kimligini o‘zim ham bilmayman.

Men har kuni intizor bo‘lib kutayotganim balki odam emasdir. Chunki, men tabiatan odamlarni u qadar xush ko‘rmayman. Yo‘q, aksincha, ulardan

qo‘rqaman. Gohida kimnidir uchratib, “Ahvollaringiz yaxshimi?”, “Ancha sovuq tushib qoldi” kabi so‘zlarni shunchaki yuzaki tarzda aytganimdan o‘zim ham uyalib ketaman. Negadir, mendanda yolg‘onchi inson bu dunyoda yo‘qdek tuyuladi. Shunday paytlarda qandaydir achchiq tuyg‘ular yuragimni kemira boshlaydi va men bu hayotdan bosh olib ketgim keladi.

Ba‘zan suhbatdoshim ham menga nisbatan haddan tashqari ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘ladi, U iloji boricha ko‘nglimga ozor yetkazmaslikka harakat qilib, yuzaki iltifot bilan cheklanib qoladi.

Uning gaplarini tinglar ekanman, bu yolg‘onchi dunyo ekanligiga yana bir bor imon keltiraman. Ajablanarlisi shundaki, bunday daqiqalarda dunyoda mehr-oqibat so‘nib borayotganini ich-ichimdan his qila boshlayman. Shuning uchun bo‘lsa kerak, men odamlar ichida bo‘lishni yoqtirmayman.

Avvallari zarur bir ishim bo‘lmasa, hech qachon do‘stlarimnikiga bormas edim. Uyda onam bilan o‘tirib, tikish-bichish bilan mashg‘ul bo‘lish menga ko‘proq yoqardi. Ammo, urush boshlangach, atrofimda bo‘layotgan voqealar girdobida aylanish o‘rniga uyda yolg‘iz xayolga cho‘mib o‘tirganim uchun o‘zimni aybdor his eta boshladim. Nima sabadandir butunlay tinchimni yo‘qotdim.

Men ham mehnat qilib, kimgadir foydam tegishini istadim. Ammo, buning hech bir chorasini topa olmay, borgan sari o‘zimga bo‘lgan ishonchni yo‘qota bordim. Bora-bora uyda tinch o‘tirolmaydigan bo‘lib qoldim, ammo ko‘chaga chiqsam, boradigan joyim yo‘qligidan yuragim battar siqilar edi. Shuning uchun do‘kondan kerakli narsalarimni xarid qilgach uyga qaytishdan oldin yana o‘sha bekatga borib, o‘zim o‘rgangan o‘rindiqlarda xayollarga cho‘milib uzoq vaqt o‘tiradigan odat chiqardim.

Birov yonimga kelib bexosdan menga so‘z qotsa nima qilaman? Qo‘rqib ketamanmi, yoki... Balki xursand bo‘larman. Balki unga butun borlig‘imni baxshida qilarman. Unday bo‘lsa tadqirim o‘zgarib ketarmidi?!

Bu kabi qarama-qarshi fikrlar va his-tuyg‘ular girdobida qalbim shu paytgacha noma‘lum bo‘lgan hayajonga to‘ladi va bo‘g‘ilishdan nafas olishim qiyinlashadi. Tirik yoki o‘likligimni ham anglamay, shirin tush ko‘rayotgandek o‘zimga nisbatan ishonchsizlikni his etaman. Shunday vaqtlarda bekat yonidan o‘tib ketayotgan odamlarning tartibsiz harakatiyu shovqin-suroni dahli yo‘qday, dunyo esa ko‘zimga zimiston bo‘lib ko‘rinadi.

Bu hayotdan nimani kutib yashayapman o'zi? Balki chetdan axloqsiz ayolga o'xshardirman. Ba'zan "Men hech kimga kerak emasman",- degan xayolga boraman va yuragim battar eziladi. Axir men o'zim uchun yashaydigan odam emasman. Menga ham do'st kerak, sirdosh kerak...

Men bekatda o'tirib kimni kutayapman? Birnima deyish qiyin. Ko'z oldimni quyuq tuman qoplagan. Lekin men hamon kutayapman.

Urush boshlangandan buyon har kuni tinimsiz ushbu stansiyaga kelib, o'sha sovuq o'rindiqa o'tiraman va yana kutaman. Birov yonimga kelib, asta jilmayib meni so'roqqa tutadi... Bu qanday dahshat! Etlarim junjikib ketadi. Bu ham yoqmasa, men bu yerda nima qilib o'tiribman? Kimni kutayapman? Savollar esa yog'ilaveradi:

- Kimni kutayapsiz? Turmush o'rtog'ingiznimi?
- Yo'q.
- Sevgilingiznimi?
- Yo'q.
- Do'stingiznimi?
- Menga do'st kerak yemas...
- Sababi pulmi?..
- (Istehzo bilan) Arvohnimi?
- Oh, iltimos, bas qiling!.

Yuragimni esa nimalardir o'rtaydi. U sokin va yorug' narsa ekanligini sezib turibman. Ammo, nimaligini hali o'zim ham bilmayman. Uni, xuddi bahorga o'xshatish mumkin. Yo'q, unday ham emas... Yashil barglar... Fusunkor may... Yoki bug'doy dalasida shovullab oqayotgan zilol suvmi? Yo'q, bularning hech biri emas. Ammo men baribir kutishda davom etaman. Men shunchalar kutamanki, bundan qalbim zavqqa to'la boshlaydi. Ko'z o'ngimda odamlar turli manzillar tomon shoshadilar. Ammo, ular orasida men izlaganim, kutayotganim, yagonam yo'q. Qo'llarimga yana xarid xaltachasini tutaman, ammo ruhim titroq ila noma'lum narsani kutishda davom etadi.

Iltimos, meni unutmang! Har kuni kimdir bilan uchrashish uchun shu stansiyaga keladigan va uyiga bo'm-bo'sh yurak bilan qaytuvchi yigirma yoshli qizni...

Ammo men sizga bu kichik stansiyaning nomini, qayerda joylashganini aytmayman. Uning nomini aytishning hojati yo'q, chunki ishonamanki, qachondir siz meni topasiz...

ISHQ MAKTUBLARI

Reshat Nuri Guntekin

Turk tilidan

Ozoda Ahmedova va

Elvira Ankaliyeva tarjimasi.

Rasim kechqurun maktabdan uyga qaytgach, ustiga o'zining ismi yozilgan konvertni ko'rdi. Ochib qarasa, ichida bejirim gulli qog'ozga quyidagi satrlar yozilgan ekan: "Rasimbey, men sizga olislardan ko'ngil qo'ygan, bir yoshgina qizman. Ko'hlikkina, suluv qiz ekanligimni hech tortinmasdan ayta olaman. Eng katta orzularimdan biri esa - sizning qalbingizdan joy olsam-u, rafiqangiz bo'lsam, deyman. Lekin yoshimiz biroz kichik bo'lganligi uchun yana bir necha yil kutishimizga to'g'ri keladi. Hozircha esa kimligim siz uchun sir bo'lib qola qolsin. Javob yozsangiz, qo'lingizdagi maktubda ko'rsatilgan manzilga yuboring. Hozircha tuyg'ularim haqida ota-onamga ayta olmayman. Balki bir kun siz bilan yo'limiz tutash kelib qolsa ajabmas. Hozirdanoq o'zimni sizning sevimli qaylig'ingizdek his qila boshladim. Ba'zan yolg'izlikdan tushkunlikga tushib qolaman. Zora yozgan maktublaringiz menga bir yupanch bo'lsa..."

Har qanday o'n olti yashar bola singari Rasim uchun ham hayotda sevis va sevilishdan-da muhimroq narsa yo'q edi. U maktubni o'qir ekan qalbida paydo bo'lgan uchqun gulxanga aylandi: u hali tanib ulgurmasidanoq bu notanish qizga telbalardek oshiq bo'lgan edi.

O'sha oqshom u kinoga borish fikridan ham qaytib, xonasiga qamalib olib o'ziga oshiq bo'lib qolgan o'sha qizga maktub yozishga kirishib ketibdi. Ishni yakunlagach, xatni pochta qutisiga tashlar ekan, o'zini huddi o'n yoshga ulg'aygandek his qilibdi.

Ismini Badia ekanligini aytgan bu shaddodgina qiz hech qachon Rasimning maktublarini javobsiz qoldirmas, gohida esa yigit qizning maktubiga javoban nima deb yozishga ikkilanib qolar, uni ancha vaqtgacha kuttirib qo'yar edi.

Badia esa xatlari javobsiz qolsa-da xat yozishdan charchamasdi, uning xatlarida Rasimga nisbatan zarda ohanglari yaqqol sezilar edi.

"Sizni jonidan ortiq sevgan, xatlaringizdan boshqa tasallisi yo'q bir bechora qizni bunchalik kuttirish nohaqlik emasmi? Bu ham yetmaganidek, yozgan xatlaringiz juda ham qisqa. Menga aytadigan so'zlaringiz yo'qmi?... Yana bir iltimos: shu maktublaringizni biroz tushunarliroq qilib yozsangiz!.."

Shu kabi tanbeh va zardalarga to'lib-toshgan maktublarni o'qigach, Rasim xonasiga quflanib olar, sevgilisining ko'nglini olish niyatida uzundan-uzun jumlalarda o'z tuyg'ularini ifoda etishga harakat qilardi.

Badia ham sho'x-shaddod qiz emasmi, ora-orada: "Turmush qurganimizdan keyin, asal oyimizni Italiyada o'tkazamizmi yoki Shvetsiyadami? Qiziq, u yerlar qanday ekan-a? Odamlari qanday yashashar ekan? U mamlakatlarda qaysi sohalar ko'proq rivojlangan ekan? U yerga ketayotganimizda qaysi dengiz va shaharlardan o'tib borar ekanmiz?" qabilidagi savollarni qalashtirib tashlar edi. Yoki "Siz Abdulhaq Hamidbeyning "O'rinbosar" asarini o'qiganmisiz? O'zingizga yoqqan joylarini yozib yuborsangiz, men ham o'qib chiqar edim", deb yozar edi.

Rasim qizning oldida uquvsiz bo'lib ko'rinmaslik uchun geografiya va adabiyot kitoblarini tinmay varaqlar, kerakli ma'lumotlarni topishga harakat qilardi.

Badia o'zining bir maktubida unga ta'na-dashnom bilan: "Men siz bilan uchrashishga qaror qilib, kecha maktabdan qaytadigan yo'lda kutib turgan edim. Afsuski, siz yosh, hurliqo bir qizning yigiti ekanligingizni unutib qo'ygansiz shekilli, kiyimingizga qarab bo'lmasdi. Boshdan oyoq loyga botib kelayotgan ekansiz. Nima, do'stlaringiz bilan yosh bolalardek pachakilashdingizmi? Ahvolingiz bir holatda ekanligini ko'rib, oldingizga borishga uyalдим".

Rasim maktubni o'qib chiqqach juda xijolat tortibdi va o'sha kundan boshlab kiyimlariga e'tibor bera boshlabdi.

Bir kuni Badia uni maktabdan keyin uyiga bormay ko'chalarda tentirab, boshqa qizlarga gap otib yurganidan nolibdi. Maktubni o'qib, Rasim boshqa ko'chalarda sang'imaslikka, qarshisidan chiqqan qizlarga hatto ko'z qiri bilan ham qaramaslikka, hayotida Badiadan boshqasini sevmaslikka qasam ichib maktub yozibdi.

Kunlardan bir kun Rasimning onasi Nedime xonim eri Axmadbeyni ko'zida yosh bilan bir holatda qarshi olibdi.

- Voy, dadasi, peshonamizda shu kunlar ham bormidi? O'g'limiz Badia ismli bir qizga o'ralashib qolibdi. Xonasini tozalayotib yozishmalarini topib oldim. O'g'limizni yo'qotib qo'ymasimizdan biror chorasini topishimiz kerak, - debdi.

Ammo, Ahmadbey xotining gapidan taajjublanmabdi, aksincha kulgidan o'zini zo'rg'a tiyib, sekingina:

- Xavotirlanma xotin, o'g'limizga ishqiy maktublarni yozgan o'sha qiz men bo'laman. Rasim kundan kunga takasaltang bo'lib ketayotgan edi. Ustozlari ham, biz ham ancha harakat qilishimizga qaramay, unga hatto to'g'ri yozishni ham o'rgata olmayotgan edik. O'ylay-o'ylay oxiri buning chorasini topgandek bo'ldim. Xullas, Rasim shu maktublar sharofati bilan bu yil sinfda qolib ketmasligiga ishonchim komil. Natija men kutgandek bo'ldi. O'zing ko'rayapsan, o'qishlari ancha durust bo'lib qoldi. Ammo, oxir-oqibat buni unga qanday tushuntiraman, o'zim ham bilmayman... - debdi.

TELEFON

Zenxar Gocher

Turk tilidan
Kamola Rasulova tarjimai

Uy telefonim yana tinmasdan jiringlashni boshladi. Telefonni hech ko'tarishni istamasdim, chunki bilaman bu yana o'sha. O'sha deganim men hatto kimligini ham bilmaydigan bir notanish odam.

Avvaliga uni bir bekorchi bo'lsa kerak, biroz vaqt o'tib qo'ng'iroq qilaverib charchagach, boshqa qo'ng'iroq qilmas, deb o'ylagandim. Go'shakni ko'tarsam u sira gapirmas, faqatgina sukut saqlagancha meni tinglardi. Shu holat takrorlanavergach, baqirib-chaqirsam bu odatini tashlar deb, ovozimni ko'tarishga hattoki, hech bunday odatim bo'lmasa ham haqoratli so'zlar ishlatishga majbur bo'ldim. Shundan keyin ham qo'ng'iroqlar tinmadi.

Ba'zan qo'ng'iroqlar tinar, keyin esa yana boshlanar edi. U kun davomida faqatgina bir xil vaqtlarda qo'ng'iroq qilardi. Ilk qo'ng'iroq tonggi soat

07:35da, peshinda 12:05da, kechkisi 20:05da, so‘nggi qo‘ng‘iroq esa 23:35 da jiringlardi.

Endi boshqa chidolmayman deb raqamimni o‘zgartirish haqida o‘ylayotgan ham edimki, ertalabdan yana telefon qo‘ng‘irog‘i jiringladi. Bu gal nima bo‘lsa bo‘lar deb go‘shakni ko‘tardim.

- Sen yutding, men taslim bo‘ldim. Bugun telefon raqamimni o‘zgartiraman, - dedim.

Undan sado chiqmadi. Ammo, kutilmaganda uzoqdan yig‘i ovozi keldi. Go‘shakni qulog‘imga mahkamroq bosib, diqqat bilan tinglay boshladim. Haqiqatan, bu yig‘i ovozi edi. Havotirga tushib, hech qachon ovozini eshitmagan notanish bir insonga achinish hissi bilan:

- Sizga nima bo‘ldi? - dedim.

Lekin birozdan keyin yig‘i ovozi tindi.

O‘sha notanish kimsaga nisbatan havotir hissi uyg‘ondimi, bir muddat telefon raqamimni almashtirmaslikka qaror qildim. Nima qilganda ham menga zarari yo‘q-ku, deb o‘yladim. Aslida bu telefonni menga na zarari va na bir foydasi bor edi. Bayramlarda biron kishi yo‘qlab telefon qilsa-ku yaxshi-ya, boshqa vaqtlar esa mutlaqo yolg‘iz edim. O‘zi aslida shu yolg‘izlikdan qutilish uchun u bu kim bilan gaplashib chalg‘irman degan maqsadda telefon o‘rnattirgan edim. Ammo, hech qanday o‘zgarish bo‘lmadi. Telefonda gaplashadigan biron mehribonim yo‘q edi.

Farzandlarim faqatgina bayramlarda eslashar, suhbatimiz esa atiga bir necha daqiqadan iborat bo‘lardi. Yolg‘izgina shu sirli do‘stim bor edi. Men shuni tushundimki, bu sirli qo‘ng‘iroqlar orqali uni o‘zimga do‘st deb bilgan ekanman.

Bir kuni peshin vaqtida telefonim yana jiringladi. Endi unga jahl qilmadim. Go‘shakni ko‘tarib sokinlik bilan “Allo” dedim. Keyin xuddi kimligini bilmaganday “Kimsiz?” deb so‘radim va “Haaa, bu senmisan Oisha, qalaysan, yaxshimisan? Sen bilan ko‘rishsak bo‘lardi”, dedim. Sirli do‘stim kalovlanib qolganidan, qo‘lidagi telefon go‘shagi yerga shu darajada taraqlab tushdiki, shovqin ovozi qulog‘imni teshib yuboray dedi.

Suhbatdoshim go‘shakni qo‘liga oldi deb xayol qilib gapimda davom etdim, ammo go‘shakdan sas kelmasdi. Uni go‘yo-ki, mening eski bir tanishim Oisha deb tasavvur qilib, u bilan suhbatimni davom ettirdim. Xayoliy do‘stim Oishaga kun davomida nimalar qilganligim, hastaliklarim va boshqa har xil

narsalar haqida gapirib berardim. Qarshimdagi bu odam esa sukut saqlagancha meni tinglar, men gapni tugatmagunimcha go'shakni qo'ymasdi. Men esa "Oysha sen bilan xaliroq yana gaplashamiz, ovqat boshlab qo'ygan edim", - derdim...

Keyingi qo'ng'iroqlarida go'shakni olishim bilan suhbatimizni davom ettirib ketardim, ba'zan bir xil gaplarni takror gapirsam ham u so'zimni bo'lmas, sabr bilan eshitardi. Endi uning qo'ng'irog'ini intizorlik bilan kutadigan bo'ldim. U menga go'yo-ki bir hamroh, do'st bo'lib qolgandi. Ba'zan u ham men bilan suhbatlashsa yanada baxtli xis etarmidim o'zimni, balki shu rangsiz hayotimga bir nur bo'larmidi deb xayol qilardim. Kunlardan bir kun barchasi bunday davom etishi mumkin emasligini, hech bo'lmasa bir so'z aytishini yolvorib so'radim:

-Kimsiz o'zi? Nega menga qo'ng'iroq qilayapsiz? Bilaman, siz yomon niyatli odam emassiz, lekni nega aynan men?

Keyin eshitgan so'zlarim meni g'alati qilib yubordi. Notanish suhbatdoshim:

- Oyi, - dediyu birdan yig'lab yubordi.

U xo'ngrab yig'lar ekan, "oyi", "oyijonim" "men kechiring derdi.

Tabiiy-ki u mening farzandim emas edi. Birozdan keyin suhbatdoshim buning sababini tushuntira boshladi. Uning so'zlari bo'g'zidan zo'rg'a yig'i aralash chiqayotgani uchun uzuq-yuluq gaplarini bazo'r eshitardim. Birozdan so'ng o'ziga kelib olgach suhbatimizni davom ettirdik.

- Meni kechiring – deb so'zini boshladi u. - Shuncha vaqtdan beri sizni bezovta qilaman.

Bu telefon raqami avval onasining raqami bo'lganini, 3 yil avval onasidan ayrilib qolganini aytdi. U turmush qurgach onasining quchog'idan chiqib, endi mustaqil bo'ldim, deb o'ylagan. Qizini uzatib yuborgan sho'rlik ona esa har kuni 4 marotaba qiziga qo'ng'iroq qilar ekan. Bu e'tibordan charchagan qiz esa o'sib katta bo'lgan uyini, onasini hech yo'qlamas ekan. Hatto, har kuni qizidan hol ahvol so'rab qo'ng'iroq qilib turadigan onasini biror marta ham yo'qlamagan ekan.

Sho'rlik ona tinimsiz har kuni ertalabdan qiziga qo'ng'iroq qilar, unga hayrli tong demasdan kunini boshlamas ekan. Peshin vaqtida qo'ng'iroq qilganida hol-ahvolini so'rar, oqshomlari esa kuni qanday o'tganligi bilan

qiziqar, kechalari esa “Xayrli tun, mening go‘zal qizim Oisha”, - demay uyquga ketmas ekan. Lekin mana uch yildir-ki...

O‘sha kuni telefoni jiringlamadi. Bu xoldan hayron ham bo‘lmagan Oisha oxir-oqibat shu ishlarini tashladilar, deb o‘yladi ichida. Ertasi kuni ertalabdan yana telefon qo‘ng‘irog‘i bo‘lmagach, biroz xavotirga tushibdi, lekin baribir onasiga qayta qo‘ng‘iroq qilmabdi. Peshin vaqti bo‘lganda esa endi qandaydir baxtsiz xodisa yuz berganligini sezib birinchi marta onasiga qo‘ng‘iroq qilibdi, ammo go‘shakni biron kimsa ko‘tarmabdi.

Ertasiga onasining uyiga borib kelish uchun yo‘lga otlanayotganida birdan telefon jiringlab qolibdi. Bu safar u telefon go‘shagini ko‘tarish uchun ilk marotaba yugurib borgan ekan. Lekin go‘shakni ko‘tarishi bilan ko‘z o‘ngi qorong‘ulashib ketibdi. Qo‘ng‘iroq qilgan qo‘shnilari qizga onasini o‘z uyida jonsiz holda topishganini aytishibgan ekan.

Shu-shu telefoni jiringlashdan to‘xtagan, o‘zi esa yolg‘iz qolganini his qilib, onasining qadriga yetishni boshlagandi.

Nima bo‘lganda ham u onasini yolg‘iz malikasi, yagonasi ekanligini va xattoki, hali ham o‘zini yosh bola deb hisoblashini kech anglab yetgandi. Telefon orqali bo‘lsa-da, yonida bir mehriboni borligini his qilib yashaganini, endi esa o‘sha aziz insonini qadri bilinayotganini yig‘i aralash tushuntirardi. U endi telefoni jiringlamasligini bilsa-da, har kuni onasining qo‘ng‘iroq qiladigan vaqtlarida telefonini jiringlashini kutar edi.

Bir kuni u tavakkal qilib onasining telefoniga qo‘ng‘iroq qilganida, go‘shakni men ko‘targan ekanman. Mening ovozimni onasining ovoziga o‘xshatgani uchun onasiga bo‘lgan sog‘inch hissi ayolni qiynar va bu ovozni qayta – qayta eshitish uchun mehriboni telefon qilgan vaqtdan 5 daqiqa o‘tib menga qo‘ng‘iroq qilar ekan...

MEHMON

Abxaz yozuvchisi Mixail Lakerbay

Rustam Sharipov tarjimai

Keksa Xanasha Sugba hovlining to‘rida qad ko‘targan chinor ostida o‘tirgancha, endi balog‘at yoshiga qadam qo‘yayotgan yolg‘iz o‘g‘li Temur uchun oshlangan teridan choriq tikar edi. Itning akilla-shidan boshini ko‘tarib,

notanish yigitchani ko‘rdi; u juda shoshardi chog‘i, darvozaga ham yetib bormay panjaradan sakrab o‘tdi. Cholni ko‘rib, yoniga bordi-da, buzilgan abxazchada yashirinishga joy so‘radi. Talaffuzidan uning cherkesligi ayon edi.

– Ortimdan quvib kelishyapti, – hayajon bilan dedi u. – O‘tinaman, qutqaring! Ushlab olishsa, sog‘ qo‘yishmaydi.

– Uyga kir! – dedi Xanasha hozirjavoblik bilan va kutilmagan mehmonni ayvon tomon boshladi. Narvonni devorga tirab, chordoqni ko‘rsatdi.

– Chiqaqol, dad . Burchakdagi bir uyum junni tagingga yoyib ol. Xotiring jam bo‘lsin: mening uyimda sen xavf-xatardan xolisan.

– Iloyo, umring farog‘atda o‘tsin! – deya mehmon minnatdorlik bildirib, chaqqon chordoqqa ko‘tarildi.

Qariya hovliga chiqib, hech kim yo‘qligiga ishonch hosil qilgach, mehmon yoniga qaytib keldi.

–Xavotir olma, dad, hech kim ko‘rinmaydi. Balki bu yerga kirganingni hech kim ko‘rmagandir. Menga aytchi, ortingdan kim quvib kelayapti? Nima ayb ish qilding?

– Odam o‘ldirdim. Do‘stlari uning qasдини olish uchun ortimdan quvib kelishayapti.

– Nima uchun bunday qilding?

– U meni haqoratladı: ot poygasi chog‘ida otimni savaladi!

– Kim ekan o‘zi, oti nima?

– Bilmasam. Axir, men qishlog‘ingizga endi kelishim...

Suhbat shu yerga yetganida itning vovillashi eshitildi.

– Sekinroq! Men borib, xabar olay, – dedi qariya va asta hovliga chiqdi.

Uzoqdagi tepalik ortidan bir necha kishining qorasi ko‘rindi, ularning ortidan olomon kelardi. Mo‘ysafid kaftini soyabon qilib peshonasiga tiragancha odamlar kelayotgan tomonga tikildi. Birozdan so‘ng u kishilarni yaqqol ajrata boshladi. Ular asta-sekin shu uy tomon kelishardi. “Bular qotilni izlab kelayotgan bo‘lishmasin, tag‘in!” degan o‘y bilan qariya mehmonni ko‘ksi bilan himoya qilmoqqa chog‘landi.

Bir necha kishi boshqalarni ortda qoldirib, ko‘cha eshikdan hovliga kirdi.

Ularining izidan boshqalar ham kirishdi. Bir zumda hovlini tumonat odam bosdi.

Shundagina uning ko‘zi odamlar ko‘tarib olgan og‘ir va dahshatli yukka tushdi.

Ertalab o'g'li kiygan kiyimlarni ko'rgan qariyaning ko'z oldi xiralashib, yuragini xanjar tilganday bo'ldi.

Olomon ichidan soch-soqoli oppoq oqargan tengdosh do'sti Ashvyu Abij chiqdi-da, unga yuzlandi:

– Bardam bo'l, Xanasha! Bugun boshingga og'ir musibat tushdi. Vaqt o'tishi bilan unutilmaydigan musibatning o'zi bo'lmaydi. Naqadar og'ir bo'lmasin, bu ham o'tar-ketar. Axir, odam qanchalik kuchli bo'lsa, uning irodasi, ayniqsa, musibat boshiga tushgan chog'da shunchalik mustahkam bo'ladi, deb o'zing aytmasmiding? Bugun bir noma'lum cherkes o'g'ling Temurni nobud qildi! Bardam bo'l!

Odamlar suyak qolmaganida mo'ysafid, shubhasiz, yuragini changallagancha, hushidan ayrilib, chalqancha yiqilardi.

Ayollarning dod-faryodi hovlini tutib ketdi.

O'g'lining jonsiz jasi taomilga ko'ra ikki kun uyda saqlandi.

Ikki kun qariya har xil bahonalar bilan chordoqqa – chaqirilmagan mehmonga yegulik berish uchun chiqib turdi.

Uchinchi kun Temur yerga qo'yildi. Marosimdan so'ng o'g'lining do'stlari ham hovliga qaytib kelishdi va kechgacha qariyaga hamdard bo'lishdi.

– Tushunamiz, – dedi Temurning eng yaqin do'stlaridan biri. – Hammamiz bir bo'lsak ham, Temurning o'rnini bosolmaymiz. Qayg'ungizga sherikmiz. Bu musibat hammamizning yuragimizni larzaga keltirdi. Tez-tez holingizdan xabar olib, o'g'lingizning yo'qligini bildirmaslikka harakat qilamiz. Bardam bo'ling, ota!

– Do'stimiz uchun qotildan albatta qasd olamiz, – deya qo'shimcha qildi yana birov. – Cherkes ustalik bilan yashirinib yuribdi. Ammo, baribir uning kuni bitgan. Qo'limizga tushgan zahoti joni uziladi. Tez orada bundan xabardor bo'lasiz. Hech bo'lmasa shundan yuragingiz taskin topar.

Shu so'zlarni aytib, Temurning do'stlari tarqalishdi.

Musibat qaddini dol etgan mo'ysafid atrofda hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilgach, xurjunga yegulik soldi, devorga narvonni tirab, cherkesni chaqirdi.

– Pastga tush, mehmon! Tushaver! Bu yerda hech kim yo'q. Hamma ketdi.

Cherkes pastga tushgach, titroq bosgan qo'llari bilan unga xurjunni uzatdi.

– Manavini ol, – dedi u. – Bunda ikki kunga yetadigan ovqat bor. Endi uyingga ket! O'rmon bilan borsang, yo'ling ancha yaqin bo'ladi. Tun qorong'isi seni begona ko'zdan asraydi.

Mehmon qariya oldida tiz cho'kib, boshini egdi va chakmoni etagini labiga bosdi. Uning vujudini hayajon va qilib qo'ygan qilg'ilig'i uchun pushaymonlik tuyg'usi qamrab olgan edi. Keyin qaddini rostlab, lom-mim demay, uydan chiqib ketdi.

JIGARGO'SHALAR

Rustam Sharipov tarjimasini

Ushbu voqea sodir bo'lgan kuni ertalabdan yomg'ir yog'di. Tog'larni o'rab olgan bulutlar kechga boribgina tarqaldi.

Yomg'irdan so'ng atrof shunday tiniqlashdiki, uzoqdagi toqqa qo'l cho'zsangiz, yetgudek. Havo toza va shaffof. Bunday paytda tog'dagi har bir jon zod hayotdan zavqlanadi, kiyiklar o'zlarining ko'z ilg'amas go'shalarini tark etib, pastda yastangan vodi yga ko'z tashlash ilinjida baland-baland qoyalar tomon shoshadilar. Bundan xabardor ovchilar ham vaqtni boy bermaslikka harakat qilishadi.

Uzoq-yaqinga dong'i ketgan ovchi og'a-inilar Kozim va Sharax, ko'k yuzini so'nggi bulut parchasi tark etmasidanoq, yelkalariga miltiqlarini ilib, yo'lga ravona bo'ldilar.

– Uzoqqa ketib qolmanglar, nan . Kech tushib qoldi! – deya xitob qildi ona o'g'illari ortidan.

Ammo, ovchi zoti qiziqqon emasmi: qancha vaqtga ketayot-ganini va qaysi yo'ldan qaytishini bilar ekanmi?

– Biz sizga eng semiz kiyikni otib kelamiz, onajon. Bizga omad tilang! – deb javob qildi kichik o'g'li Sharax, muyulish ortida ko'zdan pana bo'layotib.

– Omad sizlarga yor bo'lsin, nan! – degan onaning so'zlari o'g'illari qulog'iga yetib bormadi. Ular ancha yiroqlashgan edilar.

Og'a-inilar o'rmon oralab o'tgan yo'ldan Abxaz o'lkasining eng baland va tikka tog'laridan bo'lmish Qonachxir tomon borishardi. U yer qushga mo'l, ammo, shu bilan birga, xatarli joy sanalardi.

Ovchilar tog' etagiga tez yetib borishdi. Aylanma va ancha uzoq, ammo bexatar yo'ldan yurmay, tikka yo'ldan toqqa ko'tarila boshlashdi. Bir necha bor xatarli so'qmoq uzilib, qoyadan-qoyaga sakrashga to'g'ri keldi. Tez orada ovchilar odam oyog'i yetmagan, parqu bulutlar o'ziga makon qurgan baland qoyaga yetishdi.

Vahimali qoyalar yana ham balandga viqor bilan bo'y cho'zgan, oyoq ostida esa dahshatli jarlik!.. Ovchilar ensizgina so'qmoqdan ehtiyotkorlik bilan o'ta boshlashdi. Oyoqlari ostidan sirpanib chiqqan toshlar jarlikka o'qday uchib, ko'zdan g'oyib bo'lardi. Axiyri ular tosh ko'chkini natijasida paydo bo'lgan kichik maydonchaga yetib borishdi. Tikka qoya bo'ylab o'tgan tor so'qmoq ushbu maydonchani kiyiklarning sevimli manzilgohi bo'lmish tog' yonbag'ridagi o'rmon bilan tutashtirib turardi.

– Izlar ko'rinmaydi, – dedi Sharax yon-verisini ko'zdan kechirib. – Demak, kiyiklar hali kelishmabdi.

– Shunga o'xshaydi, - dedi Kozim. – Ammo ular tez orada kelib qolishadi.

– O'rmondan chiqishsa kerak, - dedi Sharax va yana bir bor o'sha tomon ko'z tashladi.

Ammo u yerda ko'm-ko'k baland tog' archalaridan boshqa hech narsa ko'rinmasdi. Oldinda so'qmoq yo'l uzra qirrador toshlar elas-elas ko'zga tashlanar, oyoq ostida esa tikka Qonachxir qoyasi etagini yuvganicha Kadar daryosining oppoq bulutni eslatuvchi shovqinli suvlari vajohat bilan oqardi. Ovchilar turgan maydoncha dahshatli jarlik ustida osilib turardi.

“Xuddi shu yerda Shoua Maf halok bo'lgan edi, - xayolidan o'tkazdi Sharax.

– U kiyik ortidan quvib, xuddi shu tor so'qmoqdan jarga qulab tushgan, shu bilan nom-nishonsiz ketgandi”.

Aka-uka enkayganicha jarga tikildilar.

- Jim! – xushyor tortdi Kozim.

Shamolning guvillashiyu kaltakesaklarning shitirlashi bilan birga kiyiklarning asta yurib kelayotgani eshitilganday bo'ldi. Kozim qulog'ini yerga berib, bir daqiqa jim qoldi.

- Kelishyapti, - shivirladi u o'rmon tomonga imo qilib.

Ovchilar qoyatosh ortiga bekinishdi. Bir necha daqiqa oraga og'ir sukunat cho'kdi. Ov oldidan bo'ladigan bunday bir lahzalik sukunat qaysi ovchining yuragida hayajon uyg'otmagan deysiz?! Shunday vaqtda tomirlarda qon qaynab, yurakning zarbi miyada aks-sado beradi, ovchi o'zini ortiqcha harakatdan arang tiyadi...

Shu lahza maydonchada bir-biridan ko'rkam besh nafar kiyik paydo bo'ldi. Ular oftobda tovlanayotgan jigarrang terilari bilan yelkalaridagi oq dog'larini osmonga ko'z-ko'z qilishayotganday edi.

Bir payt kiyiklar maydonning bir chetida g'uj bo'lib yig'ilib olishdi.

U yerga yaqinroq bo'lgan Sharax o'q uzib yuborishdan o'zini arang tiydi. Chunki abxaz odatiga ko'ra birinchi o'qni yoshi katta odam otishi kerakligini u yaxshi bilardi.

Kozim o'zining birinchi o'qini ukasi Sharax mo'ljalga olib turgan kiyikka qarab otdi. Kiyik bir sakrادیu jar yoqasidan g'oyib bo'ldi. Sharax otgan o'q ham mo'ljalga tegmadi – kiyiklar o'zlarini o'rmon tomonga urishdi.

Kozim o'zi urolmagan kiyik ortidan chopib ketdi. Bir ozdan keyin kiyiklar to'g'ri yo'l qolib, yovvoyi echkilar singari tikka qoyaga qarab chopishdi. Kozim ham ularning izidan yugurdi. Boshqalardan orqada qola boshlagan kiyikka yetay deganida, Sharax kunning botib, tog'larga xos zimiston kechaning yaqinlashib kelayotganini payqab: - Kozim, orqaga qayt, kech tushayapti! – deya ogohlantirdi.

Ammo akasi uning so'zlariga e'tibor bermay kiyikni quvishda davom etdi.

- Qayt, Kozim! – deya yana qichqirdi Sharax. – Uyga qaytish vaqti bo'ldi.

Yana javob bo'lmadi.

Lekin uzoqdan akasining:

- La'nati kiyik, shaytonga o'xshaydiya, ko'zdan g'oyib bo'ldi, - degan so'zlari qulog'iga chalindi.

Tovush uzoqdan kelar, Sharax yiroqdagi ko'lankani bazo'r ko'rayotgan edi. Birozdan so'ng u ham ko'zdan g'oyib bo'ldi – ko'tarilgan tuman bir lahzada qoyalar uzra o'zining sirli choyshabini to'shadi.

- Shoshmaytur, Kozim! – tovushining boricha qichqirdi Sharax. – Tuman tarqashini kut. Yo'qsa, toyib ketish hech gap emas.

U qoya uzra akasining sharpasi oxirgi marta ko'ringan joy tomon asta-sekin yura boshladi. Tepadan mayda toshlar tushayotganini sezib to'xtadi. Kozim timirskilanib tushayotgandi. Lekin birozdan so'ng u ham to'xtadi... Tuman

tarqala boshladi chog'i, boshlari uzra yulduzlar ko'rindi. Ammo ko'zlarining oldi hamon qorong'u, hech narsani ko'rib bo'lmadi.

- Kozim, hoy Kozim! Oyoq qo'yishga joy bormi? – deb qichqirdi Sharax.

- Hech narsa ko'rinmayapti...- degan javob keldi.

- Endi nima qildik?

Javob bo'lmadi.

- Qanday qilib pastga tushasan? – yana ham balandroq tovushda qichqirdi Sharax.

- Bilmadim.

Sharaxning yuragiga qo'rquv oraladi.

- Mahkam turibsanmi? – qichqirdi u. Bu tovushda qo'rquv va hayajon yaqqol sezilib turardi.

Oraga yana uzoq jimlik cho'kdi. Sharax so'zlarini shamol uchirib ketdi degan xayolga kelgan ham ediki, tepadan Kozimning tovushi eshitildi:

- Oyog'im ostida kichik bir do'nglik... faqat bitta oyoqni qo'yish mumkin... ikkinchisi osilib turibdi.

So'zlar uzuq-yuluq holda yetib kelardi. Ularni ham bir-biridan tubsiz jar ajratib turganday.

- Qo'llaring-chi? – so'radi Sharax. – Mahkam ushlab turib-sanmi?

- Faqat bir qo'l bilan ...

Shu lahzada Sharax akasining og'ir nafasini his qilganday bo'ldi.

- Kozim, - deb so'radi u. – Ertalabgacha turib berasanmi?

- Bilmadim ... kuchim yetarmikin ...

- Kuch topish kerak, aks holda ...

Sharax gapini tugatish uchun o'zida kuch topmadi – ko'zining oldi xiralashdi.

- Harakat qilaman, - dedi akasi. – Faqat qo'shiq aytib bergin ... Mening sevimli qo'shig'imni ...

Sharax uni tushundi. Kozim hayoti qil ustida turgan bir vaqtda ko'ngli o'zining sevimli ashulasi – omadli ovchi O'zbekiya haqidagi qo'shiqni tusagan edi. Qo'shiqda aytilishicha, kunlardan bir kun omad ovchidan yuz o'giradi. Uning o'qidan yaralangan o'n olti shoxli bug'u qoyadan yiqila turib, o'limni xayoliga ham keltirishga ulgurmagan ovchi yigitni o'zi bilan birga tubsiz jarga tortib ketadi.

Bu qo'shiq bilan Kozim o'z ruhini ko'tarmoqchi edi. Sharax qo'shiqni ayta boshlashi bilan akasi unga jo'r bo'ldi.

Aka-ukalar qo'shiq aytar ekanlar, Qonachxir tog'i ustidan tun qushi uchib o'tdi. Ovchilarning tovushini eshitgan qush bir lahza to'xtab, g'aroyib manzaraning guvohi bo'ldi: tubsiz jarlik uzra qad ko'targan tog'ning eng baland yerida ikki kishi bag'rini qoyaga berib yotardi. Biri qoya turtib chiqqan ensizgina yolg'izoyoq so'qmoqda turar, ikkinchisi esa xuddi uning tepasida toshni mahkam ushlaganicha osilib qolgan edi. Kichigi xavotirli ko'zlarini tepaga tikkanicha, kattasi esa qoya toshiga betini erkalangandek bosib, ikkisi ham qo'shiq aytish bilan band. Shamol kiyimlarini tortqilab, qo'shiqlarini uzoq-uzoqlarga olib ketardi.

Sharax qo'shiqni uzoq aytdi. Bir mahal Kozim jimib qolgan edi, Sharax qahramonlar qo'shig'ini boshlab yubordi.

Kozim unga yana jo'r bo'ldi, ammo avvalgidan ham tezroq jimib qoldi. Shu zahoti Sharax akasining vujudini kuchli charchoq va xolsizlik chulg'ab olganini sezdi – bu o'lim bilan barobar edi.

- Kozim, yana bir qo'shiq aytmaymizmi? – akasini chalg'it-moqchi bo'ldi u, ammo javob bo'lmadi.

Sharaxning butun vujudi quloqqa aylanib, uzoq javob kutdi. Oxir-oqibatda tepadan madorsiz, ko'proq ingroqni eslatuvchi tovush keldi:

- Sharax! Sharax ... Agar men halok bo'lsam, onamizni ehtiyot qil ... ancha munkayib qolgan ... Endi yolg'iz sen ularga suyanchiq bo'lasan...

- Kozim, sen bo'sh kelmasliging kerak, - gapni bo'ldi ukasi. – Hamma kuch va irodani to'plab, albatta, eshityapsanmi, albatta, tonggacha chidashing kerak. Tong otishi bilan men daraxt kesib kelib, senga uzataman.

- Eh, qaniydi... Qo'llarim qotib qoldi, hatto oyoqlarimni ham almashtirishga majolim yo'q.

- Chidash kerak!.. Ana tong yulduzi ham ko'rindi. Bardam bo'l, Kozim!

Shu vaqtda tun qushi ikkinchi bor Qonachxir tog'i ustidan uchib o'tdi. Bu o'lim darakchisi bo'lajak mudhish fojia haqida atrofga xabar berayotgandek edi. Birinchi marta uni aka-ukaning qo'shig'i bosib ketgandi. Endi esa uning tovushida oxirgi ogohlantirish ohanglari yaqqol sezilib turardi.

Sharaxning tungi qush haqidagi o'ylarini Kozimning tovushi bo'ldi:

- Tamom, Sharax, hammasi tugadi... Boshqa kuchim qolmadi. Ikki barmog'imda osilib turibman... Endi foydasi yo'q...

Shunda Sharax birdan o'zgardi. Buning sababini kim bilsin deysiz. O'zganing ko'nglidagini uqish qiyin. Nima bo'lganda ham, Sharax o'zgardi-qoldi.

- Shu gap rostmi? – xitob bilan qichqirdi u. – Xudoga ming qatla shukur. Demak, sen jarga qulab tushasanu suyaklaringni ham topa olishmaydi! Juda soz. Endi baxtinga erishadigan bo'ldim.

- Hoy, to'xta, bu nima deganing? Aqldan ozdingmi? Nimaga xursand bo'layapsan?

- Nimaga deysanmi? Sening o'limingga! Endi umidim ro'yobga chiqadigan bo'ldi. O'zing kuchim qolmadi deding-ku, demak, yashirishga hojat yo'q. Sen halok bo'lsang, Habiba meniki bo'ladi, ha, meniki!..

- Nima?! – jon holatda qichqirib yubordi Kozim. Uning tovushi yo'lbarsning xayqirig'ini eslatardi. – Nima deding? Qani qaytarchi! Gapingni yanglish eshitganga o'xshayman.

- Yo'q, hammasini to'g'ri tushunding. Qallig'ing Habiba mening xotinim bo'ladi. Sen doimo oramizda g'ov bo'lib turarding. Katta bo'lganing sababli muhabbatimni yashirishga majbur edim. Mana endi umidlarim ro'yobga chiqadigan bo'ldi...

- Jim bo'li! – xayqirib yubordi Kozim. – Bir kechada aqldan ozdingmi? Shu tariqa aka-uka tongga qadar so'kishib chiqishdi. Tuman tarqab, tog'dagi so'qmoqlar ko'rina boshlagach, Kozim ukasining:

- Ushla, Kozim, - degan ovozi eshitdi.

Boshini ko'tarib, Sharaxni ko'rdi: ukasi so'qmoq yo'ldan yuqoriga ko'tarilib, xavfsiz yerda turib, bir uchi katta toshga bog'langan uzun novdani akasiga uzatardi.

Kozim novdani itarib yuborib, boshqa yo'l qidira boshladi. Ammo boshqa yo'l yo'q edi.

- Ushla, Kozim, - qaytardi Sharax.

Ikkinchi marta ham rad javobi bo'ldi. Sharax uchinchi bor novdani uzatganidagina Kozim unga tirmashib, yuqoriga chiqib oldi.

Aka-uka yuzma-yuz kelganida Sharax akasiga shunday dedi:

- Kozim, gaplarimni to'g'ri tushungandirsan. Madordan qolayotganingni ko'rib, Adzin Xojarat aytgan so'zlar yodimga tushdi. Jahlingni chiqarish kerakligini tushundim...

Ammo Kozim ukasining gaplariga quloq solmadi – uning nazarida izzat-nafsi qattiq haqoratlangan edi.

- Insofing yo‘q ekan, - dedi u. – Jim bo‘l! Gaplaringni tushu-nishni ham istamayman. Tushingni suvga ayt.

- Yaxshi, yaxshi, jim bo‘ldim, - og‘ir tin oldi Sharax.

Kozim so‘qmoq bo‘ylab pastga tusha boshladi. Sharax uning ortidan ergashdi. Kozim to‘xtab, oyog‘iga botayotgan mayda toshlarni olib tashlash uchun chorig‘ini yechishga tutindi. Sharax oldinga o‘tib, yo‘lida davom etdi. U pastda yastanib yotgan qishlog‘ini, qadrdon uyi uzra ko‘tarilayotgan tutunni, xovlisidagi katta chinor daraxtini ko‘rdi. Shu chinor ostida yoshlik chog‘larida aka-uka o‘yin bilan o‘tkazgan vaqtlari ko‘z oldiga keldi. Quyoshning ilk nurlari ko‘zlarini qamash–tirib, dilini yayratdi. Sharax qayrilib, akasiga qaradi.

Kozim uning chehrasidagi quvonchni o‘zicha yo‘yib, kechasi ro‘y bergan voqeani esladi. Qahr va g‘azabdan bo‘g‘ilayozdi... bir daqiqada miltig‘ini o‘qlab, ukasiga to‘g‘irladi... Tutun tarqalgach, Sharaxning yuragini changallaganicha jarga qulayotganini ko‘rdi.

“Hayot bo‘xtondan iborat, - deb o‘yladi Kozim uyi tomon yo‘l olar ekan. – Habiba sevaman derdi – aldadi. Ukam bor edi, endi yo‘q, O‘zim ham nobud bo‘lishimga oz qoldi. Hayot deganlari shu ekan”.

Uy ostonasini hatlab o‘tishga Kozimning yuragi dov bermadi.

-Kozim, nega ostonada turib qolding? - dedi uni ko‘rgan onasi.

Bu so‘zlardan Kozim seskanib ketdi. Og‘ir qadamlar bilan uyga kirdi.

- Sharax qani? Birga emasmidinglar? – so‘radi ona.

Kozim boshini quyi solganicha jim turib qoldi. Onaning har bir so‘zi yuragini xanjardek tilardi.

- Unga nima bo‘ldi? Nobud bo‘ldimi? Gapirsang-chi!

- U xaromi ko‘rnamak ekan. Men uni o‘ldirdim.

Ona yuzlarini timdalab faryod chekdi. Uning ovozigacha qo‘ni-qo‘shnilar yig‘ilishdi. Habiba ham keldi.

Kozim kechasi bo‘lib o‘tgan voqeani ro‘y-rost gapirib berdi.

- Sharax nima sababdan bunday deganini bilmayman-ku, - dedi Habiba shasht bilan, - ammo men haqimda yomon fikrda ekansan. Endi to‘yimiz bo‘lmaydi!

U shunday dedi-yu hovlidan yugurib chiqib ketdi.

- Sen o‘zing xaromi ko‘mamaksan! Qotil! Yo‘qol bu yerdan! – dedi g‘azabdan bo‘g‘ilgan ona. Uning ko‘z oldi qorong‘ilashib, xushidan ayrildi. Shunda Kozimning ko‘zi tumonat ichida turgan Adzin Xojaratga tushib, Sharaxning oxirgi so‘zlari esiga tushib, “Ukam nima uchun uning nomini esga oldi ekan?” – deb o‘yladi.

Shu zahoti mo‘ysafid Adzin Xojarat odamlar orasidan ajrab chiqib, shunday dedi:

- Bechora Xanjaj! Sho‘ring qurib qolibdi. – Keyin hammaga yuzlanib, Sharax nazarda tutgan maqolni qaytardi: “Katta qayg‘u odamni kuchdan qoldirsa, g‘azab unga tengsiz kuch baxsh etadi”.

Bu so‘zlardan Kozim seskanib ketdi. Haqiqatni u endigina tushunib yetgandi. Kozim o‘rnidan turib, hovlidan chiqib ketayot-ganida uni hech kim kuzatib qolmadi.

Shu ketganicha u toqqa, Sharah halok bo‘lgan joyga bordi...

Shu atrofda echki boqib yurgan cho‘ponlar o‘q ovozi eshitib, tepadan nimadir qulaganini ko‘rishdi. Yugurib kelishganida Kozim jonsiz yotar, yonidagi miltiq esa hali sovib ulgurmagandi...

AJIQA

Rustam Sharipov tarjimasi

Er-xotin Jegim va Arimsadaning yoshi bir joyga borib qolgan bo‘lsa-da, ularga farzand ko‘rish baxti nasib etmadi. Ko‘rinmagan do‘xtirlariyu tabiblari qolmadi. Yillar o‘tgani sayin yuraklaridagi umid uchqunlari so‘nib borardi. Oxiri, “Peshonamizga shu yozilgan ekan”, - deb, taqdirlariga tan berishdi. Ammo, tangrining rahmi keldimi, kunlardan bir kun oilada farzand tug‘ildi. Ko‘pdan orziqib kutilgan qizchaga Anifa deb ism berildi. Tabiiyki, ota-ona qizini ko‘z qorachig‘iday ehtiyotlab, yerga ham, ko‘kka ham ishonmay, mehr berib, ko‘ngliga qarab katta qilishdi. Oilada uning aytgani aytgan, degani degan edi. Hamma istaklari bir zumda muhayyo qilinar, erkatoy qizchaning kunlari o‘yin-kulgida o‘tardi. Uy yumushlari esa yoshi o‘tib borayotgan ota-onaning zimmasida edi. Yillar shu zaylda o‘tib borardi...

Balog‘at yoshi ostonasida Anifa sarvqomad va ohu ko‘zli go‘zal qiz bo‘lib yetishdi. Ammo, uy yumushlaridan bexabar va yalqovligi haqidagi ovoza yetti mahallaga yetdi. Buni ko‘rgan Jegim va Arimsada boshlarini changalladilar –

qizlarining oila quradigan vaqti kelib qolgan edi-da. Bu ahvolda uni kim xotin qiladi? Butun mahalla, mahalla nimasi,.. butun ovul Jegimning qizi juda chiroyli bo‘lishiga qaramay, ro‘zg‘or ishlarida uquvsiz ekanligidan, hech qachon yaxshi uy bekasi bo‘la olmasligidan xabardor edi. Shuning uchun ovuldagi yigitlardan hech biri u tomonga qiyo ham boqmasdi.

Bechora ota-ona nima qilarini bilmay, bu masalaning yechimini uzoq qidirishdi. Oxiri, bu gaplar xali yetib borishga ulgurmagan uzoq bir ovuldan kuyov topib, tezgina to‘y qilib, qizlarini kuyovning uyiga uzatishdi.

Uzatishga uzatishdi-yu: “Endi nima bo‘lar ekan, borgan joyida tinib-tinchib ketarmikin?” - deb yuraklarini changallab o‘tirishdi. Chunki, qizlari ro‘zg‘or ishlarini eplolmay, eridan dashnom eshitib, uyga qaytib kelishi hech gap emas edi-da...

Kunlar ketidan kunlar o‘tibdi. Ammo, qizidan darak bo‘lavermagach, otaning yuragida bezovtalik paydo bo‘lib, qizidan xabar olish bahonasida yo‘lga ravona bo‘libdi.

Otaning yuragi bezovta emasmi, kelishi haqida qudalarga avvaldan xabar bermadi. Shuning uchun xovlida uni hech kim kutib olmadi. Ko‘ngilsiz voqealarning shohidi bo‘lishdan qo‘rqqandek ostonada og‘ir tin oldi va birozdan keyin asta ichkariga kirdi. Uy ichidagi tinch va osuda vaziyat, asosiysi, ro‘zg‘ordagi tartib uning yuragida umid uchqunlarini yoqdi.

Ichkari xonadan chiqib kelgan Anifa otasini ko‘rib, xursandligini yashirmay uni quchib oldi, bir daqiqa salom-alik qilib, yana uy yumushlariga kirishib ketdi. Kizining uy ishlarini shu qadar kuyib-pishib va ustalik bilan olib borishi otani xayratga soldi. Ko‘z o‘ngida yalqov qizi Anifa emas, balki umr bo‘yi uy ishidan boshi chiqmay, suyagi mehnatda qotgan boshqa notanish bir ayol kuymalana-yotgandek edi. Ha, bu tamoman boshqa ayol – butun vujudi bilan ro‘zg‘or tashvishlariga kirishib ketgan uy bekasi edi. Bunday o‘zgarishning sababini so‘rashga botinolmay turgan ham ediki, jumboq tabiiy ravishda o‘z yechimini topdi...

Qudalar ichkari uydan chiqib kelishganida, Anifa otasining oldiga yugurib kelib, unga tuz, qizil garimdori va turli xil tog‘ giyoh-lari solingan mis hovonchani uzatib, qulog‘iga sirli tovushda shivirladi:

- Otajon, bularning hammasini hovonchada yanchish kerak. Tezroq yanchib, ajiqa qilish kerak. Bu uyda mehnat qilmagan odamga ovqat berishmas ekan. Yanching, otajon!

Ota qizidagi o'zgarishning sababi va aytilgan hikmatning ma'nosini tushunib yetdi, aybdor boladek boshini itoatkorona egib, hovonchada ajiqa yancha boshladi...

YETTI O'LBHAB, BIR KES...

Rustam Sharipov tarjimasi

Arlan Uaxaydni urushga olib ketishganida uyda yolg'iz qolgan yosh xotini Shazina xomiladorlikning ilk belgilarini sezgan edi. Urush uzoq davom etdi va juda og'ir kechdi. Uaxayd besh yil jang qildi va urushning so'nggi oylarida asirga tushib qoldi. Asirda uning yana o'n besh yil umri xazon bo'ldi. Uzoq yillar davomida u axchipslik bir knyazning uyida xizmat qildi. Va nihoyat, knyaz o'z asirini ozod etishga qaror qilib, xayrlashish vaqtida shunday dedi:

- Ko'p yillar davomida uyimda halol xizmat qilding. Aka-ukaday bo'lib qoldik. Hozir xizmatimga evaziga to'laydigan pulim bo'lmagani sababli senga bir maslahat bermoqchiman. O'ylaymanki, u sen uchun foydali bo'ladi. Hech qachon xulosa chiqarishga shoshil-magin – doimo yetti o'lbhab, bir kesgin. Erkak kishining yuragi qaynoq, aqli esa tiyrak bo'lishi darkor, – deya so'zini yakunladi.

Uaxayd urushga ketganidan keyin xotining ko'zi yorib, o'g'illik bo'lgan edi. O'tgan yigirma yil ichida u ulg'ayib, baquvvat va ko'rkam yigitga aylandi. Jegim (yigitning ismi shunday edi) otasi urushda halok bo'lgan deb o'ylar, eridan xat-xabar kelmagani uchun onasi Shazina ham shunga ishonch hosil qilgan edi.

Kunlardan birida oqshom tushar chog'ida sobiq askar o'zining ona qishlog'iga qaytib keldi. Ammo, birdan uyiga kirishga yuragi dov bermay, devor ortidan turib, derazadan mo'raladi. Ko'z oldida ochilgan manzaradan yuragi xapqirib ketdi: stoldagi sham shu'lasi kechki ovqatga o'tirgan jondan aziz rafiqasi Shazinaning yuzini yoritar, yonginasida esa yelkalari keng va suqsurdek chiroyli begona bir yigit o'tirardi. Shazina uning ovqat yeyishiga mahliyo bo'lib, vaqti-vaqti bilan quchog'iga olib, yuzidan o'pib qo'yar edi.

Bu manzarani ko'rgan Arlan Uaxayd o'zini zo'rg'a tiyishga muvaffaq bo'ldi. "Bu xotinimning jazmani bo'lsa kerak!" – degan o'y uning yuragini hanjarday tilib, vujudini larzaga keltirdi. Dastlab, qishloqdan tezroq ketib,

hech qachon bu yerga qaytmaslik fikri keldi. Ammo, keyin ikki jazman yashashga haqqi yo‘qday tuyuldi.

Uaxayd asta eshikni taqillatdi. Ichkaridan berilgan savolga:

- Men yo‘lovchiman. Ko‘chaga qorong‘i tushdi. Tunashga joy so‘rab keldim, - deb javob berdi.

- Albatta, “Mehmon – atoyi xudo” deyishadi. Uyga kiraqoling, - deb uni ichkariga da’vat etib, ovqat va joy taklif etishdi.

Mehmon ovqatdan bosh tortib, yuzi ko‘rinmasligi uchun o‘choqning oldidan joy egallab, mezbonlarni zimdan kuzata boshladi. Keyin ichishga suv so‘radi. Yigit suvsiragan mehmonning yoniga kelib, may uzatdi. Yonida turgan yigitga xamla qilishni o‘ylab, qo‘lini xanjarga uzatdi, ammo u ayol tomonga yurib ketganini ko‘rib, og‘ir tin oldi.

Shu lahza bexosdan Uaxayd kekxa knyazning “Hech qachon xulosa chiqarishga shoshilmagin – yetti o‘lchab, bir kes!” – degan so‘zlarini esladi va yana biroz kutishga ahd qildi.

Mezbonlar uning kimligi, qaerdan kelayotgani haqida qiziqib so‘raganlarida turli uydirmalar bilan javob qaytardi. So‘ng o‘zi ham savol bilan murojaat etdi:

- Bir-biringizga juda mehribon ekansizlar. Oila qurganingizga ancha bo‘lganmi?

- Nimalar deyapsiz? Axir bu mening o‘g‘lim-ku! La’nati urush tufayli otasini ko‘rish nasib etmagan, bu dunyoga kelib ulgurmay otadan judo bo‘lgan, yuragi armonga to‘lgan o‘g‘il... – deb javob berdi ona va ko‘ziga yosh oldi.

Yigit onasining yelkasidan quchib, uni tinchlantira boshladi.

Shunda Arlan Uaxayd ham o‘zini tutib turolmay, rafiqasining yoniga kelib, uni mehr bilan quchdi...

Ko‘zlardan yog‘ilayotgan mehr va muhabbat ikki vujudni jannat bog‘lari sari yetaklaganday... Sham esa yonib tugayotgan edi...

Keyin Uayxayd o‘g‘li tomon o‘girilib shunday dedi:

- Jonim bolam, hech qachon xulosa chiqarishga shoshilmagin, doimo yetti o‘lchab, bir kesgin!

VASIYAT

Keksa Kumfning oilasi katta bo'lishiga qaramay, uchala o'g'liga ham birday mehr berib katta qildi. Bolajon emasmi, o'zi yemay yedirdi, kiymay kiydirdi... O'g'illari voyaga yetgach, elga dasturxon yozib, to'y qilib berdi. Ammo, yillar o'tsa-da, o'g'illar oilalari bilan ota uyida yashashda davom etibdilar. Ota esa kuchdan qolib, ba'zan o'rnidan turishga ham, ovqat yeyishga ham kuch topolmay, tez-tez och qola boshlabdi. Farzandlari va hattoki kelinlar ham buni ko'rib, ko'rmaslikka olar, xullas, otalariga bee'tibor yashashda davom etardilar.

Bunday oqibatsizlik keksa va xasta qariyaning qalbini larzaga keltiribdi. Kunlardan bir kun, oxirati yaqinlashib kelayotganini sezgan ota kichik o'g'lini olidaga chorlab, qulog'iga shunday deb shivirlabdi:

- O'g'lim! Menga bo'lgan munosabatingni bilaman. Sen meni akalaringga nisbatan ko'proq yaxshi ko'rasan. Shuning uchun hamma bor-yo'g'imni senga vasiyat qilib qoldirmoqchiman. Men hayotdan ko'z yumganimdan keyin hamma ma'rakalarni o'tkazib bo'lib bog'dagi katta chinorning tagini kovlagin. U yerda bir xum oltin va mening vasiyatnomamni topasan. Ammo, shartim shuki, buni sen vafotimning qirq birinchi kuni, ya'ni hamma ma'rakalar o'tib bo'lganidan keyin qilishing kerak.

Otaning so'zlari o'zining ta'sirini ko'rsatibdi: shu daqiqadan e'tiboran kichik o'g'il va uning oila a'zolari keksa otaning atrofida girdikapalak bo'lib, uning hatto eng kichik istaklarini ham bajo keltirishga kirishibdilar.

Ertasiga keksa ota o'rtancha o'g'lini oldiga chaqirib, unga ham xuddi shu so'zlarni aytibdi. Undan keyingi kun hamma bor-yo'g'iga katta o'g'ilni merosxo'r qilibdi...

Endi uchala o'g'il bir-biriga gal bermay keksa otaning issiq-sovug'idan xabar olar, xotinlariga turli xil taniq taomlarni tayyorlatib keltirar, xullas uning ko'nglini olib, og'zidan chiqqan istaklarini shu zahoti bajo keltirishga harakat qilar emish.

Ammo, keksa Kumfga hech narsa yordam bermabdi. Uning kasali shunchalik o'tkazib yuborilgan ediki, tez orada u bu olamdan ko'z yumibdi.

Uchala o'g'il taomilga ko'ra hamma ma'rakalarni o'tkazib, otalari oldidagi burchlarini kech bo'lsa-da ado etishibdi. Qirq birinchi kuni, azaga kelgan qarindosh-urug' va qo'ni-qo'shnilar uy-uylariga tarqalgach, kichik o'g'il

belkurkni qo‘liga olib, akalariga “lom-mim” demay otasi aytgan chinor tomon yo‘l olibdi. Ammo u yerga borganida, o‘zi singari qo‘lida belkurak ko‘tarib olgan akalarini ko‘rib, hayratdan dong qotib qolibdi. Bunday yechimni kutmagan aka-ukalar dastlab dovdirab qolishgan bo‘lsa-da, keyin hamma gapni aytib berishga majbur bo‘lishibdi. Shundan keyin daraxtning tagini birga kovlashga, u yerdan chiqqan narsani esa uch qismga bo‘lishga ahd qilishibdi. Darhaqiqat, chinor ostidagi chuqurdan xum topishibdi. Ammo, xum bo‘m-bo‘sh bo‘lib, undan faqat bir varaq qog‘oz chiqibdi. Otaning qo‘li bilan shunday so‘zlar yozilgan edi: “O‘g‘illarim! Men butun umrimni sizlarga bag‘ishladim. Hech kimdan kam bo‘lmang, hech narsaga ehtiyoj sezmang deb, har kunim mehnatda o‘tdi. Sog‘-salomat voyaga yeting deb, o‘zimni o‘qqa-cho‘qqa urdim. Ammo, bir narsaga e‘tiborsizlik qilibman. Qalbingizga ota-onaga nisbatan hurmat va mehr-muruvvat urug‘ini sepmabman, farzandning ota-ona oldidagi burchi haqida tushuncha bermabman. Shuning uchun, aziz o‘g‘illarim, sizlarga vasiyatim: farzand tarbiyasiga jiddiy e‘tibor bering. Ularga ota-ona oldidagi burch, hurmat va mehr-muruvvat haqida tushuncha bering. Aks holda mening kunimga tushib qolishingiz hech gap emas...”

DONISHMAND JASIB

Rustam Sharipov tarjimasi

Keksa Jasib nabirasi Chigitsni o‘g‘irlik va qimor yo‘lidan qaytarishga ko‘p harakat qilibdi. Ammo, hamma harakatlari zoe ketibdi. Qarichilik emasmi, kuni bitganiga aqli yetgan Jasib oxirgi marta nabirasini oldiga chaqirib:

- Umrin oxirlab qolganga o‘xshaydi, - debdi. – Yaqinda omonatimni topshirsam kerak. Ammo, sen uchun ko‘nglim notinch. Umr bo‘yi o‘z bilganingdan qolmading. So‘zlarimga quloq tutmading. Xulosa qilmading. Ixtiyor o‘zingda, umringni shu tariqa davom ettirishing mumkin. Ammo, u dunyoda tinch yotishimni istasang, so‘nggi iltimosimni bajarishga so‘z ber. Yoshi ulug‘ bo‘lgan va eng tajribali o‘g‘ri bilan qimorbozni qidirib topgin-da, kasblarining butun sir-asrorlarini senga o‘rgatishlarini mening nomimdan iltimos qilgin. Aqlli odamlarning ta‘biri bilan aytgandek: “O‘z kasbining ustasi bo‘lgan odamning nasibasi ham butun bo‘ladi”. Sen ham nasibang butun

bo‘lishini istasang tanlagan kasbingning hamma ikir-chikirlaridan xabardor bo‘lishing kerak.

Nabira bu so‘zlarni hayrat bilan tinglabdi. Ammo, ajali yaqin-lashib qolgan buvasining gapini ikki qilishga jur‘at qilmay, so‘nggi istakni bajarishga so‘z beribdi.

Tez kunlarda kekxa Jasib hayotdan ko‘z yumibdi. Nabirasi esa bergan va‘dasiga binoan dastlab eng katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan o‘g‘rilarning “qirol”ni qidirib topibdi.

Ko‘z oldida namoyon bo‘lgan achinarli manzara uni xayratga solibdi: “qirol” pastqam, nuray boshlagan va deyarli jihozlanmagan uyda yashar, uyning to‘rida singan eski yotoq turar, uyning har burchagida esa yuvuqsiz idish-tovoqning singan parchalari yoyilib yotardi.

Mudhish manzaradan xafsalasi pir bo‘lgan yigit ichkariga kirishini ham, qaytib ketishini ham bilmay turganida ichkaridan “Kiraver”, - degan ovoz kelibdi. Yigit asta yurib kelib, xonada o‘tirishga boshqa narsa bo‘lmagani sababli o‘g‘ri yotgan omonat yotoqning bir chetiga ohista cho‘kibdi.

- Qo‘rqma, - debdi “qirol”, - sinib ketmaydi. Sendan ham og‘irlarni ko‘targan. Xo‘sh, xizmat?

- Bobom o‘limi oldidan meni yoniga chaqirib, eng usta o‘g‘rini topishimni va undan bu kasbning barcha sir-asrorlarini o‘rganishimni vasiyat qilgan edi, - debdi Chigits.

O‘g‘rilar “qirol”ining yuragi bu so‘zlardan iftixorga to‘lib, bir to‘lg‘anib qo‘yibdi.

- Bobong aqlli odam ekan. U senga juda to‘g‘ri maslahat beribdi. Sen ham turmadan boshi chiqmaydigan chuldurvaqalarning yoniga emas, aynan mening oldimga kelib to‘g‘ri qilibsan. Bizning ishimizda asosiysi iste’dod. O‘g‘rilikni orzu qilgan odam mahorat va epchillik darslarini olmagan bo‘lsa, boshi turmadan chiqmasligi aniq. Nimasini aytasan! Bugun oqshom tushishi bilan uyimga kelsang, bunga o‘zing amin bo‘lasan.

- Rahmat, - debdi Chigits va ikkinchi bor bu yerga qaytmaslikni ko‘ngliga tugib, chiqib ketibdi.

O‘g‘rining uyida ko‘rganlari: og‘ildan farq qilmaydigan xona va yo‘qchilik unga rahmatli bobosining hamma o‘gitlaridan ko‘ra ko‘proq ta’sir qilgan edi. “O‘g‘rining baxti” shu bo‘lsa, bu baxtdan benasib o‘taqolay”, - deb ko‘nglidan o‘tkazibdi Chigits.

O'g'ring uyidan chiqib, u va'daga binoan qimorbozlar "qirol"ni qidirib ketibdi. Topibdi ham. Ammo, u yerda ko'rganlari unda yana ham og'ir taassurot qoldiribdi: sochlari hurpayib ketgan qimorboz cho'kkalab tushib olib, shosha-pisha yerda qarta suzar, ko'zlari ola-kula bo'lib, o'zicha nimalarnidir g'o'ldirar edi.

Qulay fursatdan foydalanib, yigit muddaosini aytgan ekan:

- Yigitcha! Mening oldimga kelib, to'g'ri qilibsan, - debdi qimorboz faxr bilan.

– Men o'ttiz yildan beri qimor o'ynayman va bu xunarning hamma sir-asroridan xabardorman. Istasang, senga ham o'rgataman.

U boshini qartadan ko'tarib, qizarib ketgan ma'nosiz ko'zlarini yigitga tikibdi va... yana boshini quyi solib, shahd bilan qaytadan qarta suza boshlabdi. Shu alfozda Chigitsni ham o'yinga da'vat etgan ekan, yigit kekxa qimorbozga minnatdorchilik bildirib, uydin tezroq chiqib ketishga shoshibdi. Qari qimorboz ham umrini behuda o'tkazgan ekan-da...

Shunday qilib, kekxa Jasib nabirasini qing'ir yo'lga kirib ketishidan asrab qolgan ekan.

BUG'U OTILGAN KUN

Rustam Sharipov tarjimasi

Lata qishlog'ida yashaydigan Karim Bagapsh dovyurak va omadli ovchi edi. Kunlardan bir kuni u tog'da ov qilib yurganida bug'uni otishga muvaffaq bo'libdi. To'shni uyga olib ketishni o'ylab, bug'uning oyog'ini tok novdasi bilan mahkam bog'lab, vodiy tomon sudray ketibdi. Karim o'ljasini uzoq sudrabdi va oxiri charchabdi.

Vodiy uzra oqshom o'z choyshabini yoza boshlagan bo'lsa-da, qishloqqacha xali ancha uzoq edi. Shuning uchun biroz o'ylab, "tunni qadrdon do'stim Tamshug Amchinikida o'tkazib, ertaga yo'lda davom etganim ma'qul," – degan qarorga kelibdi va o'ljani yashirish uchun joy qidira ketibdi. Ko'zdan panaroqda qulay bir chuqurlik topib, bug'u to'shini o'sha yerga joylabdi-da, ustini shoh-shabba bilan bekitib, do'stining uyi tomon shahdam qadamlar bilan ravona bo'libdi.

Qadrdonining uyiga oz qolganida kutilmaganda Karimning xayoliga: “Qiziq, Tamshug menga chin do‘stmikin? Uni bir sinab ko‘rsammikin? Axir, chinakam do‘stlar boshga tashvish tushganida bilinadi-ku...” – degan fikr kelibdi.

Tamshug Karimni ko‘rib quvonib ketibdi.

- Xush kelibsan, do‘stim! Seni ko‘rib, boshim osmonga yetdi, - mehmonni samimiy qarshi olibdi u. – Uyga kir, aziz mehmonim bo‘l.

Ammo Karimning chehrasi ochilmabdi. Ostonani ham hatlamay turib, eshitilar-eshtilmas ovozda shivirlabdi:

- Meni kechir, do‘stim. Bugun uyingga mehmon bo‘lib emas, yordam so‘rab keldim. Boshimga og‘ir tashvish tushdi... Men odam o‘ldirib qo‘ydim... Yordamingga muhtojman.

- Odam o‘ldirding?

- Ha, odam o‘ldirib qo‘ydim. Bu haqda keyinroq aytib beraman. Hozir esa menga yordaming kerak. Jasad yo‘l yoqasida yotibdi. Uni tezroq ko‘mib tashlash kerak. Aks holda ishim chatoq. Tezoq bo‘l, kun yorishguncha ulgurish kerak.

- Sen odam o‘ldirib qo‘ydingmi? – Tamshugning ovozida vahima alomatlari paydo bo‘libdi.

- Ha, ha!.. Ko‘rayapsan-ku, hamma joyim qon. Tezroq bo‘laqol-sangchi. Belkuraklarni olish esingdan chiqmasin... Bir o‘zim uddalay olmayman.

- Menga qara, - debdi Tamshug uni to‘xtatib. – Men sening do‘stingman. Shuning uchun bu haqda hech kimga aytmaslikka so‘z beraman... Senga yordam berishga ham tayyorman. Ammo... unda... qotillikka sherik bo‘lib qolaman-da! Unda... meni ham...

Mezbonning bu so‘zlari Karimning xafsalasini shu qadar pir qilgan ediki, diydiyo oxiriga yetmasidan u shahd bilan o‘girilib, kelgan yo‘liga ravona bo‘libdi.

- Mana sizga do‘stlik! – degan alamli xayol bilan Karim Shaadat Ashvbyuning uyi tomon yo‘l olibdi. U tengdoshi Shaadat bilan birga ov qilishar, hattoki to‘ylari ham oldinma-ketin o‘tgandi.

“Nahotki u ham o‘zini Tamshugdek tutsa?” – degan fikr Karimga tinchlik bermasdi.

Karim Shaadatning uyiga yaqinlashgani sayin qalbida ikkilanish tuyg‘usi ortib borardi. Itning vovullashi eshtilgach, ortidan odamning qorasi ko‘rindi.

Uydan chiqib kelgan do'stiga Karim boyagi gaplarni aytib, undan ham yordam so'rabdi.

- Ishing chatoq, - achinish bilan debdi Shaadat. – Ammo, sening musibating mening ham musibatim. O'zi kimni o'ldirib qo'yding? Nima uchun?

- Yo'l-yo'lakay aytib beraman. Hozir esa tezroq yur. Shoshilish kerak!

- Ulguramiz, - biroz o'ylanib debdi Shaadat. - Avval menga hamma gapni aytib ber. Nega yashirasan? Odamlar qotilliging haqida bilib qolishidan qo'rqayapsanmi? Unda nega meni ham bunga sherik qilmoqchisan?

- Demak, menga yordam bermaysan-a?

- Sen esa mening ham boshimga falokat yog'dirib, yemagan somsamga pul to'latmoqchimisan? Aybsiz aybdor qilmoqchimisan?

- Alvido, Shaadat! – deganicha Karim yo'liga ravona bo'libdi.

Shu ketganicha Kobchara, qo'shni Chxalta qishloqlarini va hattoki o'zining qadrdon qishlog'i Latani ham aylanib chiqibdi. O'ziga yaqin deb bilgan odamlaridan yordam so'rab, qilgan murojaatiga har safar rad javobini olib, xafsalasi pir bo'libdi.

Qosh qorayganida uning xayoliga yana bir fikr kelibdi-da, o'ziga o'zi "Buni ham ko'raylik-chi..." – deb, yana Kobcharaga, akasi Daxar yashaydigan qishloqqa ravona bo'libdi.

...Bundan o'n yillar avval Daxar qishloqning eng ko'zga yaqin qizlaridan biri bo'lgan sohibjamol Xfafga ko'ngil qo'ygan edi. To'y kuni ham belgilangandi...

Taqdirning o'yinini qarangki, ukasi Karim ham qizni jon dildan sevib qolibdi. Natijada, Xfaf badqovoq Daxarni emas, yosh va xushchaqchaq Karimni tanlabdi. To'yga bir necha kun qolganida sevishganlar toqqa, keyin esa dovon osha Cherkesiyaga qochishibdi. U yerda uch yil yashab, keyin Lata qishlog'iga kelib joylashishibdi.

Shu sababli mana o'n yildirki aka-ukalar yuzko'rmas bo'lib ketishgandi.

Bir necha yil avval aka-ukalar o'rmonda tasodifan uchrashib qolishgan edi. Uchrashuv chog'ida Daxar Karimga qarab shunday degandi.:

- Sen meni sharmanda qilding! Ikkinchi ko'zimga ko'rinma. Men qotillikni o'zimga ep ko'rmayman, ammo bir narsani ikki qulog'ingga quyib ol: mening sendek ukam yo'q!

Shunga ham yetti yil bo'libdi... O'shandan beri aka-ukalar biron marta yuzma-yuz kelmagandi...

Karim tong yorishayotganida akasining uyi yoniga kelib, asta eshikni taqillatibdi.

- Kim u? – eshik ortidan Daxar ko‘rindi. Juda erta turadigan odati bo‘lgani uchun u kiyingandi.

- Sen?

- Ha, men... ukangman... – deb javob beribdi Karim.

- Mening sendek ukam yo‘q! – cho‘rt kesibdi Daxar.

- Iltimos, gapimni eshit...

- Eshitishni ham istamayman! Yo‘qol bu yerdan! Yo‘qsa, itla-rimni qo‘yib yuboraman. Sokul! Lamura! – deb chaqirgan ekan, og‘ildan ikkita kattakon it so‘lagini oqizib yugurib chiqibdi. – Bu yerdan yaxshilikcha ket, aks holda itlarim qahraton qishda ot o‘g‘risi Xib Tatashni tilka-pora qilgandek seni ham g‘ajib tashlashadi.

- Boshimga musibat tushdi, Daxar! – debdi Karim iztirob to‘la ohangda: – Men odam o‘ldirib qo‘ydim...

- Uning o‘rniga sen o‘lsang bo‘lmasmidi, - debdi Daxar istehzo bilan. – Endi mening oldimga shu gapni aytgani keldingmi?

- Sendan yordam so‘rab keldim... Meni qutqar! – deb, shu kecha bir necha marta aytilgan voqeani qaytaribdi. - Daxar, menga yordam ber... Yordam bermasang, holim voy.

- Yaxshiyam otamiz shu kunlarni ko‘rmadi. Yo‘qsa, shu qilmishing bilan tiriklayin go‘rga tiqarding. Bu kuningdan o‘lganing yaxshi edi. Qotil! Jasad qaerda?

- O‘rmonda.

- Ablah! – debdi-yu aka shahd bilan uyga kirib ketibdi. Birozdan keyin egnida chakmon, qo‘lida esa uchli tayoq bilan chiqib kelibdi. – Yur, ketdik. O‘rmon bilan borsak, ulguramiz.

Xovlidan ikkita belkurakni olib, yo‘lga ravona bo‘lishibdi.

Tongotarda aka-ukalar chuqur yoniga kelishibdi. Karim shoh-shabballarni bir chetga surib, u yerda yotgan bug‘uni xayron qolgan akasiga ko‘rsatibdi.

- Men odamni emas, mana shu bug‘uni otib o‘ldirgandim. Men faqat chin do‘st kimligini bilmoqchi edim, xolos.

Shundan so‘ng Karim akasiga bo‘lib o‘tgan voqeni gapirib beribdi.

- Mana endi oqni qoradan ajratdim. Men uchun kim chin do‘st ekanligini bildim. Sen, Daxar, mening chin do‘stim ekansan!

- Alvido, Karim! – deb javob qaytaribdi Daxar. – Sen do‘st topdim, deb hisoblashing mumkin. Ammo, bilib qo‘y: akangni qaytara olmading...

QADOQLI QO‘LLAR

Rustam Sharipov tarjimasi

- O‘g‘lim, endi katta yigit bo‘lib qolding, - debdi ota o‘g‘lini yoniga chaqirib. - Peshona teri bilan kun ko‘radigan vaqting keldi. Endi borgin-da, halol mehnat qilib, pul topishni o‘rgangin. Aks holda uyga qaytmagin.

Yigit bu so‘zlarni jiddiy qabul qilmay, bir yo‘lini topish xayoli bilan uydan chiqib ketibdi. Tabiatan dangasa bo‘lgani sababli u kun bo‘yi ko‘chada sandirag‘lab yurib, kechqurun uyga kirib kelibdi.

Qaysi ona bolasining yonini olmaydi? Kirib kelishidan o‘g‘li ishni uddalay olmaganini sezgan bo‘lsada, otasidan gap eshitmasligi uchun uning qo‘liga o‘n so‘m tutqazibdi.

O‘g‘il: “Kun bo‘yi topgan pulim shu,” - deya onasi bergan pulni otasiga uzatibdi. Ota bir uzatilgan pulga, bir o‘g‘lining ko‘ziga tikilib, kutilmaganda pulni yulib olib parcha-parcha qilib yirtib tashlabdi va o‘g‘liga ta’na bilan:

- Bu pullarni sen ishlab topgan emassan. Endi bu yerdan yo‘qol. Peshona tering bilan pul topib kelmasang, ko‘zimga ko‘rinma, - debdi.

Yigit: “Otam haqiqatni qaerdan bildi ekan?” - deb xayron qolibdi.

Keyingi kunni ham u ko‘chada sandirog‘lab yurish va qahva-xonada o‘tirish bilan o‘tkazibdi. Kechqurun onasi uni qutqarishiga ishonchi komil edi-da! O‘ylaganidek, kech kirib, uyiga qaytganida onasi yordamga kelibdi. Otasiga ro‘para kelganida yigit yana onasi bergan pulni uzatib:

- Mana, oling ota! Bu pullarni men o‘zim ishlab topdim

Ammo, bu safar ham otasi o‘g‘liga ishonmay pulni mayda-mayda qilib yirtib tashlabdi va o‘g‘liga kechagi gapni takrorlabdi.

Yigit yana buning sababini tushunolmay xayron bo‘libdi.

Axiri, uchinchi kuni yigit ishlab ko‘rishga qaror qilibdi. Yosh qo‘llar hamma yerda ham kerakda. Uning g‘ayrati ham yerda qolmabdi. Kun bo‘yi mehnat qilib, kun qorayganida uyga qaytibdi va otasiga ishlab topgan pulini uzatibdi.

Ota pulni qo‘liga olib, yana yirtib tashlashga chog‘langan ekan, o‘g‘li jon holatda uni to‘xtatishga harakat qilib:

- To‘xtang otajon, nima qilayapsiz? Pulni yirtmang! Axir men ularni topish uchun kun bo‘yi qancha mehnat qildim! Ishonmasangiz, mana, qo‘llarimdagi qadoqqa bir qarang.

Shundagina otasida qoniqish hissi paydo bo‘lib, farzandiga qarata debdi:

- Mana endi bu pullarni peshona tering bilan ishlab topganingga ishonsa bo‘ladi. Halol mehnat evaziga kelgan pulning qadriga yetadigan inson bo‘libsan. Balli, o‘g‘lim! Bu sen uchun bir umrga saboq bo‘lsin! – debdi.

MUNDARIJA:

ILMIY MAQOLALAR

Farangiz Ne`matova. Ikki dunyo: Badiiy tarjima va xalqlar o`rtasidagi ko`prik sohibi	3
Muxlisa Orifova. Zulfiya o`zbek adabiyotining betakror shoirasi	8
Lazzat O`tkirova. O`zbekistonda media ta`lim: Media vositalar va axborot xavfsizligining huquqiy aspekti	13
Saodat Rahmatullayeva. Ma`rifat va Adabiyot chorrohasida:	17
Hamza Hakimzoda Niyoziyning o`rni	
Shukurullo Tursunov. Zamonaviy Jurnalistikada sun`iy intellektning o`rni: Mashhur shaxslar fikrlari va kengroq tahlil	23
Madinabonu Xakimova. G`afur G`ulom - satira va haqiqat shoiri	26
Biloliddin Abdulhoshimov. Xurshid Davron – Zamonaviy o`zbek Adabiyotining yirik vakili	33
Muazzam Ibrohimova. O`zbek adabiyotining yorqin yozuvchisi	37
Saodat Muxamedjanova. Nega inson kuladi?	42
Durdona Rahmatullayeva. Adabiyotning Erkin Nafasi:	48
Vohidovning Ijodiy manzaralari	
Jasmina Fayzullayeva. Buyuk insonlarning buyuk izlari	51
Madina Mahkamova. Hamid Olimjon ijodi	58
Dinara Muhammadova. Adabiyotimizda o`chmas iz qoldirgan siymo	65
Lobar Miraxmatova. Xalqni taraqqiyparvarlikka da`vat etgan jadid	73
Farangiz Po`latova. Matnni nashrga tayyorlash madaniyati.	77
Sharifa Ro`zmetova. Maqsud Shayxzoda: Adabiyotning ulug` namoyondasi	80
Farangis Sodiqova. Zulfiyaxonim: O`zbek adabiyotidagi sadoqat va ilhom timsoli	83
Axror Ergashev. Buyuk Adib va Uning O`lmas Ijodi	87
Muslima Mo`ydinova. Kitob bilan buyuklik sari yo`l!	90
Zarina Tajkulova. Said Ahmad ijodi va uning tarjimonlik san`ati	93
Mohichehra Qadamova. Ekologik muommolarga yechim bormi?	97
Xumora Toshmurodova. Rus she`riyati namunalari o`zbek tilida	101
Javohir Ergashev. Ishsizlik va iqtisodiy tengsizlik	109

TARJIMALAR

Madinabonu Xakimova. Bo‘m-bo‘sh uy	114
Saodat Rahmatullayeva. Taslim bo‘lmang	119
Farangiz Ne‘matova. Quvonch	120
Farangiz Ne‘matova. Doktor Mark	123
Farangiz Ne‘matova. Grisha	124
Dildora Shukurova. Onamning hidi	128
Marjona Raxmonova. Bola boshidan	129
Malohat Yakubjonova. Adabiyot ixlosmandi	130
Laylo Abduraximova. Yolg‘izlik	136
Ozoda Ahmedova va Elvira Ankaliyeva. Ishq maktublari	139
Kamola Rasulova. Telefon	141
Rustam Sharipov. Mehmon	144
Rustam Sharipov. Jigargo‘shalar	147
Rustam Sharipov. Ajiqa	154
Rustam Sharipov. Yetti o‘lchab, bir kes	155
Rustam Sharipov. Vasiyat	157
Rustam Sharipov. Donishmand Jasib	159
Rustam Sharipov. Bug‘u otilgan kun	161
Rustam Sharipov. Qadoqli qo‘llar	164